

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha

prorektor:

N.Abdualazizov

2020 y.

Noananaviy energiya manbalari

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Navoiy – 2020

Qarshibayev A.I., Zokirov B.Sh. «Noananaviy energiya manbalari» fanidan o'quv-uslubiy majmua.– Navoiy : NDKI. – 2020 y - bet.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua «Noananaviy energiya manbalari» fani bo'yicha ma'ruza, amaliy, tajriba mashg'ulotlar asosida yaratilgan bo'lib, unda ma'ruza va tajriba mashg'ulotlari o'rganish bo'yicha elektr energetika ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari uchun mahsus o'quv dasturi, ma'ruza matni, tajriba va amaliy mashg'ulotlariga uslubiy ko'rsatmalar, savol-javoblar, test savollari ro'yxati jamlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. SHu bilan birga o'quv-uslubiy majmuadan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant-tadqiqotchilar va korxonalarning mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

O'quv-uslubiy majmuada bu fandan bir semestrda o'tilishi kerak bo'lgan ma'ruza matnlari amaliy va tajriba ishlari bo'yicha misol ham keltirilgan.


Talabalarning olgan bilimlarini sinash uchun test savollari ham keltirilgan.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua bakalavriaturaning 5310200-«Elektr energetikasi» ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan

Tuzuvchi:

Zokirov B.SH.- «Elektr energetikasi» kafedrasida katta o'qituvchisi.

O'quv-uslubiy majmua «Elektr energetikasi» kafedrasining yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. (№ bayonnoma, "7" iyun 2020 yil.)

Kafedra mudiri:  **N.O. Ataulayev**

O'quv-uslubiy majmua Energo mexanika fakultetining yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. (№ bayonnoma, "10" iyun 2020 yil.)

Energo mexanika fakultet dekani



T.f.d. A.I. Karshibayev

O'quv-uslubiy majmua Navoiy Davlat Konchilik instituti o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan. (№ bayonnoma, "29" iyun 2020 yil.)

O'quv-uslubiy kengash kotibi
Kelishildi:



M.J. Normatova

O'quv – uslubiy bo'lim boshlig'i



I.A. Karimov

№	Mundarija	bet
1.	O'quv materiallari	
2.	Amaliy mashg'ulotlar	
3.	Tajriba mashg'ulotlar	
4.	Mustaqil mashg'ulotlar	
5.	Glossariy	
6.	Ilovalar	
6.1	O'quv dasturi	
6.2	Ishchi o'quv dasturi	
6.3	Tarqatma materiallar	
6.4	Testlar	
6.5	Baxolash mezonlari	
6.6	Adabiyotlar ro'yxati	

Kirish

«Noananaviy energiya manbalari» fani bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy majmua DTS talablari asosida tuzilgan. Respublikamizda iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishida malakali mutaxassislarni tayyorlashga zaruriyat katta. SHuning uchun, ushbu fanni o'qitishdan maqsad – Noananaviy elektr energiya manbalari va qismlarini tuzilishi, ishlash prinsiplari va ularning tanlash bo'yicha yunalish profiliga mos, ta'lim standartida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashdir.

« Noananaviy energiya manbalari» fani «Elektr energetikasi» ta'lim yunalishida o'qitiluvchi asosiy fanlardan biri bulib, u 5 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, informatika), umumkasbiy (gidro va issiqlik qurilmalari; elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va ularning jarayonlarini avtomatlashtirish; o'ta kuchlanish va izolyatsiya; o'tkinchi jarayonlar; stansiya va elektr energetika tizimlarining releli himoyasi x.k.) va ixtisoslik (elektr stansiya va elektr energetika tizimlarida matematik modellash, optimallashtirish, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari; elektr energetika tizimlarida avtomatik rostdash va boshqarish) va h.k fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Ushbu fan talabaga yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun zaruriy bilimlarni beradi. SHuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fani xisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Talabalar «Noananaviy energiya manbalari» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar va kursatmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy, va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilgor pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

1-mavzu.Fanga kirish. «Noan'anaviy energiya manbalari» fannining mazmuni va masalalari.

Reja:

- 1.Kirish. «Noan'anaviy energo manbayi» fannining mazmuni.
- 2.Fanning tarkibi va vazifalari.Energetik resurslar.
- 3.Yer yuzidagi umumiy energetik resurslar va ularni baholash.

1.Kirish. «Noan'anaviy energo manbayi» fannining mazmuni.

Inson ta'siri natijasida dunyo o'zgarmoqda. Insoniyatning organik energetik resurslarni o'ylamasdan energetikada, transportda, katta zavod va fabrikalarda qo'llashi, atom energetikasi hamda katta shaharlar chiqindilarini dunyo okeaniga tashlanishi natijasida atrof-muhit o'zgarmoqda. Er yuzida iqlimning o'zgarishi kuzatilmoqda, mangu muzliklar erimoqda, shaharlar suv ostida qolmoqda, o'rmonlar yonmoqda. Er yuzining juda ko'p mamlakatlarida insonlarni ichimlik suvining etishmasligi, qurg'oqchilik va ocharchilik qiynamoqda, yangi-yangi kasalliklar paydo bo'lmoqda. YUqorida keltirilgan salbiy o'zgarishlarning barchasi, millionlab yillar tabiat tomonidan o'rnatilgan tabiiy muvozanatni insoniyat tomonidan o'ylamasdan buzulishi natijasida yuz bermoqda.SHuning uchun ulug' ingliz faylasufi Frensis Bekon «Tabiat faqatgina unga bo'ysunish bilan engiladi» degan edi.

YUz berayotgan falokatlarini to'xtatish uchun nima qilish kerak? Birinchi galda insonning ichki dunyosini tabiatga nisbatan ijobiy o'zgartirish, sungra organik energetik resurslardan foydalanishni butunlay to'xtatish lozim.

Qanday qilib? Axir zamonaviy inson maishiy qulayliklarsiz -komfortsiz, ya'ni mashinasiz, uzoqni yaqin qiluvchi tez yuruvchi poezdlarsiz, samolyotlarsiz, televizorsiz, muzlatgichsiz, isitgichsiz, issiq va sovuq suvsiz hamda boshqa qulayliklarsiz yashay olmaydiku. Zavod va fabrikalar energiyasiz ishlay olmaydilar. Hozirgi rivojlangan dunyoda energiya, inosniyatni olg'a etaklovchi asosiy manba hisoblanadi. Mamlakatlarning qudrati ham ularning energiya bilan qanchalik ta'minlanganliklariga qarab belgilanadi.

Atrof-muhitga zarar keltirmay insoniyat xizmatini bajaradigan energiya, Olloh tomonidan yaratilgan ekologik toza tabiiy energiyadir. Bu energiya turlariga suv, quyosh, shamol, geotermal suvlar, geyzerlar, to'lqinlar, suv sathining ko'tarilib-tushishi, vulqonlar, chaqmoqlar, okean va dengizlardagi har xil oqimlar hamda boshqalar kirishi mumkin. Mana shu energiya turlariga **noana'naviy va qaytalanuvchi energiya** turlari deyiladi.Faqatgina ushbu energiya turlaridan toza ekologik energiya ishlab chiqarish usullarini yaratish lozim.

Mamlakatimiz kichik daryolar, irrigatsiya kanallari, suv omborlari, katta kollektorlar, soylar, baland tog'lardagi buloqlar, termal suvlar, quyosh va shamol kabi qaytalanuvchi energiya manbalariga juda boydir.

Ushbu darslikda talabalar uchun, mamlakatimiz va dunyo mamlakatlarida foydalanilayotgan noana'naviy hamda qaytalanuvchi energiya manbalari to'g'risida ma'lumot beriladi.

2.Fanning tarkibi va vazifalari. Energetik resurslar.

«Noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari» fani talabalarga, organik yoqilg'ilarni yoqish bilan bog'liq bo'lmagan energetika to'g'risida bilim beradi.

«Noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari»fanini o'rganish davomida talabalarga ana'naviy va noana'naviy, qaytalanuvchi va qaytalanmaydigan energiya manbalari haqida tushunchalar beriladi. Qaytalanuvchi energiya manbalarining asosi bo'lmish quyosh energiyasi va quyosh energiyasi yordamida issiqlik hamda elektroenergiya ishlab chiqarish va elektroenergiya ishlab chiqaruvchi quyosh elektrostansiyalarining sxemasi va ishlash tartibi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, fanning tarkibiga qaytalanuvchi energiya manbalaridan - shamol energiyasi va energetikasi hamda elektrostansiyalari, to'liqlar energiyasi va elektrostansiyalari, suv ko'tarilishi energiyasi hamda elektrostansiyalari, geotermal energiya va elektrostansiyalar haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Ushbu fan «Irrigatsiya tarmoqlari suv energiyasidan foydalanish» yo'nalishi tarkibida bo'lganligi uchun albatta uning tarkibiga gidroener-getikaning rivojlanishi, O'zbekistonda va dunyoda gidroenergetikaning rivojlanish tarixi, gidroenergetikaning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari, gidroenergetika asoslari, suv va suv resurslari, gidrologiyaning asosiy tushunchalari, suv manbasining ishi, gidroenergetik resurslar, suv omborlari hamda gidroelektrostansiya(GES) beflarining xarakteristikallari haqida ma'lumotlar beriladi.

Ma'lumki har qanday GESni uning asosiy energetik jihozlari va gidrotexnik inshootlari tashkil qiladi. SHuning uchun ushbu fanda gidravlik turbinalar va gidrogeneratorlar, asosiy gidrotexnik inshootlari tarkibi, suv xo'jaligi tizimi, suv resurslaridan kompleks foydalanish, irrigatsiya tizimlari suv energiyasidan foydalanish, GESni irrigatsion va energetik tizimda ishlashi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Fanning sunggida, energetika rivojlanishining muammolari,energe-tikaning salbiy oqibatllari, energiyani tejash va tejash usullari beriladi.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni mamlakatlar va dunyo energetikasining hozirgi ahvoli, muammolari va kelajakdagi rivojlanishi bilan tanishtirishdan iboratdir. Fanning asosiy vazifasi, ana'naviy-qaytalanmaydigan hamda noana'naviy – qaytalanuvchi energiya manbalari haqida ma'lumot berish, energiya ishlab chiqarish imkonini beruvchi manbalarning resurslari, ularni ishlab chiqarish usullari va jihozlari, ularni hisoblash, tanlash, ekspluatatsiya qilish bilan talabalarni tanishtirishdan iboratdir. Quyida talabalarni qisqacha dunyodagi umumiy energetik resurslar bilan tanishtirib o'tamiz

3.Yer yuzidagi umumiy energetik resurslar va ularni baholash.

Dunyo mamlakatlarida elektroenergiya ishlab chiqarish bir xil emas. Elektoroenergiya ishlab chiqarish qarab chiqilayotgan mamlakatdagi energetik resurslar-organik yoqil'ilar (neft mahsulotlari, ko'mir, gaz va boshqalar), gidroenergetik zahiralar, atom elektrostansiyalarini harakatga keltiruvchi xom ashyolar, daryo va dengiz hamda okeanlar bilan chegaradoshligi hamda boshqa omillarga bog'liqdir. Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha er yuzi mamlakatlari quyidagicha joylashgan: Janubiy Amerika; G'arbiy Evropa; Osiyo; MDH mamlakatlari; Lotin Amerikasi; Afrika; Avstraliya. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda umumiy elektroenergiyaning 80 % ishlab chiqilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 20 % ni tashkil qiladi. Elektoroenergiya ishlab chiqish bo'yicha AQSH, Rossiya, YAponiya, Xitoy, Germaniya, Kanada, Fransiya, Angliya,

Ukraina va Hindiston mamlakatlari etakchi o‘rinlarni egallaydilar. 1-jadvalda dunyoning ba’zi mamlakatlarida elektroenergiya ishlab chiqarish, mlrd. kVt/soatda hamda 2-jadvalda dunyodagi ba’zibir mamlakatlar aholisini elektroenergiya bilan ta’minlanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Jadval 1.

Dunyoning ba’zi mamlakatlarida elektroenergiya ishlab chiqarish, mlrd. kVt/chas

Mamlakatlar	Yillar				
	1990	1995	2000	2005	2010
1	2	3	4	5	6
Kanada	482	560	595	635	693
AQSH	3197	3280	3572	3867	4112
Avstriya	50	52	57	62	69
Belgiya	70	74	76	81	87
Daniya	25	35	41	43	41
Finlandiya	54	67	80	86	94
Fransiya	420	474	526	528	552
Germaniya	549	510	534	550	573
Irlandiya	14	16	17	20	23
Italiya	216	232	285	354	405
Gollandiya	71	86	94	100	103
SHvetsiya	146	148	155	158	160
Angliya	319	336	382	411	499
Bolgariya	42	39	46	49	52
CHexiya	62	57	63	65	66
Vengrya	28	34	37	41	45
Polsha	136	142	165	187	214
Ruminiya	63	66	81	97	125
Rossiya	1082	940	1050	1160	1210
Ukraina	298	193	208	240	265
Islandiya	4	4	4	5	5
Isroil	20	26	35	46	56
SHveysariya	55	58	61	62	63
Turkiya	57	88	139	207	307
O‘zbekiston	49	47	47	50	51


Jadval 2.

Dunyodagi ba’zibir mamlakatlar aholisini elektroenergiya bilan ta’minlanganligi (2005 yil ma’lumoti)

Mamlakatlar	Ta’minlanganlik, ming kVt. soat/jon boshiga		Mamlakatlar	Ta’minlanganlik, ming kVt. soat/jon boshiga
1	2		1	2

Islandiya	25,9	Irlandiya	5,4
Norvegiya	23,4	Ispaniya	5,4
SHvetsiya	15,3	CHexiya	5,4
Finlandiya	15,0	Slovakiya	5,3
Kanada	14,9	Italiya	5,1
AQSH	12,4	Malta	5,0
Avstraliya	9,7	Estoniya	4,8
YAngi Zelandiya	8,8	Gretsiya	4,4
YAponiya	7,6	Bolgariya	4,4
Belgiya	7,6	Portugaliya	4,0
SHveysariya	7,3	Vengriya	3,6
Fransiya	6,8	Makedoniya	3,5
Avstriya	6,7	Xorvatiya	3,4
Germaniya	6,3	Polsha	3,0
Rossiya	6,2	Litva	2,8
Gollandiya	6,1	Ruminiya	2,6
Isroil	6,1	Latviya	2,5
Janubiy Koreya	6,1	Uzbekistan	1,95
Sloveniya	5,9	Meksika	1,8
Daniya	5,8	Turkiya	1,7
Angliya	5,6		

Dunyoda elektroenergiya ishlab chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi: issiqlik elektrostansiyalarida- 63 %, GESlarda-20 %, AESlarda –17 % (1-rasm). Ammo, mamlakatlardagi energoresurslarning turi va miqdoriga qarab elektroenergiya ishlab chiqariladi(3-jadval). Masalan, Lotin Amerikasida 75 % elektroenergiya GESlar yordamida ishlab chiqariladi. G‘arbiy Evropa va Janubiy Amerikada, AESlar yordamida elektroenergiya ishlab chiqarish, dunyodagi o‘rtacha miqdordan yuqoriroq.



1-rasm. Dunyoda elektroenergiya ishlab chiqarishning strukturasi

Elektroenergiya ishlab chiqaruvchi energetik resurslar hamda elektro-stansiyalar bo‘yicha dunyo mamlakatlarini **4 guruhga** bo‘lish mumkin.

Ko'mir, mazut va tabiiy gaz yordamida ishlovchi issiqlik elektrostansiyalari bilan ko'p miqdorda elektroenergiya ishlab chiqaruvchi **birinchi guruh** mamlakatlariga AQSH, ko'pchilik G'arbiy Evropa mamlakatlari va Rossiya kiritish mumkin.

Mamlakatda foydalaniladigan barcha elektroenergiyani issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariluvchi **ikkinchi guruh**ga Xitoy, Polsha, Avstraliya (yoqilg'i sifatida asosan ko'mirdan foydalanadi), Meksika, Gollandiya va Ruminiya mamlakatlari kiradi.

Uchinchi guruhga juda ko'p miqdorda GESlar bilan elektroenergiya ishlab chiqariluvchi quyidagi mamlakatlar kiritilgan: Norvegiya (99,5 %), Braziliya, Paragvay, Gonduras, Peru, Kolumbiya, SHvetsiya, Albaniya, Avstriya, Efiopiya, Keniya, Gabon, Madagaskar, Yangi Zelandiya. Ammo gidroenergetika-dan foydalanish bo'yicha Kanada, AQSH, Rossiya va Braziliya mamlakatlari dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydilar. Hozirgi kunda gidroenergetika rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tez rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham gidroenergetika yordamida elektroenergiya ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Atom energetikasidan ko'p foydalanadigan **to'rtinchi guruh** mamlakatlariga Fransiya, Belgiya, Yaponiya va Koreya Respublikasini kiritish mumkin.

2-mavzu. Qayta tiklanuvchan va qayta tiklanmas energiya manbalari. Qayta tiklanuvchan energiya qurilmalari – energetik muammolarini yechishdagi katta ahamiyat kasb etadi.

Reja:

1. Qayta tiklanmas energiya manbalari. Dunyo energetikasining yoqilg'i asoslari.
2. Noanaviy va qaytalanuvchi energiya manbalari hamda ularning dunyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan turlari.
3. O'zbekistonda mavjud bo'lgan noanaviy energiya manbalari.

1. Qayta tiklanmas energiya manbalari. Dunyo energetikasining yoqilg'i asoslari.

Dunyo energetikasi yoqilg'i asoslarini, yoqilg'i sanoatining 4 tarmog'i tashkil qiladi.

Neft sanoati. Hozirgi kunda neft sanoati dunyo yoqilg'i – energetika sanoatining etakchi tarmog'i hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda neft zahiralari 86 % ni, qazib olish esa 50 % ni tashkil qiladi. Eng katta neftga boy rayonlarni Fors qo'ltig'i regionini va Rossiya tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyoning 80 mamlakatida neft qazib olinadi. Eng katta neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga Saudiya Arabistoni, AQSH, Rossiya, Eron, Meksika, Xitoy va Venesuelalar kiradi. Neft ishlab chiqaruvchi va neft mahsulotlarini iste'mol qiluvchi mamlakatlar o'rtasida juda katta masofa mavjud. Neft va neft mahsulotlarini bir mamlakatdan ikkinchisiga etkazib berish uchun katta masofalarga katta diametrli sifatli po'latdan tayyorlangan quvurlar qo'llaniladi.

Gaz sanoati. Gaz sanoati o'tgan asrning 50 yillaridan rivojlana boshladi. Dunyo bo'yicha gaz iste'mol qilish, umumiy iste'mol qilinadigan energetik resurslarning 20 % ni tashkil qilib, neft va toshko'mirdan sung 3 o'rinni egallaydi. Ekologik jihatdan gaz eng toza energoresurs hisoblanadi. Tabiiy gaz zahiralari bo'yicha MDH mamlakatlari, Osiyo, Rossiya va Eron etakchi o'rinlarni egallaydilar.

Dunyo bo'yicha gaz qazib olish yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda qazib olinadigan gazning hajmi $4,0 \text{ trl.m}^3$ ga etib qoldi. Gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi **o'nlikka** Rossiya, AQSH, Kanada, Turkmaniston, Gollandiya, Fransiya, O'zbekiston, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni mamlakatlari kiradi.

Gaz yoqilg'isi asosan G'arbiy Evropa, Yaponiya va AQSH mamlakatlariga eksport qilinadi.

Tosh ko'mir sanoati. Toshko'mir sanoatining energetika sohasidagi o'rnini kamayib borishiga qaramasdan hozirgi kunda ushbu sanoat, dunyo energetikasida etakchi o'rinlarni egallaydi. Neft va gaz sanoatiga qaraganda toshko'mir sanoati zahiralari bilan yaxshi ta'minlangan. Ekspertlarning fikriga ko'ra, yaqin o'n yillikda elektrostansiyalarning yoqilg'iga bo'lgan talabining

40 % toshko‘mir sanoati bilan qondiriladi. Bu kabi o‘zgarishning asosiy sabablaridan biri, toza ko‘mir qazib olish va foydalanish texnologiyasining mukammallashtirilganligi tufayli, elektrostansiyalarning atrof-muhitga chiqarayotgan zararli chiqindi gazlarning kamaytirilganligidir.

Toshko‘mirning dunyodagi zahiralari 1,2 trln. tonnani tashkil qiladi. Uning 66 % AQSH, MDH mamlakatlari, Fransiya, Germaniya va Avstraliya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda joylashgan.

Ko‘mir qazib chiqari bo‘yicha Xitoy, AQSH, Rossiya, Polsha, Hindiston, Avstraliya, Germaniya, Shimoliy Afrika Respublikasi, Ukraina va Qozoqston mamlakatlari dunyoda etakchi o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Neft va gazga qaraganda toshko‘mir atigi 8 % eksport qilinadi. Eksport asosan AQSH, Avstraliya va MDH mamlakatlaridan qilinadi. Asosiy import qilinadigan mamlakatlar – Yaponiya, Koreya Respublikasi, Italiya, Kanada, Fransiya, Gollandiya, Angliya, Germaniya va Braziliya hisoblanadi.

Atom energetikasi sanoati. Hozirgi kunda er yuzidagi 30 mamlakatda atom elektrostansiyalari bo‘lib, ular umumiy iste‘mol qilinadigan elektroenergiyaning 17 % ni ishlab chiqadi.

Er yuzidagi atom elektrostansiyalarining o‘rnatilgan quvvati 360 GVt ni tashkil qiladi. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar – AQSHda 98 GVt, Fransiya 63 GVt, Yaponiyada 44 GVt, Angliyada 13 GVt, Rossiyada 20 GVt va Germaniyada 22 GVt elektroenergiya ishlab chiqiladi.

Xalqaro MAGATE tashkilotining ma‘lumotiga qaraganda AESlar uchun yadro yoqilg‘isi zahiralari hech qanday muammo tug‘dirmaydi. Yadro yoqilg‘isi xom ashyosi - boyitilgan uranning zahiralari dunyodagi barcha AESlarni 3000 yil to‘xtovsiz ishlashiga etadi.


Dunyodagi 50 mamlakatda uran rudasi resurslari mavjud, ammo uni faqatgina 25 mamlakat ishlab chiqaradi. Uran qazib olish bo‘yicha Kanada (yiliga 8500 tonna), Avstraliya (6500 tonna), Namibiya va Nigeriya (har qaysisi 2900 tonnadan) hamda Rossiya (2600 tonna) mamlakatlari etakchi o‘rinlarni egallaydilar. Uran xomashyosini qazib olish uchun 1 kg ga 40 dollar xarajat qilinadigan dunyo zahiralari 1,32 mln.tonnani tashkil qilsa, 1 kg ga 130 dollar xarajat qilinadigan zahiralari 4 mln. tonnani tashkil qiladi. Dunyodagi barcha AESlarni ishlashi uchun 64 ming tonna uran talab qilinadi.

Jadval 3.

Dunyodagi elektrostansiyalarning o‘rnatilgan quvvati.

Elektrostansiya turlari	Yillar							
	1990		2000		2010		2020	
	GVt	%	GVt	%	GVt	%	GVt	%
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Gazli issiqlik elektrostansiyalari	481,4	17,0	716,2	20,0	979,0	22,0	1635,0	30,2
Mazutli issiqlik elektrostansiyalari	424,5	15,0	501,2	14,0	578,0	13,0	293,0	5,4
Ko‘mirli issiqlik elektrostansiyalari	933,9	33,0	1146	32,0	1424,0	32,0	1928,0	35,6
1	2	3	4	5	6	7	8	9
GES va qaytalanuvchi energiya manbalari	650,6	23,0	823,4	23,0	1024,0	23,0	980,0	18,1

AES	339,6	12,0	393,6	11,0	445,0	10,0	580,0	10,7
Dunyo bo'yicha hammasi	2830	100	3580	100	4450	100	5416	100




2-rasm. Umumiy quvvati 5416 GVt bo'lganda dunyoelektrostansiyalari-ning o'rnatilgan quvvati strukturasi to'g'risidagi bashorat (2020 yil).

3-jadvalda dunyodagi elektrostansiyalarning o'rnatilgan quvvati hamda 2-rasmda umumiy quvvati 5416 GVt bo'lganda dunyo elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati strukturasi to'g'risidagi 2020 yil uchun bashorat dia-grammasi keltirilgan.

2. Noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari hamda ularning dunyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan turlari.

Hozirgi kunda energiya iste'mol qiluvchi barcha sohalarning organik yoqilg'ilardan foydalanishi tufayli atrof muhit ifloslanmoqda. Natijada tabiatning flora va faunasida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Odamlar va hayvonot dunyosida har xil yangi turdagi kasalliklar paydo bo'lmoqda. SHuning uchun insoniyat oldida turgan jiddiy muammolardan biri, barcha turdagi energiya iste'mol qiluvchilarni toza ekologik energiya bilan ta'minlashdir.

Ekologik toza energiyani faqatgina tabiatda mavjud bo'lgan energiya manbalaridan olish mumkin. SHuning uchun bunday manbalarni noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari deyiladi. Hozirgi kunda dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda energiyaning bunday turlaridan foydalanib har xil energiya turlarini ishlab chiqarishga kirishilgan (1-rasm).




1-rasm. Jahonda energiya etkazib berish sxemasi.

Dunyodagi rivojlangan malakatlar foydalanayotgan noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- gidroenergetika (o'rta-, kichik- va mikrogidroenergetika);
- to'liqlar energiyasi;
- suv sathlarinig ko'tarilib-tushish energiyasi;
- okean va dengizlardagi har xil oqimlar energiyasi;
- geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi;
- shahar chiqindilari energiyasi;
- chorvachilik va parrandachilik fermalari chiqindilari energiyasi;
- er ostidan issiqlik nasoslari orqali olinadigan energiya.

3. O'zbekistonda mavjud bo'lgan noananaviy energiya manbalari.


Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta'minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste'molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg'ilardan foydalanish, atrof-muhitni global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. SHuning uchun hozirgi kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri, ekologik toza, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishdir.



2-rasm. Respublikamizda oroganik yoqilg'ilardan ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning miqdori (foizda).

Kelajakda O‘zbekiston Respublikasida qaytalanuvchi energiya manbalaridan quyidagi miqdorda foydalaniladi (3-rasm):

- quyosh energiyasidan 98,8 % ;
- gidroenergetikadan 1,0 % ;
- shamol energiyasidan 0,2 % .




3-rasm. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari sxemasi.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qaytalanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari (mln.t.n. e.)

Qaytalanuvchi energiya manbalari turlari	YA'lpi potensial		Texnik potensial		O‘zlashtiril-gan	
	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s
Quyosh energiyasi	50973	$592,9 \times 10^9$	176,8	$2,08 \times 10^9$	-	-
SHamol energiyasi	2,2	$25,6 \times 10^6$	0,4	$4,7 \times 10^6$	-	-
Gidroenergiya	9,2	107×10^6	1,8	21×10^6	0,6	7×10^6
Biomasslar energiyasi	10,8	$125,7 \times 10^6$	4,7	$54,7 \times 10^6$	-	-
Geotermal suv energiyasi	0,4	$4,7 \times 10^6$	-	-	-	-
JAMI	50984,6	593×10^9	179,0	$2,1 \times 10^9$	0,6	7×10^6

Hozirgi kunda O‘zbekistonda qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydala-nish bo‘yicha juda ko‘p ilmiy-tadqiqot, loyiha hamda qurib ishga tushirish ishlari xalqaro grantlar va loyihalar asosida bajarilmoqda (4-rasm).



4-rasm. Qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha O'zbekistonda bajarilayotgan loyihalar.

3-mavzu. Energiya manbalari. Energiya turlari.

Reja:

1. Noanaviy energiya manbalariga qurilgan energetik ob'ektlar va elektrostansiyalar tarixi, hozirgi ahvoli vakelajagi.
2. Energiya turlari. Duyodagi eng katta energiya manbalari.

1. Noanaviy energiya manbalariga qurilgan energetik ob'ektlar va elektrostansiyalar tarixi, hozirgi ahvoli va kelajagi.

Hozirgi kunda insoniyat oldida kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni toza holda saqlab qolish muammosi turibdi. Buning uchun organik yoqig'ilardan foydalanib ishlab chiqariladigan energiya miqdorini kamaytirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarishdan iboratdir. SHuning uchun dunyo mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib toza ekologik energiya ishlab chiqarishga qiziqish tabora oshib bormoqda. Hozirgi kunda asosan quyidagi qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib energiya ishlab chiqarilmoqda:

- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- gidroenergetika(o'rta-, kichik- va mikrogidroenergetika);
- to'liqlar energiyasi;
- suv sathlarinig ko'tarilib-tushish energiyasi;
- geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi.

Dunyo mamlakatlari hududlarini olib qaraydigan bo'lsak, ularning hammasida ham qaytalanuvchi energiya manbalarining barcha turlari mavjud emas. Masalan, mamlakatimizda suv sathlarinig ko'tarilib-tushish energiyasi, to'liqlar va okean hamda dengizlardagi har xil oqimlar energiyasi, geyzerlar energiyasi manbalari mavjud emas, chorvachilik va parrandachilik fermalari chiqindilari hamda er ostidan issiqlik nasoslari orqali energiya olish yo'lga qo'yilmagan. Respublikamizda eng ko'p energiya olinadigan manba quyosh energiyasi hisoblanadi. Xuddi

shuningdek, ba'zi mamlakatlarda kuchli shamollar, geyzerlar, to'liqlar,okean hamda dengizlardagi har xil oqimlar, biomassalarning manbalari, ekologik toza energiya ishlab chiqarishda etakchi o'rinlarni egallaydilar.

Har qanday sohada birinchilar bo'ladi. Quyida 2009-2011 yillarda, qaytalanuvchi energiya manbalaridan foydalanib hozirgi kunda eng ko'p energiya ishlab chiqaruvchi energetik ob'ektlarni ko'rib chiqamiz.

2. Energiya turlari. Duyodagi eng katta energiya manba'lari

2.1Dunyoda eng katta quvvatli gidroelektrostansiya.

Xitoyning YAnzi daryosidagi«Three Gorges Dam - Tri ushelya - Uch dara» to'g'onigaqurilgan, quvvati 22,4 GVt ga teng GES, dunyodagi eng quvvatli hisoblanadi. Quvvati bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni, Braziliya va Paragvay mamlakatla-ri chegarasiga qurilgan quvvati 14 GVt ga teng GES egallaydi.

Hozirgi kunda, Kongo Demokratik respublikasidagi «Inga Dam» to'g'oniga qurilayotgan va qurilishi 2025 yilda tugatilib ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan GESning quvvati 39 GVt ni tashkil qiladi.


2.2 Dunyoda eng katta quvvatli shamol elektrostansiyasi.

2009 yilning kuzida«E.ON Climate and Renewables» kompaniyasi tomoni-dan AQSHning Texas shtati markaziy qismida joylashgan Rosko shahri yonida, dunyoda eng quvvatli «Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parki ishga tushirildi.«Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parkidagi har birining quvvati 1,25 MVt bo'lgan 627 shamol energoqurilmalari,400 km² maydonga o'rnatilgan bo'lib, umumiy quvvati 781,5 MVt ga teng.

«Roscoe Wind Farm» shamol energoqurilmalari parkigacha eng katta quvvat-li shamol energoqurilmalari parki «Horse Hollow Wind Energy Center» hisob-langan. AQSHning Dallas shahridan 160 km uzoqlikdagi 190 km² maydonga o'rna-tilgan 394 dona shamol turbinalarining umumiy quvvati 735,5 MVt ni tashkil qiladi.Ulardan 1,5 MVt li 291 dona turbinalar «General Electric» firmasi tomonidan, 2,3 MVt li 103 dona turbinalar «Siemens» firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.



a) b) v)



5 -rasm. Dunyodagi eng katta quvvatli gidroelektrostansiyalar:

a - Sayano SHushensk – 6,4 GVt (Rossiya); *b* - Uch dara -22,4 GVt (Xitoy); *v* – to‘g‘onli GESning ko‘rinishi.

O‘zbekiston Respublikasida eng quvvatli gidroelektrostansiyalarga quyidagilar kiradi:

- CHorvoq GESi -600 MVt;
- Andijon GESi - 190MVt;
- Tuyamo‘yin GESi – 150 MVt;
- Farhod GESi – 126 MVt.

6 -
katta



rasm. Eng
quvvatli
shamol

elektrostansiyasining ko‘rinishi.

2.3 Dunyoda eng katta quvvatli offshor shamol elektrostansiyasi.

2009 yilning sentyabr oyida, SHimoliy dengizning Daniyadagi YUtlandiya yarim oroli qirg‘oqlarida, 91 dona shamol energoqurilmalaridan tashkil topgandunyoda eng quvvatli «Horns Rev – 2» offshor shamol elektrostansiyasi ishga tushirildi. «Siemens» kompaniyasi ishlab chiqarganhar bir shamol energoqurilmalarining quvvati 2,3 MVt ga, «Horns Rev – 2» offshor shamol elektrostansiyasining umumiy quvvati esa 209,3 MVt ga teng. SHamol energoqurilmalari dengiz suvi sathiga nisbatan 114,5 m balandlikka o‘rnatilgan.

«Horns Rev – 2» offshor shamol elektrostansiyasigacha dunyoda eng katta offshor shamol elektrostansiyasi, qirg‘oqdan 5,2 km uzoqda hamda Angliyaning Linkolnshir grafligidagiSkegness shahri yaqinida joylashgan «Lynn and Inner Dowsing» shamol energoqurilmalari parki hisoblanardi. SHamol energoqurilmalari parki, «Siemens» kompaniyasi ishlab chiqargan, har biri 3,6 MVt quvvatga ega bo‘lgan 54 dona shamol turbinalaridan tashkil topgan. SHamol energoqurilma-lari parkining umumiy quvvati 194,4 MVt ga teng bo‘lib, ular dengiz suvi sathidan107 m balandlikka o‘rnatilgan.

Energoqurilmalarning minorasi, dengiz tubiga qoqilgan qoziq-funda-mentlarga o‘rnatiladi. Qoziq-fundamentlarni o‘rnatish uchun maxsus kema qurilgan. Kema chayqalmasdan ishlashi uchun, dengiz tubiga tayanadigan 6 dona gidravlik tayanch bilan jihozlangan. Offshor shamol energoqurilmalari o‘rnatiladigan suvning chuqurligi 30 m dan oshmaydi.




7 -rasm. Eng katta quvvatli offshor shamol elektroqurilmalarini o'rnatish.

2.4 Dunyodagi eng katta, suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan gidroelektrostansiya.

Dunyodaeng birinchi va eng katta suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan gidroelektrostansiya, 1967 yilda Fransiyadagi Rans daryosi-ning okeanga quyilish joyiga qurilgan. Bu erda suv sathi ko'tarilib-tushishi-ning o'rtacha miqdori 8 m ni, maksimal miqdori 12 m ni tashkil qiladi.

Gidroelektrostansiyada og'irligi 470 tonna, diametri 5,35 m li 24 dona generator o'rnatilgan bo'lib, har biri 10 MVt dan hammasi bo'lib 240 MVt elektroenergiya ishlab chiqaradi.




8-rasm. Suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan eng katta gidroelektrostansiya.

2.5 Dunyodagi eng katta sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina.

Suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina ham xuddi shamol oqimi kelib uriladigan turbinalar kabi kelib urilayotgan suv oqimining kinetik energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi. SHimoliy Irlandiya suvlari yaqiniga o'rnatilgan dunyodagi eng katta ushbu SeaGen turbinasining quvvati 1,2 MVt tashkil qiladi. U diametrlari 20 m dan bo'lgan 2 dona turbinadan tashkil topgan. Turbina parraklarini tashkil qiluvchi tizim o'z o'qi atrofida aylanishi tufayli turbina, to'liqlarning har qanday yo'nalishiga moslashib ishlaydi. Turbinaga xizmat ko'rsatish uchun uni suvdan yuqoriga ko'tarib tushirish mumkin.

Bunday tizim ishlab chiqargan 1 MVt o'rnatilgan quvvatning qiymati 5 mln. dollarga teng. Bu qiymat offshorshamol qurilmalarning narxidan 30 % ziyodroqdir. SHunga qaramasdan 2015

yili Janubiy Koreya qirg'oqlarida, narxi 820 mln. dollarga teng 1 MVt dan yuqori quvvatli suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydigan turbina o'rnatish rejalashtirilgan.



9-rasm. Suv sathning ko'tarilib-tushish prinsipi asosida ishlaydiganeng katta turbina.

2.6 Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi.

Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi, Portugaliyaning qirg'oq bo'yida joylashgan Povua-de-Varzin shahari yaqinida 2011 yilda ishga tushiril-di. Elektrostansiya yarmi suvga to'ldirilgan ilonga o'xshaydi. Uning uzunligi 150 m ni va kengligi 3,5 m ni tashkil qiladi. Tulqinlar ularni harakatga keltirib tebratadi va tebranishlar energiyaga aylantiriladi. Har bir turbina 0,75 MVt elektroenergiya ishlab chiqaradi. Hozirgi kunda umumiy qiymati 13 mln. dollarga va quvvati 2,25 MVt ga teng 3 dona qurilma o'rnatilgan. Keyinchalik uning quvvati 21 MVt ga oshiriladi. Umuman bunday qurilmalar-ning quvvatini 1 GVt ga etkazish mumkin.



10-rasm.Dunyodagi eng katta to'lqinlar elektrostansiyasi.

2.7 Dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi.

Quyosh energiyasini o'zlashtirish tizimi -Solar Energy Generating Systems (SEGS),bugungi kunda dunyoda quyosh energiyasini o'zlashtiruvchi eng katta tizim hisoblanadi. AQSHning Kaliforniya shtatidagi Moxava sahrosida joylashgan.

Tizim 9 dona quyosh elektrostansiyalaridan iborat bo'lib, ulardan: 6 donasining quvvati 180 MVt(har biri 30 MVt)ni; 2 donasining quvvati 160 MVt- (har biri 80 MVt)ni hamda 1 dona 14 MVt ni; hammasi bo'lib 354 MVt ni tashkil qiladi. Ushbu elektrostansiyalar uchun 6,5 km² joylashgan 936 384 dona parabolik konsentator(quyosh energiyasini yig'uvchi)lar o'rnatilgan.



11-rasm.Dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi.

2.8 Dunyodagi eng katta fotoelektrik elektrostansiyasi.

Olmedilya quyosh elektrostansiyasi Ispaniyada 2008 yili ishga tushiril-gan. Qurilish 15 oy davom etib, 530 mln. dollar mablag‘ sarflandi. Uning quvvati 60 MVt ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun 16200 dona fotoelektrik panellardan foydalaniladi.



12-rasm.Dunyodagi eng katta fotoelektrik elektrostansiyasi.

2.9 Dunyodagi eng katta geotermal elektrostansiya.

The Geysers – eng katta geotermal energiya to‘plangan joy, AQSHning Kaliforniya shtatidan 116 km uzoqlikda joylashgan. Bu erda joylashgan 18 do-na geotermal elektrostansiyalar 2000 MVt quvvat ishlab chiqaradi.

Geotermal elektrostansiyalar joylashgan hudud 78 km² ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya Kaliforniya shtatining janubida joylashgan iste’molchilarning 60% ehtiyojini qoplaydi.



13-rasm. Dunyodagi eng katta geotermal elektrostansiyaning ko‘rinishi

2.10 Dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi elektrostansiya

«Alholmens Kraft Ab» nomli Finlandiya kompaniyasi 550 MVt issiqlik energisi hamda 240 MVt elektroenergiya ishlab chiqaruvchi dunyodagi eng katta biomassa yoquvchistansiyanishga tushirdi. Stansiya asosan yog‘och qoldiqlari va torf yoqilg‘ilaridan foydalanadi.

Stansiya 1 soatda 1000 m^3 bioyoqilg‘ini yoqib energiya oladi. Yoqilg‘i yoqiladigan qozonning pastgi (asosi) diametri 8,5 m va 40 m balandlikdagi yuqori diametri 24 m ni tashkil qiladi. Stansiyanı bioyoqilg‘i bilan ta‘minlash uchun 1 kunda 120 dona yuk tashish mashinalaridan foydalaniladi. Stansiya yoqilg‘i sifatida toshko‘mirdan ham foydalanishi mumkin.



14-rasm. Dunyodagi eng katta biomassa yoquvchi stansiyaning ko‘rinishi.

4-mavzu. Qaytalanuvchan va qaytalanmas energiya manbalari. QTEM larning potentsiali.

Reja:

1. Qaytalanuvchan energiya manbalari.
2. Qaytalanmas energiya manbalari.
3. QTEM larning potentsiali.

Qaytalanuvchan energiya manbalari.

Qaytalanuvchi energiya manbalari. Biror jism (qattiq, suyuq va gaz holatida) o‘z energiyasini, energiyani boshqa turga aylantiruvchi moslamaga uzatib yana harakatda bo‘lsa hamda o‘z energiyasini hohlagan marta uzatib o‘zi yo‘qolib ketmasi bunday manbaga **qaytalanuvchi energiya manbalari** deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko‘tarilib tushishi, to‘lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg‘i, vodorod va kvant).

Noana’naviy energiya manbalari. Organik yoqilg‘ilarda ishlaydigan ana’naviy energiya manbalari o‘rnini bosib elektr energiyasi (yoki boshqa zarur turdagi energiya) olish imkonini beradigan, hozircha keng qo‘llanilmaydigan usul, qurilma yoki inshootlarga **noana’naviy energiya manbalari** deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko‘tarilib tushishi, to‘lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg‘i, vodorod va kvant).

Suv energiyasi. **Gidroelektrostansiyalar (GES)**– gidrotexnik inshootlar va energetik jixozlar majmuasidan iborat bulib, ularning yordamida suv okimi energiyasi elektroenergiya aylantirib beriladi. GESlarni kurish natijasida xam atrof muxitga zarar etkaziladi: daryolar okimi tusilishi bilan ularning uzani uzgarib ketadi, juda katta maydon suv ostida koladi, flora va faunaga katta zarar etkaziladi. Issiklik energetikasiga karaganda suv okimi energiyasining asosiy xususiyatlaridan biri, uning kaytalanib turshidir (14-rasm).

GESlarning yana bir turi, nasos va turbinalar bir-biriga joylash-tirilib ishlatiladigan **gidroakkumulyasion GESlardir**. Bunday GESlar-ning yuqori befi suv ombori yoki daryo bo‘lishi mumkin. Yuqori bef sifatida yuqorida joylashgan ko‘l (oqmaydigan) yoki maxsus sun’iy qurilgan kichik suv ombori bo‘lishi mumkin.



14-rasm. Katta bosimli GES

To'liqlar energiyasi. To'liqlar energiyasi ikki turga bo'linadi: to'liqlar energiyasi va suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi. Okean va dengizlardagi to'liqlar energiyasidan foydalanish, K.E.Sialkovskiy tomonidan 1935 yilda taklif qilin-gan. 1985 yilda dunyoda birinchi marta Norvegiyada 850 kVt quvvat-li to'liqlar elektrostansiyasi ishga tushirilgan. Hozirgi kunda dunyodagi barcha to'liqlar elektro-stansiyalari ishglab chiqaradigan quvvat, dunyoda ishlab chiqariladi-gan quvvatning 1 % ni tashkil qi-ladi. Kam quvvat ishlab chiqari-lishining asosiy sababi, uning juda qimmatligidir.

Quyosh, er va oyning bir chiziqda turib qolgan vaqtida okean va den-gizlardagi suv sathlari ko'tari-lib-tushadi. Mana shu tabiatda sodir bo'ladigan jarayondan foydalanib ham elektroenergiya ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun dengizning biror qo'ltig'i to'g'on bilan berkitiladi. Suv sathi ko'tarilganda, to'g'on tanasiga joylashtirilgan gidroagregatlardan suv qo'ltiqqa o'tadi va ma'lum miqdorda elektroenergiya ishlab chiqariladi. Dengizdagi suv sathi tushganda qo'ltiqdagi suv dengizga gidroagregatlardan o'tkaziladi va yana ma'lum miqdorda elektroenergiya ishlab chiqariladi. SHunday qilib sikl takrorlanayveradi.

Geothermal energiya. Er qa'rida juda katta issiqlik miqdori mavjud.Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. hisoblarga ko'ra, er bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasiidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammobuissiqlikenergiyasifaqatgina er ostidagi qaynoq suvlardanolinadixolos.

SHamol energiyasi. Bug' dvigatellari paydo bo'lguncha, Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasidan juda katta masshtabda sanoatda va qishloq xo'jaligida ko'llanib kelingan. SHamol energiyasidan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan xozirgi ishlar, katta alohida shamol generatorlari yaratish va ularning energiyasidan ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulashdan va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir (15-rasm).




15-rasm. SHamol generator qurilmasi va elektrostansiyasi

Quyosh energiyasi. Quyosh radiatsiyasining energiyasini doimiy elektro-niga aylantirish mumkin (16-rasm). Buning uchun yupqa kremniy plyonkalari ish boshqa biror yarim o'tkazgich materialdan foydalaniladi. Fotoelektrik energiyaga aylantirshining potensial qulayliklari:

- Harakat qiluvchi qisimlarning yo'qligi;
- Ishlash muddati 100 yildan ortiq;
- Eksploatatsiya qilishning soddaligi, quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish mumkinligi.

Ammo bu usulda energiya ishlab chiqarish an'anaviya energiya ishlab chiqarishdan 75 martadan ko'proq qimmatroqdir. SHuning uchun hozirgi vaqtda arzonroq elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar ustida ish olib borilmoqda. Masalan, kremniy o'rniga arsenir geliy qo'llanilmoqda.



16-rasm. Quyosh energiyasidan olinayotgan elektroenergiya iste'mochilari



17-rasm. Quyosh energiyasidan foydalanib uchayotgan turbovintli samolyot

4.1. SHamol energiyasi va undan foydalanish asoslari, nazariyasi va amaliyoti.

SHamol energiyasi. Insoniyat suv energiyasi hamda bug‘ dvigatellaridan ancha oldin, shamol energiyasidan foydalanib kelgan. Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya, AQSH va boshqa mamlakatlarda, shamol energiyasi juda katta masshtabda, sanoat va qishloq xo‘jaligida ko‘llanib kelingan. SHamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar, alohida katta quvvatli shamol generatorlarini yaratish va ularni energiyasini ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulash va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

Havomassasining yer atmosferasiatrofidaaylanishieksptlartomonidanturlicha baholangan. Shamollarningyilliknazariy zahirasi yer yuzidagibarcha energiya zahiralaridan 100 marta ortiq bo‘lib, 3300×10^{12} kVt/ soatnitashkil qiladi. Ammobuenergiyaning faqatgina10–12 % foydalanishmumkin. Masalan, 1987 yilda yer yuzidagibarchashamol qurilmalaritomonidan 10×10^{12} kVt/ soat energiya ishlab chiqilgan, ya‘niyillik zahiraningatiga 0,3 % dan foydalanilgan.

SHamol – bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Iqtisodiy jihatdan joydagi shamolning tezligi 5 m/s dan kam bo‘lmasa shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shamol elektrogeneratorlari an‘anaviy generatorlardan 2 – 4 barobar qimmatdir. Ammo shamol energiyasi doimiy bo‘lgan ba‘zi bir regionlarda u muxim energiya manbalaridan hisoblanadi.

Odatda shamol energiyasi shamolga perpendikulyar joylashgan ma‘lum maydon ta‘siri orqali aniqlanadi ya‘ni,

$$N_{\text{sham.oqimi}} = 0,0049 \times q \times V \times F$$

Bu erda: q – havoning zichligi (temperatura va atmosfera bosimiga nisbatan), kg/m^3 ;

V –havo oqimining tezligi, m/s ;

F – maydon yuzasi, m^2 .

SHamol energetik qurilmasi uzatayotgan energiya miqdori, havo oqimi hosil qiladigan energiya miqdoridan tubdan farq qiladi. CHunki havo oqimi energiyasining bir qismi shamol g‘ildiragi parraklarida, reduktor va generatorlarda isrof bo‘ladi. Isrof bo‘lgan energiya miqdori,

shamol energiya-sidan foydalanish koeffitsienti bilan hisobga olinadi. SHamolga perpendikulyar joylashgan maydon yuzasini shamol g'ildiragi diametri bilan belgilab, shamol energetik qurilmasining quvvatini quyidagi formulada hisoblash mumkin.

$$N_{\text{sham.ener.quril.}} = 0,00386 \times q \times V \times D^2 \times \xi_{\text{par.}} \times \eta_{\text{red.}} \times \eta_{\text{gen.}}$$

Bu erda: **D**-ish g'ildiragi diametri, m;

$\eta_{\text{red.}}$ va $\eta_{\text{gen.}}$ -reduktor va generatorning foydali ish koeffitsientlari;

$\xi_{\text{par.}}$ -parraklarda isrof bo'lgan havo oqimi energiyasi.

Hisoblarga ko'ra, parrakli shamol dvigatellaring shamol energiyasidan foydalanish koeffitsienti 48 % gacha bo'lishi mumkin, shamol qurilmalarining umumiy ishfoydali ish koeffitsienti undan ham kichikroq bo'ladi.

SHamolga perpendikulyar bo'lib asosan, shamol qurilmalarining parrak-lari joylashadi. SHamol qurilmasi quvvatini parraklar soni emas balki, ish g'ildiragi diametri belgilaydi. SHamol agregatining quvvati, shamol tezligiga to'g'ri, ish g'ildiragi parraklari soniga teskari proporsionaldir.



$$N_{\text{ш.м. энерг. курл.}} = f\left(\frac{V}{n}\right)$$

Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirish, shamol elektrostansiyalari yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasini tashkil qiladi. SHamol qurilmalarining asosiy ishchi qismi, shamol g'ildiragi hisoblanadi.

SHamol g'ildiraklarining qanotli, karuselli va barabanli turlari mavjud. SHamol elektrostansiyalarida eng samarali bo'lgan qanotli shamol g'ildiraklari qo'llaniladi (28-rasm).

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi.

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish uchun, suv sathi ko'tarilgan vaqtda dengiz havzasining biror kichraygan joyi (qo'ltiq-suv havzasi) bekitiladi (52-rasm). Suv qaytgan vaqtda dengiz va ajratilgan suv havzasi sathlari orasida ma'lum kattalikda bosim hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan bosim ostida har xil gidroturbinalarni ishlatib elektroenergiya olish mumkin bo'ladi. Dengiz sathining ikkinchi ko'tarilishida esa, ajratilgan suv havzasidagi suv sathidan dengiz suv sathi baland bo'ladi. Natijada yana ma'lum balandlikda bosim hosil bo'lib, gidroturbinalarni ishlashi uchun sharoit yaratiladi.



52-rasm. Okean va dengizlar sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish sxemasi:

a- bo'ylama kesimi; b- plani.

Suv satxlarining ko'tarilib tushishiga asoslangan elektrostansiyalarning potensial energiyasi va unga mos bo'lgan o'rtacha yillik quvvat quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

Bu erda: $A_{o'rt}$ – yillik o'rtacha suv satxlarining farqi;

$K < 1$ – suv satxi o'zgarishiga nisbatan suv xavzasi maydonini o'zgarishini xisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsient;

F – suv xavzasining yuzasi, km^2 .

Bosimni kamayib ketishi natijasida elektrostansiyaning to'xtab qoli-shi va boshqa sabalarga ko'ra, potensial energiyaning faqatgina 1/3 qismidan-gina foydalaniladi. Suv sathining ko'tarilib tushish elektrostansiyalari qurishga qo'lay bo'lgan joylar juda kam. Bunday elektrostansiyalar samaradorligini oshirish uchun ikki, uch va undan ko'proq xavzali, odatdagi turbina o'rniga ikki mashinali nasos turbinalar qo'llaniladi.

Ximik (galvanik) elementlarenengiyasidanfoydalanish asoslari.

Har xil metallarni bir-biri bilan ulash natijasida elektr energiyasi hosil bo'lish hodisasi, 1876 yilda italyan fiziologi Luidji Galvani tomonidan ixtiro qilingan.

Galvanik elementlarga elektrodlar kiradi. Elektrodlar quyidagi tur-larga bo'linadi.

1. Tiklanuvchi elektrodlar, ularga:

- 1-tur elektrodlar-o'z tuzidan tashkil topgan eritmaga cho'ktirilgan metallardir;
- 2-tur elektrodlar-o'zining erimaydigan tuzidan tashkil topgan va umumiy anionga ega bo'lgan eritmaga cho'ktirilgan metallardir (kumush-xlorli elektrod, kalomel elektrod va metall-oksidli elektrodlar);
- 3-tur elektrodlar-ikkita erimaydigan elektrolitlar cho'kindisi-dan iborat bo'lib, elektrod metallidan tashkil topgan kam eriydiganida kationlar mavjud, ko'proq eriydiganida esa, birinchi cho'kma bilan umumiy anioni bor;
- gazli elektrodlar-eritma va gaz hamda noaktiv metallardan tashkil topgan elektrodlardir (kislorodli va vodorodli elektrodlar);
- Amalgamli elektrodlar-simobdagi metall eritmasidan tashkil topgan elektrodlar;
- oksidlanuvchi-tiklanuvchi elektrodlar-noaktiv metallardan tashkil topgan (ferri-ferro va [xingidron](#)) elektrodlar.

2. Ionoselektivli membranali elektrodlargacha:

- zaryadlarni to'plovchi ionalmashuvchi membranali elektrodlar-shisha elektrodlar;
- birlashgan suyuq ionitlardan tashkil topgan elektrodlar;
- membranoaktiv kompleksonlar asosidagi membranali elektrodlar;
- mono- va yarim kristal membranali elektrodlar.

Galvanik elementlar - elektr yurituvchi kuch (EYUK), sig'imi, tashqi zan-jirga beradigan energiyasi, saqlanishi bilan xarakterlanadi.

1. Galvanik elementning EYUKi elektrodning materialiga va elektrolitning tarkibiga bog'liq bo'ladi.

2. Elementning sig'imi deb-tok manbaining elektrsizlanishi tufayli bergan elektr energiyasi miqdoriga aytiladi. Sig'im reagentning manbadagi miqdori va massasiga hamda elektroenergiyaga aylanishiga bog'liq bo'lib,temperaturaning pasayishi yoki elektrsizlanishning ko'payishi bilan kamayadi.

3. Galvanik elementning energiyasi, son jihatidan uning sig'imini kuchlanishiga ko'paytirilganiga tengdir.

4. Elementning saqlanish muddati, bu muddatda elementning xarakteris-tikalari o'rtacha o'zgarmasdan qoladi. Saqlanish muddati, saqlash temperatu-rasi ko'tarilishi bilan kamayib boradi (masalan, batareykaning energiyasi issiq temperaturada tez kamayib ketadi).

Galvanik elementlar quyidagicha klassifikatsiyasi.

Qaytalanmaydigan energiya manbalari.

Qaytalanmaydigan energiya manbalari. Organik yokilg'ilardan bir marta foydalanilgandan sung undan kayta foydalanib bulmaydi. SHuning uchun ularni**qaytalanmaydigan energiya manbalari** ham deb ataladi (organik yoqilg'ilar-neft mahsulotlari, toshko'mir va boshqa har xil qattiq yoqilg'ilar, gaz, atom va boshqalar).

Ana'naviy energiya manbalari. Amaliy jihatdan boshka energiya turlariga karaganda elektroenergiya olish oson va ishlab chikilgan elektro-energiyani uzok masofalarga uzatish imkoni bulgan manbalariga **ana'naviy energiya manbalari** deyiladi (organik yoqilg'ilar-neft mahsulotlari, toshko'mir va boshqa har xil qattiq yoqilg'ilar, gaz, atom va boshqalar).

Issiklik elektrostansiyalari (IES). organik yokilgilar(kumir, neft maxsulotlari va gaz)ni yokish natijasida xosil buladigan issiklik energiyasi-ni elektroenergiyaga aylantirib beruvchi energetik agregatlardir. Organik yokilgilardan bir marta foydalanilgandan sung undan kayta foydalanib bulmaydi. **SHuning uchun ularni qaytalanmaydigan energiya manbalari ham deb ataladi.** Qaytalanmaganligi uchun ulardan tejab-tergab foydalanish xamda ularning urnini bosadigan boshka arzon elektroenergiya olish mumkin bulgan usullardan foydalanish lozim. SHuning bilan bir katorda, issiklik elektrostansiyalarinig chikindilari atrof-muxitga katta zarar etkazadi.

Atom elektrostansiyalari (AES) atom (yadro) energiyasini elektroenergiyaga aylantirib beradi. Atom reaktori energiya generator hisoblanadi. AES yadro yoqilg'isi(o'ran, plutoniy va boshqalar)da ishlaydi. YAdro yoqilg'isining zahiralari organik yokilg'ilar zahiralaridankatta miqdorda ko'pdir.

5-mavzu. Qaytalanuvchan energiya manbalari. Qaytalanuvchan energiya manbalari turlari.

Reja:

1. Qaytalanuvchan energiya manbalari.
2. Qaytalanuvchan energiya manbalari turlari.

1.Qaytalanuvchan energiya manbalari.

Agarda an'anaviy energetika organik va yadro yoqilg'i kabi qayta tiklanmaydigan energiya resurlardan foydalanishga asoslangan bo'lsa, noan'anaviy energetika tuganmas tiklanuvchan energiya resurslar (TTEM) dan foydalanishga asoslangan.

An'anaviy energiya resurslardan foydalanish, kislorodni yutishidan tashqari atrof muhitni sezilarli darajada ifloslanishga olib keladi. Energiya resurslarning cheklanganligi, ularni ishlatish, havo atmosferasining tarkibiga ta'sir etishi va atrof muhitga boshqa zararli ta'sirlari (chiqindilar hosil bo'lishi er qa'rini va er yuzasini buzilishi, iqlimning o'zgarishi) butun dunyoda noan'anaviy manbalarga bo'lgan yuqori qiziqishni uyg'otadi, bularga: quyosh energiyasi; shamol energiyasi; geotermal energiya; akkumlangan (yig'ilgan) issiqlik, dengiz va okeanlarning energiyasi; dengiz oqimi, dengiz to'lqinlari, quyilish va orqaga qaytish ko'rinishidagi energiya; suv o'simliklaridan, qishloq xo'jaligi va shahar chiqindilaridan, biomassalardan foydalanish.

Hozir noan'anaviy energetikaning rivojlanishi unga ketadigan katta xarajatlar va bunday elektr stantsiyalarda ishlab chiqariladigan energiyaning tannarxi bilan cheklanmoqda.

Turli turdagi elektr stantsiyalarni iqtisodiy taqqosi (1991 y uchun) 7.1 -jadvalda keltirilgan.

Turli turdagi elektr stantsiyalarni iqtisodiy taqqosi

7.1- jadval

Elektr stantsiya turi	Qurilishga bo'lgan sarf xarajatlar, AQSH dol/kVt	Ishlab chiqarilgan energiyaning narxi, tsent/kVt·s
------------------------------	---	---

Ko'mirda ishlaydigan IES	1000-1400	5.2-6.3
AES	2000-3500	3.6-4.5
GES	1000-2500	2.1-6
SHES	300-1000	4.7-7.2
Oqib kelishi (OES)	1000-3500	5-9
To'lqinli	13000 dan	15 dan
Quyosh	14000 dan	20 dan

Iqtisodiy jihatdan maqbuli, bu solishtirma kapital xarajatlar 2000 AQSH dol/kVt gacha bo'lgan elektr stantsiyalarni qurish.

Noan'anaviy tiklanuvchi energiya manbalar solishtirma quvvatini an'anaviy manbalar bilan taqoslash 7.2 jadvalda keltirilgan.

Qayta tiklanuvchi noan'anaviy energiya manbalar solishtirma quvvati

7.2.- jadval

Manba	Quvvat, Vt/m ²	Ilova
Quyosh	100-250	
SHamol	1500-5000	8-12 m/s tezlikda lekin ko'proq bo'lishi mumkin
Geotermal issiqlik	0.06	
Okeanning shamol to'lqinlari	3000 Vt/pog.m	1000 Vt/pog.m ga etishi mumkin
Taqqoslash uchun ichki yonuv dvigateli Turboreaktiv dvigatel YAdro reaktori	100 kVt/l atrofida 1 MVt/l gacha 1 MVt/l gacha	

SHamol energetikasi – bu shamoldan mexanik energiyani olib, keyinchalik uni elektr energiyaga aylantirishdir. Vertikal va gorizontal aylanuvchi o'qli shamol dvigatellari mavjud. SHamol energiyasini shamolning tezligi 5 va undan ortiq m/sek bo'lganda muvaffaqiyatli ishlatish mumkin. Kamchiligi katta shovqindir.

Dunyoda shamol energiyasining potentsiali ulkandir. Nazariy jihatdan bu energiya Evropaning barcha talabini qondirishi mumkin. Kichik tezliklarda ishlaydigan shamol generatorlarini qurishdagi oxirgi muxandislik muvaffaqiyatlari shamoldan foydalanishni iqtisodiy o'z-o'zini oqlashini ko'rsatmoqda. Lekin SHES qurilishiga bo'lgan cheklanishlar, ayniqsa, aholi zich joylashgan tumanlarda, bu energiya manbaining potentsialini pasaytiradi.

SHamol energiyasining narxi yiliga 15% ga pasaymoqda va hatto bugun bozorda raqobatbardoshdir, asosan- AESlarda olinadigan (yiliga 5%ga oshib bormoqda) energiya narxidan farqli o'laroq kelajakda pasayish imkoniyatiga ega; bunda shamol energiyasini ortish jadalligi yiliga 25% dan ortiq. Turli davlatlarda shamol energiyasidan foydalanish kuchaymoqda.

Rivojlangan davlatlarda shamol energiyasini o'zlashtirish shuni ko'rsatayaptiki, quvvati 100 kVtdan ortiq, ayniqsa 200-500 kVt oralig'idagi shamol qurilmalari eng optimal hisoblanadi. Bunda masalan, Daniyada shamol elektr stantsiyasida ishlab chiqarilgan 1 kVt's elektr energiya, issiqlik elektr stantsiyadagidan arzonroqdir.

Gelioenergetika – energiyani Quyoshdan olish. Quyosh energetikasining bir nechta texnologiyasi mavjud. Katta sondagi ketma-ket va parallel ulangan elementlardan yig'ilgan, Quyoshning nurlanish energiyasini to'g'ridan- to'g'ri o'zgartiradigan fotoelektrogeneratorlar quyosh batareyalari degan nom oldi.

Quyosh nurlaridan energiya olish atmosferaga zararli chiqindilarni chiqarmaydi, standart silikon quyosh batareyalarni ishlab chiqarish ham kam zarar keltiradi. Lekin katta masshtabda ko'p qatlamli elementlarni galliy arsenidiyoki kadmiy sulfidi kabi g'ayriodatiy materiallardan foydalanish zararli chiqindilarni chiqarish bilan bog'liq.

Quyosh batareyalari katta joyni egallaydi. Lekin boshqa manbalar bilan taqqoslaganda, masalan, ko'mir bilan, ular to'la o'rinlidir. Bundan tashqari Quyosh batareyalari uylarning tomlarida, shosse yo'llari chetlarida joylashtirilishi mumkin hamda quyoshga boy bo'lgan cho'llarda ishlatilishi mumkin.

Quyosh batareyalarining xususiyatlari ularni uzoq masofalarda joylashtirish imkonini beradi, modul konstruksiyalarni esa engil tarzda olib borish va boshqa erda joylashtirish mumkin. SHuning uchun qishloq joylarida va uzoq joylarda qo'llaniladigan Quyosh batareyalari ancha arzon elektr energiya beradi.

Uzoq erlarda joylashgan aholi Quyosh batareyasi energiyasini yoritish, radio eshittirish va boshqa ro'zg'or ehtiyojlariga ishlatadi, Quyosh energiyasidan amaliy tarzda quduqdan suvni ko'tarishda va sog'liqni saqlash ehtiyojlariga ham ishlatiladi.

Quyosh energiyasidan keng foydalanishni to'xtatib turadigan bosh sabab, bu uning yuqori narxidir. Bu kelajakda arzon va samarali texnologiyalarni rivojlanishi natijasida pasayadi. Quyosh elektr energiyasining hozirgi narxi 1Vt quvvatga 4,5 dollarga teng, 1,0 kVt's elektr energiyaning bahosi yoqilg'ini an'anaviy yo'l bilan yoqilganda olingan energiyadan olti marta qimmat. Qachon Quyosh energiyasini ishlab chiqarish bahosi yoqilg'ini yondirib olinadigan energiya bahosi bilan tenglashsa, u keng tarqalishi mumkin, lekin 90- yillardan gelioenergetika rivojlanish tezligi yiliga 6% ni tashkil etadi, bu vaqtda neftning dunyo iste'moli yiliga 1,5% ni tashkil etadi.

Quyosh energiyasini issiqlik olishda, xususan, turar joylarni issitishda ishlatish mumkin.

Bioenergetika – bu bioyoqilg'idan foydalanishga asoslangan energetika. U o'simlik chiqindilari, biomassani sun'iy etishtirish (suv o'simliklari, tez o'sadigan daraxtlar) va biogazni olishni o'z ichiga oladi. Biogaz – biomassa yoki organik maishiy chiqindilarning biologik parchalanishi jarayonida hosil bo'ladigan yonuvchi gazlarning aralashmasi (texnik tarkibi: - 55-65% metan, 35-45% - karbonot akngidrid gazi, azot, vodorod va oltingugurt vodorod aralashmasi). Biogazni sanoatda olish yo'li, o'tgan asrdan oldingi 1885 yilda ma'lum bo'lgan. Dunyoda 8 mln.dan ortiq biogaz oluvchi qurilmalar mavjud.

Biomassa – tiklanuvchan energiyani yig'adigan eng arzon va yirik masshtabli shakli. "Biomassa" atamasi ostida, har qanday kelib chiqishi biologik bo'lgan, hayot faoliyatining ozuqasi va organik chiqindilar ko'zda tutiladi. Biomassa, erda hayot bo'lar ekan doim mavjud Erda organik moddaning yillik ortishi, zamonaviy bosqichda barcha insoniyatning bir yilda iste'mol etadigan energiyasidan 10 marta ortiq bo'lgan energiya miqdoriga ekvivalentdir.

Bizning Respublika uchun xarakterga ega bo'lgan biomassalar manbalarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- tabiiy o'sish ozuqalar (o'tin, o'tin chiqindilari, barglar va h.k);
- insonlarning hayot faoliyati davomidagi chiqindilari va ishlab chiqarish faoliyatini hisobga olgan holda (qattiq maishiy chiqindilar, sanoat ishlab chiqarishi chiqindilari va h.k);
- maxsus etishtiriladigan yuqori hosilli o'simliklar.

Kichik gidro energetika. Hozirgi vaqtda GES larni kichik gidrostantsiyalar qatoriga kiritishning aniq mezonlari mavjud emas. Bizlarda quvvati 0.1 dan 30 MVt bo'lgan gidrostantsiyalarni kichik deb qabul qilingan, bunda turbinaning ishchi g'ildiragi diametrini 2 m

gacha bo'lishi va birlik quvvati 0.1 MVtdan kam bo'lgan GESlar mikro GES kategoriyasiga kiritilgan.

Hozirgi vaqtda dunyoda gidroenergetika o'z taraqqiyoti tarixida uchinchi o'ramni boshdan kechirmoqda. Birinchi GESlarning qurilishi oldingi asrda boshlangan va ular ayrim zavod va qishloqlarni elektr ta'minotiga mo'ljallangan. SHundan so'ng ularning qurilishi, kichik IES raqobatbardoshligi hisobiga, sekinlashdi. Kichik GES larning ommaviy qurilishining ikkinchi bosqichi 40 yillarning oxiri va 50 yillarning boshlariga to'g'ri keladi, bunda kolxozlar, sovxozlar, korxona va davlat tomonidan minglab kichik GESlar qurildi. 70 – 80 yillarda katta energetikaning yirik issiqlik, gidravlik va atom elektr stantsiyalar bazasida tez rivojlanishi hisobiga, minglab va yuzlab kichik GES lar foydalanishdan chiqarildi, konservatsiya qilindi.

Uchinchi rivojlanish bosqichida kichik GES lar, tabiatni asosiy energetik qurilmalarning yangi texnik darajasida, avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish darajasida qayta tug'ilmoqda.

Qaytalanuvchi energiya manbalari. Biror jism (qattiq, suyuq va gaz holatida) o'z energiyasini, energiyani boshqa turga aylantiruvchi moslamaga uzatib yana harakatda bo'lsa hamda o'z energiyasini hohlagan marta uzatib o'zi yo'qolib ketmasi bunday manbaga **qaytalanuvchi energiya manbalari** deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko'tarilib tushishi, to'lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg'i, vodorod va kvant).

Noana'naviy energiya manbalari. Organik yoqilg'ilarda ishlaydigan ana'naviy energiya manbalari o'rnini bosib elektr energiyasi (yoki boshqa zarur turdagi energiya) olish imkonini beradigan, hozircha keng qo'llanilmaydigan usul, qurilma yoki inshootlarga **noana'naviy energiya manbalarideyiladi** (shamol, quyosh, suv sathining ko'tarilib tushishi, to'lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg'i, vodorod va kvant).

Suv energiyasi. **Gidroelektrostansiyalar (GES)**– gidrotexnik inshootlar va energetik jixozlar majmuasidan iborat bulib, ularning yordamida suv okimi energiyasi elektroenergiya aylantirib beriladi. GESlarni kurish natijasida xam atrof muxitga zarar etkaziladi: daryolar okimi tusilishi bilan ularning uzani uzgarib ketadi, juda katta maydon suv ostida koladi, flora va faunaga katta zarar etkaziladi. Issiklik energetikasiga karaganda suv okimi energiyasining asosiy xususiyatlaridan biri, uning kaytalanib turshidir (24-rasm).

GESlarning yana bir turi, nasos va turbinalar bir-biriga joylash-tirilib ishlatiladigan **gidroakkumulyasion GESlardir**. Bunday GESlar-ning yuqori befi suv ombori yoki daryo bo'lishi mumkin. Yuqori bef sifatida yuqorida joylashgan ko'l (oqmaydigan) yoki maxsus sun'iy qurilgan kichik suv ombori bo'lishi mumkin.

To'lqinlar energiyasi. To'lqinlar energiyasi ikki turga bo'linadi: to'lqinlar energiyasi va suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi. Okean va dengizlardagi to'lqinlar energiyasidan foydalanish.

2.Qaytalanuvchan energiya manbalari turlari.

Energiya (grekcha energeia-harakat, faoliyat) umumiy harakat miqdori va barcha materiya turlarini o'zaro ta'siridan iborat. Bu ish bajarishga bo'lgan qobiliyatdir, ish esa ob'ektga fizik kuch (bosim yoki gravitatsiya) ta'sir etganda bajariladi. Ish bu harakatdagi energiya.

Barcha mexanizmlarda ish bajarilganda energiya bir turdan ikkinchi turga aylanadi. Lekin bunda bir tur energiyasini har qanday o'zgarishida ham boshqasiga nisbatan ko'proq olish mumkin emas, chunki bu energiyaning saqlanish qonuniga ziddir.

Energiyaning quyidagi turlari mavjud: mexanik, elektr, elektromagnit, issiqlik, kimyoviy, atom (yadro ichki).

Xalqaro birlik tizimi (SI) da energiyani o'lchash birligi sifatida 1 Joul (J) qabul qilingan. 1 J=1nyuton metrga (Nm) ekvivalentdir. Agarda hisob-kitoblar issiqlik, biologik va energiyaning ko'pchilik boshqa turlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda o'lchov birligi sifatida sistemadan tashqari birlik qo'llaniladi - kaloriya (kal) yoki kilokaloriya (kkal), 1 kal=4.18 J. Elektr energiya Vatt·soat

(Vt's, kVt's, MVt's.) da o'lchanadi; $1 \text{ Vt}\cdot\text{s}=3.6 \text{ MDj}$. Mexanik energiyani o'lchashda $1\text{kg}\cdot\text{m}$ qiymatdan foydalaniladi, $1\text{kg}\cdot\text{m}=9.8\text{Dj}$.

Elektr energiya energiyaning takomillashgan turidan biridir. Undan keng ko'lamda foydalanish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

-resurslarning konlarida va suv manbalari yaqinida katta miqdorda olinishi bilan.

Birlamchi energiyani ikkilamchisiga o'zgartirish, xususan elektrga aylantirish o'z nomida qaysi birlamchi energiya turi qanday ikkilamchi turga o'zgartirilishini ko'rsatadigan stantsiyalarda amalga oshiriladi.

IES-issiqlik elektr stantsiya, issiqlik energiyasini elektr energiyaga o'zgartiradi.

GES – gidroelektrstantsiyasi, suv harakatining mexanik energiyasini elektr energiyaga aylantiradi.

GAES – gidroakkumlaydigan elektr stantsiyasi, oldindan sun'iy havzalarida yig'ilgan suvning harakati mexanik energiyasini elektr energiyaga aylantiradi;

AES – atom elektr stantsiya – yadro yoqilg'isining atom energiyasini elektr energiyaga aylantiradi;

OES – oqim elektr stantsiyasi – okean suvi quyilishi (priliv) va ortga qaytishi (otliv) energiyasini elektr energiyaga aylantiradi;

SHES – shamol elektr stantsiyasi – shamol energiyasini elektr energiyaga aylantiradi;

QES – quyosh elektr stantsiyasi – quyosh nuri energiyasini elektr energiyaga aylantiradi.

KES – kondensatsion issiqlik elektr stantsiyalari, faqat elektr energiya ishlab chiqaradi.

6-mavzu. Geofizik energiya. Suv energiyasi. SHamol energiyasi.

Reja:

1. Geofizik energiya.
2. Suv energiyasi
3. SHamol energiyasi.

Geofizik energiya.

Geothermal energiya. Er qa'rida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. hisoblarga ko'ra, er bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasiidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammobi issiqlik energiyasifaqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadixolos.

. Geothermal energiyadan foydalanish asoslari.

Geothermal so'zi grekchadan **geo-er** va **thermy-issiqlik** so'zlari bo'lib, **geothermal energiya-er issiqligi energiyasi** deb ataladi. Er qa'rida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. hisoblarga ko'ra, er bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasiidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadi xolos.

Er qa'rida juda katta issiqlik zahiralari mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas – tuganmas energiya olish mumkin.

Hisoblarga ko'ra, er bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasiidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadi xolos. Bu suvlar ikkiga bo'linadi (66-rasm).

1. Termal (issiq) suvlar – ularning temperaturasi 100°S gacha bo'ladi.
 2. Paragidrotermal suvlar – ularning temperaturasi 100°S dan ortiq bo'ladi.
- O'rta Osiyoda temperaturasi $40-200^{\circ}\text{S}$ atrofida o'zgaradigan umumiy oqim sarfi $0,55 \text{ mln.m}^3/\text{kun}$ geothermal suvlar zahirasi mavjuddir.

Xozirgi vaqtda geotermal suvlardan faqatgina xalq xo'jaligining kommunal xo'jaligida (uylarni isitish va issiq suv bilan ta'minlash), parniklarda va davolash maqsadlarida ishlatiladi.

Energetika va issiqlik bilan ta'minlashda asosan temperaturasi yuqori va kammineralizatsiyali suvlar qimmatli hisoblanadi. Chunki mineralizatsiyasi oz bo'lsa, jihozlarning zanglashi va ularning devorlariga tuzlarni o'tirib qolishi kam bo'ladi.

Yer bag'rida gidrotermal suvlar juda chuqurda (1000 m pastda, iste'mol qilish mumkin bo'lgan suvlardan pastda) joylashadi. Xisoblarga qaraganda har 30–40 m chuqurlikda er qa'ridagi suvlarning temperaturasi 1 °S ga osharekan. Ba'zi bir joylarda ular 200 – 300 m chuqurlikda xam (Kamchatka, Kuril orollarida) joylashishi mumkin. Kam holatlarda ular issiq bug'li buloqlar shaklida ham uchraydi.

Kamchatkada 100 dan ortiq er yuziga chiqib turgan yuqori temperaturali termal suvlar mavjuddir. 1941 yilda geyzerlar vodiysi topildi. SHu vodiydagi Ulkan geyzeri 100 °S temperaturadan ortiq bug'li suv aralashmasini 300 m balandlikka otib turadi. Kamchatkadagi manbalar faqat yuqori temperaturasi (170 – 200 °S) bilan emas, balki kichik mineralizatsiyasi (0,6 – 5,0 g/l) bilan ham ajralib turadi.

Dunyodagi geotermal suvlardan olinadigan energiya miqdori 60.000 MVt ni tashkil qiladi. 1984 yilda geotermal suvlardan faqatgina 1800 MVT energiya olingan shulardan: Amerika–500; Italiya–420; Meksika–75; YAponiya–70.


Geotermal suvlardan elektr energiyasi olish asosan, er yuzida energetik krizs boshlanishi va ekologik toza energiya olish uchun ko'rash avjiga chiqqandan so'ng boshlandi.

a) b)



66-rasm. Paragidrotermal (a) va termal (b) suv manbalari.

Termik suvlardan foydalanib elektr energiyasi olish kurilmalari xuddi issiqlik elektrostansiyalariga o'xshash, faqatgina termik elektrostansiyalarida bug' qozoni bo'lmaydi xolos, geotermal elektrostansiyalarga yoqilg'i kerak bo'lmagani uchun uni ishlashi uchun transportni xam keragi bo'lmaydi. Quyida geotermal elektrostansiyaning sxemasi keltirilgan (67-rasm).



67-rasm. Vulqonli rayonlarga o'rnatish mumkin bo'lgan geotermal elektrostansiyaning sxemasi:

1-geotermal quduq; 2-bug'ga aylantiruvchi moslama; 3-turbina; 4-konden-sator; 5-nasos; 6-suvli issiqlik almashtirgich.

11.1. Geotermal energiya manbalari va ularning kadastri.

Geotermal energiyaning sifati, uning temperaturasi, mineralizatsiyasi-(quruq qoldiq), umumiy qattiqligi, kislotaligi (rN), gaz tarkibi, gaz bilan to'yinganligi bo'yicha baholanadi va quyidagicha klassifikatsiyalanadi.

1. Temperaturasi bo'yicha geotermal suvlar: kuchsiz termal – 40° S gacha; termal – 40° S ÷ 60° S gacha; yuqori termal - 60° S ÷ 100° S gacha; qizib ketgan - 100° S dan yuqori.

2. Mineralizatsiyasi (quruq qoldig'i) bo'yicha: ultrachuchuk suvlar - 0,1 g/l gacha; chuchuk suvlar - 0,1 ÷ 1,0 g/l; kuchsiz sho'rlangan suvlar - 1,0 ÷ 3,0 g/l; kuchli sho'rlangan suvlar - 3,0 ÷ 10,0 g/l; sho'r suvlar - 10,0 ÷ 35,0 g/l; o'ta sho'r suvlar - 35,0 g/l dan oshiq.

3. Umumiy qattiqligi bo'yicha: juda yumshoq - 1,2 mg.ekv/l; yumshoq - 1,2 ÷ 2,8 mg.ekv/l; o'rtacha yumshoq - 2,8 ÷ 5,7 mg.ekv/l; qattiq - 5,7 ÷ 11,7 mg.ekv/l; juda qattiq - 11,7 mg.ekv/l dan katta.

4. Kislotaligi (rN) bo'yicha: juda achchiq – 3,5 gacha; achchiq – 3,5 ÷ 5,5; kam achchiq – 5,5 ÷ 6,8; neytral - 6,8 ÷ 7,2; kam ishqorli – 7,2 ÷ 8,5; ishqorli – 8,5 dan katta.

5. Gaz tarkibi bo'yicha: oltingugurt vodorodli; oltingugurt vodorodli – karbonot-angidridli; karbonot-angidridli; azotli-karbonot angidridli; metanli; azotli – metanli; azotli.

6. Gaz bilan to'yinganligiga nisbatan: kuchsiz – 100 mg/l gacha; o'rtacha – 100 ÷ 1000 mg/l; yuqori – 1000 mg/l dan ortiq.

Er qa'rining tabiiy issiqligi-geotermal energiya, er qobig'ining 10 km chuqurligicha masofada yig'ilgan. Olimlarning taxminiga ko'ra, geotermal energiyaning energiya sig'imi 137 trln. tonna toshko'mir yoqilg'isiga teng bo'lib, er qobig'ida joylashgan barcha energetik resurslarning quvvatiga qaraganda 10 barobardan oshiqroqdir.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha geotermal elektrostansiyalarning umumiy quvvati boshqa turdagi qaytalanuvchi energiya manbalari elektrostansiyalari quvvatiga qaraganda kichikroqdir. Ammo ba'zibir mamlakatlarda energiyaning bu turi asosiy energetik manbalardan hisoblanadi (Masalan, Islandiya mamlakati). Bundan tashqari geotermal energiyadan foydalanish yildan-yilga ko'payib bormoqda. Masalan, 1990 yilda geotermal energiyadan olinadigan o'rnatilgan quvvat miqdori 5000 MVt ni tashkil qilgan bo'lsa, bu miqdor 2000 yilda 6000 MVt ni, 2008 yilda esa 10 500 MVt ni tashkil qildi.


Suv energiyasi

Quyosh-Er-Oy planetalari bir to'g'ri chiziqli joylashganda, kosmik sistemalarning tortishish kuchlari natijasida dengiz va okean suvlarining sathi ko'tarilib-tushadi (51-rasm). Suv


sathining ko'tarilib-tushish jarayoni har 6 soatu 12 minutda ro'y berib turadi. Er sharining ba'zi nuqtalarida bu jarayon 12 soatu 25 minut yoki 24 soatu 50 minutni tashkil qiladi. Suvning ko'tarilishi bir kunda 50 minutga suriladi. To'liq bir sikl(ko'tarilib - tushish)ning davom etishi 29,53 kunga to'fri keladi.

Ochiq dengiz va okeanlarda suv sathining ko'tarilib-tushish farqi 2 m dan oshmaydi. Ammo kurfazlarda, qo'ltiqlarda, daryolarning boshlanishi hamda dengiz va okeanlarga quyilish joylarida suv sathining ko'tarilib-tushish farqi 10-15 m ni va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Cuv sathining ko'tarilib-tushish davrida ularning maksimal miqdori Atlantik okeanining Kanada qirg'oqlarida 18 m gacha, Fandi qo'ltig'ida 19,6 m gacha etadi. Sathlar tebraninshining katta miqdori La-Mansh bug'ozining ba'zi joylarida 15 m gacha, Oxota dengizida 13 m gacha, Barens va Oq dengizda 10 m gacha kuzatiladi.

Sathlarning ko'tarilib-tushishiga asoslangan elektstansiyan qurish uchun sathlar farqi 10 m ni tashkil qilishi zarur. Bunday joylar er sharida atigi 30 donani tashkil qilishi mumkin. SHuning uchun ushbu elektrostansiyalarni umumiy energetikadagi o'rni unchalik sezilarli emas.



a)




b)

50-rasm. Erning sun'iy yo'ldoshiga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyasining sxemasi:

a-sxemasi; quyosh energiyasi oqimi; 2-quyosh energiyasining sun'iy yo'ldosh kollektori; 3-uzatuvchi antenna; 4-qabul qiluvchi antenna; 5-qisqa to'liqlik nur; 6-energetik sun'iy yo'ldoshning doimiy orbitasi (er yuzidan 30-40 ming km masofada); b-sun'iy yo'ldoshga o'rnatilgan quyosh elektrostansiyasining umumiy ko'rinishi.

Dunyodagi dengiz va okeanlar suv sathining ko'tarilib-tushishi natija-sida olinadigan energiya bir yilda 1,0 mlrd kVtni tashkil qiladi. Bu miqdor butun dunyodagi GESlar ishlab chiqaradigan elektroenergiyadan 2,5 barobar ko'proqdir.




51-rasm. Quyosh, oy va yorning bir to'g'ri chiziqda joylashishi.

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi.

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish uchun, suv sathi ko'tarilgan vaqtda dengiz havzasining biror kichraygan joyi (qo'ltiq-suv havzasi) bекitiladi (52-rasm). Suv qaytgan vaqtda dengiz va ajratilgan suv havzasi sathlari orasida ma'lum kattalikda bosim hosil

bo'lad. Hosil bo'lgan bosim ostida har xil gidroturbinalarni ishlatib elektroenergiya olish mumkin bo'lad. Dengiz sathining ikkinchi ko'tarilishida esa, ajratilgan suv havzasidagi suv sathidan dengiz suv sathi baland bo'ladi. Natijada yana ma'lum balandlikda bosim hosil bo'lib, gidroturbinalarni ishlashi uchun sharoit yaratiladi.



52-rasm. Okean va dengizlar sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish sxemasi: a- bo'ylama kesimi; b- plani.

Suv satxlarning ko'tarilib tushishiga asoslangan elektrostansiya-larning potensial energiyasi va unga mos bo'lgan o'rtacha yillik quvvat quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

Bu erda: $A_{o'rt}$ – yillik o'rtacha suv satxlarning farqi;

$K < 1$ – suv satxi o'zgarishiga nisbatan suv xavzasi maydonini o'zgarishini xisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsient;

F – suv xavzasining yuzasi, km^2 .

Bosimni kamayib ketishi natijasida elektrostansiyaning to'xtab qoli-shi va boshqa sabalarga ko'ra, potensial energiyaning faqatgina 1/3 qismidan-gina foydalaniladi. Suv sathining ko'tarilib tushish elektrostansiyalari qurishga qo'lay bo'lgan joylar juda kam. Bunday elektrostansiyalar samaradorligini oshirish uchun ikki, uch va undan ko'proq xavzali, odatdagi turbina o'rniga ikki mashinali nasos turbinalar qo'llaniladi.

suv yuzasidagi temperatura 10–20 °S dan 24–28°S gacha o'zgarib turadi. Bunday jarayonni kelib chiqishiga: iqlimning o'zgarishi natijasida erigan muzlar bilan okeanning sho'r suvlari aralashishi natijasida toza suv hosil bo'lishi, 2010 yilda Meksika qo'ltig'ida falokat tufayli "British petroleum" kompaniyasining okeanga neft yoyilib ketishi va nihoyat tarixiy sikl ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki bundan 10-60 ming yillar oralig'ida 17 marta bunday jarayonlar kuzatilgan, ammo oxirgi 10 ming yil davomida bunday hodisa ro'y bermagan.

Bu oqimning energiyasidan foydalanish uchun to'g'ri suv qabul qiladigan diametri 168 m li 242 dona (har birining quvvati 83 Mvt) turbinalarni, kema qatnoviga halaqit bermasliklari uchun 30 m chuqurlikka o'rnatish rejalashtirilgan. Gibraltar bug'ozida ham xuddi shunday oqim energiyasidan foydalanish loyihalashtirilgan.

To'lqinlar energiyasi.

Inson necha ming yillardan buyon daryo, dengiz, okeanlar to'g'risida tanish bo'lgani bilan ularda hosil bo'ladigan to'lqinlar energiyasidan foydalanishga oz harakat qilingan. Dengizlarda

hosil bo'ladigan to'liqlar energiyasi to'g'ridan – to'g'ri shamol energiyasiga bog'liq bo'lgani bilan o'z navbatida shamol energiyasi ham quyosh energiyasiga bog'liqdir.

Biroq quyosh energiyasiga nisbatan dunyodagi to'liqlar energiyasi zaxiralari juda kam miqdorni tashkil qiladi. Dunyo okeanining energetik zaxiralari (har hil hisoblarga ko'ra) 10 mlrd. kvt dan 90 mlrd. kvt gacha hisoblanadi. Biroq bu energiyaning faqatgina 2,7 mlrd. kvt / soati foydali hisoblanadi, ammo mana shu miqdor ham dunyodagi barcha elektrostansiyalar quvvatiga taxminan teng va suvning ko'tarilib tushishi energiyasidan 1,5 barobar ortiqroqdir.

To'liqlar energiyasini qaytalanuvchi energiya manbasi hisoblanib, uni mexanik energiyaga aylantirish, injenerlar oldiga qo'yilgan asosiy masalalardan hisoblanadi. Mexanik, gidravlik yoki boshqa energiya turlariga aylantirilgan to'liqlar energiyasidan foydalanib, uni elektroenergiyaga aylantirish mumkin bo'ladi.

To'liqlar energiyasidan foydalanish bo'yicha birinchi ixtirochiga patent 1799 yili (Parij) da berilgan. Xozirgivaqtda to'liqlar energiyasidan foydalanish bo'yicha 1000 dan ortiq har hil ixtirovatakliflarmavjud (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya).



59-rasm. Okean va dengizdagi hamda qirg'oqqa uriluvchi to'liqlar.


10.1. Okean va dengizlardagi to'liqlar, ularning o'lchamlari va energetik xarakteristikalari.

Dengiz va okeanlardagi to'liqlar asosan shamol yordamida hosil bo'ladi. Ammo boshqa sabablarga ko'ra ham quyidagi to'liqlar hosil bo'lishi mumkin:

- suv sathini ko'tarilib-tushishiga (oy, er va quyoshning suv sathining o'zgartiruvchi kuchlariga) nisbatan;
- barometrik (atmosfera bosimining keskin o'zgarishiga nisbatan);
 - seysmik-sunami (kuchli er qimirlashi yoki vulqonlar otilishiga nisbatan);
- kemalar harakati tufayli hosil bo'ladigan to'liqlar.

Har bir to'liq quyidagi elementlari bilan xarakterlanadi (60-rasm):

- to'liqning o'rkachi-cho'qqisi (to'liq o'rkachining eng yuqori nuqtasi);
- to'liqning tagi (to'liq tagidagi eng past nuqta);
- to'liq balandligi – h (to'liq o'rkachi va tagi oralig'idagi masofa);
- to'liq uzunligi – L (ikkala o'rkach orasidagi gorizonttal masofa);



60-rasm. To'liqning elementlari.

- to'liqning davri – T (to'liqni o'z uzunligi masofasini o'tishi uchun zarur bo'lgan vaqt);
- to'liqning qiyaligi – $e = h / L$ (to'liq balandligining uning uzunligiga nisbati);
- to'liqning eng katta qiyaligi – $\delta = h / 0,5 L$ (to'liq balandligining uning yarim uzunligiga nisbati);
- to'liq tezligi – S (to'liq o'rkachining uning uzunligiga teng masofani o'tish tezligi);
- to'liq fronti (ma'lum to'liq o'rkachining plandagi uzunligi).

Okean va dengizlarning ochiq hududlarida to'liq elementlari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

- to'liq balandligi - $h = a W \sqrt[3]{D}$;

- to'liq uzunligi - $L = z W \sqrt[3]{D}$.

- to'liqning tezligi - $C = 1,25 \sqrt{L}$

Bu formulalardagi a va z o'zgarib turuvchi koeffitsientlar bo'lib, shu joydagisuvning chuqurligi(N)ga bog'liq va quyidagicha aniqlanadi:

$$a = 0,0151 N^{0,342};$$

$$z = 0,104 N^{0,573}.$$

W-shamolning tezligi; D- shamolning tezlik kolishi.

To'liqlarning balandligi asosan shamolning tezligi va tezlanishiga bog'liqdir. Dengiz va okeanlardagi to'liqlarning balandligi 2 m dan anomal-(normadan chetga chiqish) holatlarda esa 18 m, hattoki 30 m gacha bo'lishi mumkin

To'liqlar quvvatining o'lchov birligi kVt/m bo'lib, 1 m uzunlikdagi to'liqlarning quvvati hisobga olinadi. To'liqlar energiyasi shamol va quyosh energiyasiga qaraganda birmuncha ko'pdir. Dengiz va okeanlardagi to'liqlar-ning o'rtacha quvvati 15 kVt/m dan oshiqroqdir. Masalan, to'liq balandligi 2 m bo'lganda ularning quvvati 80 kVt/m gacha etadi. To'liqlar energiyasini foydali ish ko'effitsienti juda yuqori bo'lib, bu miqdor mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirishda 85 % gacha bo'lishi mumkin.

Qirg'oqqa uriluvchi to'liqlar hamda ularning energetik xarakteristikalari.

Qirg'oqqa kelib uriluvchi to'liqlarning energiyasi juda katta bo'lib, u asosan to'liqning kinetik energiyasi hisoblanadi. Masalan, 1 m balandlikda va har 10 sekundda 1 mil (1 dengiz mili = 1853 m) uzunligida hosil bo'ladigan to'liqlarning quvvati 35 000 ot kuchi (25 800 kVt) ga teng ekan.

Qirg'oqqa uriluvchi to'liqlarning vayron qiluvchi energiyasi to'g'risida quyidagi misollarni keltirish mumkin. Shotlandiya qirg'oqlaridagi pirs (ke-malar bog'lab qo'yiladigan joy) ga mustahkam o'rnatilgan 1350 tonnalik temir-beton blokni sindirib qirg'oqdan surib tashlagan. Uning o'rniga o'rnatilgan boshqa 2600 tonnalik beton blokni ham 5 yildan sung sindirib surib tashlagan. Injenrlar shu joyga uriladigan to'liqlarning kuchini o'lchab ko'rganlar va natijada to'liqlarning urilishi natijasida hosil bo'ladigan bosim 29 t/m^2 ni tashkil qilishini aniqlaganlar. Bundan tashqari to'liqlar, 60 kg og'irlikdagi tosh bo'lagini, Oregon qirg'og'ida 28 m balandlikda joylashgan mayak tomiga uloqtirgan.

SHamol energiyasi.

SHamol energiyasi. Bug' dvigatellari paydo bo'lguncha, Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasidan juda katta masshtabda sanoatda va qishloq xo'jaligida ko'llanib kelingan. SHamol energiyasidan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar, katta alohida shamol generatorlari yaratish va ularning energiyasidan ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulashdan va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir (25-rasm).



25-rasm. SHamol generator qurilmasi va elektrostansiyasi

4.1. SHamol energiyasi va undan foydalanish asoslari, nazariyasi va amaliyoti.

SHamol energiyasi. Insoniyat suv energiyasi hamda bug‘ dvigatellaridan ancha oldin, shamol energiyasidan foydalanib kelgan. Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya, AQSH va boshqa mamlakatlarda, shamol energiyasi juda katta masshtabda, sanoat va qishloq xo‘jaligida ko‘llanib kelingan. SHamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar, alohida katta quvvatli shamol generatorlarini yaratish va ularni energiyasini ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulash va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

Havomassasining atmosferasiatrofidaaylanishieksptertartomonidanturlicha baholangan. SHamollarningyilliknazariy zahirasi er yuzidagibarcha energiya zahiralaridan 100 marta ortiq bo‘lib, 3300×10^{12} kVt/ soatnitashkil qiladi. Ammobuenergiyaning faqatgina10–12 % foydalanishmumkin. Masalan, 1987 yilda er yuzidagibarchashamol qurilmalaritomonidan 10×10^{12} kVt/ soat energiya ishlab chiqilgan, ya‘niyillik zahiraningatiga 0,3 % dan foydalanilgan.

SHamol – bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havomasasining harakatidir.

Iqtisodiy jihatdan joydagi shamolning tezligi 5 m/s dan kam bo‘lmasa shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shamol elektrogeneratorlari an‘anaviy generatorlardan 2 – 4 barobar qimmatdir. Ammo shamol energiyasi doimiy bo‘lgan ba‘zi bir regionlarda u muxim energiya manbalaridan hisoblanadi.

Odatda shamol energiyasi shamolga perpendikulyar joylashgan ma‘lum maydon ta‘siri orqali aniqlanadi ya‘ni,

$$N_{\text{sham.oqimi}} = 0,0049 \times q \times V \times F$$

Bu erda: q – havoning zichligi (temperatura va atmosfera bosimiga nisbatan), kg/m^3 ;

V –havo oqimining tezligi, m/s ;

F – maydon yuzasi, m^2 .

SHamol energetik qurilmasi uzatayotgan energiya miqdori, havo oqimi hosil qiladigan energiya miqdoridan tubdan farq qiladi. Chunki havo oqimi energiyasining bir qismi shamol g‘ildiragi parraklarida, reduktor va generatorlarda isrof bo‘ladi. Isrof bo‘lgan energiya miqdori, shamol energiya-sidan foydalanish koeffitsienti bilan hisobga olinadi. SHamolga perpendikulyar joylashgan maydon yuzasini shamol g‘ildiragi diametri bilan belgilab, shamol energetik qurilmasining quvvatini quyidagi formulada hisoblash mumkin.

$$N_{\text{sham.ener.quril.}} = 0,00386 \times q \times V \times D^2 \times \xi_{\text{par.}} \times \eta_{\text{red.}} \times \eta_{\text{gen.}}$$

Bu erda: D -ish g‘ildiragi diametri, m ;

$\eta_{\text{red.}}$ va $\eta_{\text{gen.}}$ -reduktor va generatorning foydali ish koeffitsientlari;

$\xi_{\text{par.}}$ -parraklarda isrof bo‘lgan havo oqimi energiyasi.


Hisoblarga ko‘ra, parrakli shamol dvigatellaring shamol energiyasidan foydalanish koeffitsienti 48 % gacha bo‘lishi mumkin, shamol qurilma-larining umumiy ishfoydali ish koeffitsienti undan ham kichikroq bo‘ladi.

SHamolga perpendikulyar bo‘lib asosan,shamol qurilmalarinig parrak-lari joylashadi. SHamol qurilmasi quvvatini parraklar soni emas balki, ish g‘ildiragi diametri belgilaydi. SHamol agregatining quvvati, shamol tezligiga to‘g‘ri, ish g‘ildiragi parraklari soniga teskari proporsionaldir.

$$N_{\text{шам. энерг. курил.}} = f\left(\frac{V}{n}\right)$$

Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirish, shamol elektrostansiyalari yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig‘indisi shamol elektrostansiyasini tashkil qiladi. SHamol qurilmalarining asosiy ishchi qismi, shamol g‘ildiragi hisoblanadi.

SHamol g‘ildiraklarinig qanotli, karuselli va barabanli turlari mavjud. SHamol elektrostansiyalarida eng samarali bo‘lgan qanotli shamol g‘ildiraklari qo‘llaniladi (28-rasm).



28-rasm. Qanotli shamol g'ildiraklarinig ko'rinishi:

a-ikki g'ildirakli; b-uch g'ildirakli; v-to'rt g'ildirakli

SHuni esda tutish lozimki, shamol g'ildiragi tomonidan qabul qilinayotgan shamol oqimi, shamol g'ildiragining diametri bilan aniqlana-di, undagi parraklar soni hech qanday ahamiyatga ega emas. Hozirgi kunda ish g'ildiragi diametri $1,0 \div 64$ m bo'lgan shamol qurilmalari mavjud.

Ko'pgina shamol generatorlari sekundiga 3-4 m/s dan yuqori tezlik bilan esadigan shamol yordamida ishlaydi. SHamol generatorlari 8-25 m/s tezlikda esadigan shamol yordamida maksimall quvvatga ega bo'ladi. Odatda shamol generatorlarining maksimal ishlash tezligi 25-30 m/s ni tashkil qiladi.

SHamol energetikasi ekologik toza energiya manbaidir. Ammo shamol elektrostansiyalari uchun juda katta hududlar zarur (shamol energetik qurilmalarining bir – biridan uzoqda joylashishi va ular orasidagi masofa ish g'ildiragi diametrining 6-18 barobariga teng bo'lishi kerak). Masalan, ish g'ildiragi $D = 100$ m bo'lgan shamol energetik qurilmasi uchun $5-7 \text{ km}^2$ hudud kerak. Butun boshli shamol elektr stansiyasi uchun esa o'nlab km^2 hudud zarur, Boshqa bir noqulay tarafi – ish g'ildiragi shovqin chiqarib va xavoni tebratib ishlashi. Buning natijasida tele- va radio eshiritishlarga xalaqit beriladi.

SHamol energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya birinchi o'rnini egallab kelmoqda. Bu mamlakatda shamol energiyasini ishlab chiqarish yiliga 500 – 1500 MVt ga ko'paymoqda, hozirgi vaqtda ishlab chiqariladigan energiya miqdori 2 mln.kVt/soatdan oshib ketdi.

SHamol energiyasi kadastri.

Ma'lum vaqt oralig'i (kun, oy, yil) bilan bog'liq shamol energetikasi hisoblarini amalga oshirish uchun shamol energiyasi kadastri to'g'risida ma'lu-motga ega bo'lish lozim.

SHamol energiyasi kadastri shamolning miqdor xarakteristikalari bo'lib, ular asosida shamol agregatining ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan ener-giyasi hamda uning ishlash davriyligi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

SHamol energiyasi kadastriga shamolning quyidagi xarakteristikalari kiradi.

1. Uzoq vaqt oralig'ida shamolning o'rtacha tezligi.
2. SHamol o'rtacha tezligining takrorlanishi.
3. SHamol tezligining kunlik va yillik silijish xarakteristikalari.
4. SHamolli va shamolsiz davrlarning davomiyligi.

SHamolning o'rtacha tezligi, ma'lum vaqt oralig'idagi teng vaqtlar ichi-da o'lchangan shamol oniy tezliklarining o'rta arifmetik miqdor sifatida aniqlanadi, ya'ni

$$V_{\text{ypm.}} = \frac{\sum_{i=1}^n V_i}{n}$$

Bu erda: $V_{o'rt.}$ – shamolning o'rtacha tezligi, m/s;

V_{oniy} – shamolning oniy tezligi miqdoraliri, m/s;

n – o'lchangan oniy tezliklarning soni.

Vaqtning uzoq davri (oy, yil) uchun shamolning tezligi to'g'risidagi ma'lumotlar, joylardagi meteostansiyalarning kuzatuvlari asosida olinadi. Bir kunda bir necha bor o'lchangan shamolning tezligiga asosan o'rtacha bir kunlik, o'rtacha oylik hamda ko'p yillik davr uchun shamolning o'rtacha yillik tezliklari jadvallari tuziladi.

Bundan tashqari shamolning kuchayishi, susayishi va ko'tarilishi kabi xarakteristikalar ham mavjud.

7-mavzu. Geotermal energiya. Quyosh energiyasi. Dengiz va okean to'liqini energiyasi.

Reja:

1. Geotermal energiya.
2. Quyosh energiyasi.
3. Dengiz va okean to'liqini energiyasi.


1. Geotermal energiya.

Er qo'riqida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. hisoblarga ko'ra, er bag'rida to'plangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilg'i zahirasidan olnadigan energiyadan bir necha barobar ko'p ekan. Ammobi issiqlik energiyasi faqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadixolos.

Geotermal elektrostansiyalari va ularning ishlash prinsipi hamda asosiy kislmlari.

The Geysers – eng katta geotermal energiya to'plangan joy, AQSHning Kaliforniya shtatidan 116 km uzoqlikda joylashgan. Bu erda joylashgan 18 do-na geotermal elektrostansiyalar 2000 MVt quvvat ishlab chiqaradi.

Geotermal elektrostansiyalar joylashgan hudud 78 km² ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya Kaliforniya shtatining janubida joylashgan iste'molchilarning 60% ehtiyojini qoplaydi (68-rasm).



68-rasm. Dunyodagi eng katta geotermal elektrostansiyalar

Geotermal energiyaning topib ishlatish - axtarib topish, unga ishlov berib ma'lum energiya holatiga olib kelish hamda iste'molchiga sifatli energiya etkazib berish jarayonidan iboratdir. Issiqlik energiyasi olib yuruvchi geotermal energiyaning axtarib topishni quyidagi klassifikasiyasini keltirish mumkin (69-rasm).

Er sathidan 50-100 m va undan ortiq chuqurlikda joylashadigan geotermal suvlar favvorali yoki aylanuvchi bo'lishi mumkin. Favvorali texnologiya hozirgi kunda ko'p ishlatiladigan turlardan bo'lib, undagi bosim atmosfera bosimidan bir necha barobar katta bo'lishi mumkin. O'z bosimi ostida yoki nasoslar bilan ko'tarib berilgan favvorali suvlar ishlatib bo'lingandan sung tashlab

yuborilishi kerak. Tarkibida har xil tuzlar va boshqa atrof-muhitga zarar keltiruvchi moddalar borligi tufayli ulardan foydalanish uncha ham maqsadga muvofiq emas. SHuning uchun bu usul uncha qo'llanilmaydi



69-rasm. Geothermal energiyani joylashishi va harakati bo'yicha klassifikatsiyasi.

Ximik (galvanik) elementlarenengiyasidanfoydalanish asoslari.

Har xil metallarni bir-biri bilan ulash natijasida elektr energiyasi hosil bo'lish hodisasi, 1876 yilda italyan fiziologi Luidji Galvani tomonidan ixtiro qilingan.

Galvanik elementlarga elektrodlar kiradi. Elektrodlar quyidagi tur-larga bo'linadi.

3. Tiklanuvchi elektrodlar, ularga:

- 1-tur elektrodlar-o'z tuzidan tashkil topgan eritmaga cho'ktirilgan metallardir;
- 2-tur elektrodlar-o'zining erimaydigan tuzidan tashkil topgan va umumiy anionga ega bo'lgan eritmaga cho'ktirilgan metallardir(kumush-xlorli elektrod, kalomel elektrodi va metall-oksidi elektrodlar);
- 3-tur elektrodlar-ikkita erimaydigan elektrolitlar cho'kindisi-dan iborat bo'lib, elektrod metallidan tashkil topgan kam eriydiganida kationlar mavjud, ko'proq eriydiganida esa, birinchi cho'kma bilan umumiy anioni bor;
- gazli elektrodlar-eritma va gaz hamda noaktiv metallidan tashkil topgan elektrodlardir (kislorodli va vodorodli elektrodlar);
- Amalgamli elektrodlar-simobdagi metall eritmasidan tashkil topgan elektrodlar;
- oksidlanuvchi-tiklanuvchi elektrodlar-noaktiv metallardan tashkil topgan (ferri-ferro va [xingidron](#))elektrodlar.

4. Ionoselektivli membranali elektrodlarga:

- zaryadlarni to'plovchi ionalmashuvchi membranali elektrodlar-shisha elektrodlar;
- birlashgan suyuq ionitlardan tashkil topgan elektrodlar;
- membranoaktiv kompleksionlar asosidagi membranali elektrodlar;
- mono- va yarim kristal membranali elektrodlar.

Galvanik elementlar - elektr yurituvchi kuch (EYUK), sig'imi, tashqi zan-jirga beradigan energiyasi, saqlanishi bilan xarakterlanadi.

5. Galvanik elementning EYUKi elektrodlarning materialiga va elektrolitning tarkibiga bog'liq bo'ladi.

6. Elementning sig'imi deb-tok manbaining elektrsizlanishi tufayli bergan elektr energiyasi miqdoriga aytiladi. Sig'im reagentning manbadagi miqdori va massasiga hamda elektroenergiyaga aylanishiga bog'liq bo'lib,tempe-raturaning pasayishi yoki elektrsizlanishning ko'payishi bilan kamayadi.

7. Galvanik elementning energiyasi, son jihatidan uning sig'imini kuchlanishiga ko'paytirilganiga tengdir.

8. Elementning saqlanish muddati, bu muddatda elementning xarakteris-tikalari o‘rtacha o‘zgarmasdan qoladi. Saqlanish muddati, saqlash temperatu-rasi ko‘tarilishi bilan kamayib boradi (masalan, batareykaning energiyasi issiq temperaturada tez kamayib ketadi).


Galvanik elementlar quyidagicha klassifikatsiyasi.

2.Quyosh energiyasi.

Quyosh radiatsiyasining energiyasini doimiy elektroniga aylantirish mumkin (26-rasm). Buning uchun yupqa kremniy plyonkalari boshqa biror yarim o‘tkazgich materialdan foydalaniladi. Fotoelektrik energiyaga aylantirshining potensial qulayliklari:

- Harakatqiluvchisimlarningyo‘qligi;
- ishlashmuddati 100 yildanortiqligi;
- ekspluatatsiya qilishning soddaligi, quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish mumkinligi.

Ammo bu usulda energiya ishlab chiqarish an‘anaviya energiya ishlab chiqarishdan 75 martadan ko‘proq qimmatroqdir. SHuning uchun hozirgi vaqtda arzonroq elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar ustida ish olib borilmoqda. Masalan, kremniy o‘rniga arsenir geliy qo‘llanilmoqda.



26-rasm. Quyosh energiyasidan olinayotgan elektroenergiya iste’mochilari



27-rasm. Quyosh energiyasidan foydalanib uchayotgan turbovintli samolyot

Quyosh energiyasi va undan foydalanish asoslari, amaliyoti

hamdakelajagi.


Insoniyat paydo bo'lgandan buyon quyoshga sig'inib kelgan, uni xudo o'rnida ko'rganlar. Chunki u haqiqatdan ham er yuzida hayot manbaidir. Qadimgi Misr fara'vinlaridan biri (Nefertitining eri) Exnaton ismini qabul qilgan (Atonga – quyoshga sajda qiluvchi), ya'ni Exnaton - tabiiy termayadro reaktoriga sajda qilgan. quyoshdagi energiyani hosil bo'lishi – termayadro reaksiyasi tufaylidir. Quyosh nurlari – bu vodorodning 4 dona va geliyning bir dona atomining qo'shilganidir.

Termayadroreaksiyakuyoshningichida temperatura $t^0 = 20 \text{ mln.S}^0$ ga etgandaboshlanadi. SHuninguchuntermayadroenergiyasi er yuzidagibarcha energetik resurslarningbirinchimanbai hisoblanadi; ko'mir, neft, gaz; gidroenergiya; shamolvaokeanlarenergiyasi.

Quyosh er yuzida barcha energiya turlarining manbai hisoblanadi. Quyosh har sekunda o'rtacha 88×10^{24} kaloriya issiqlik yoki 368×10^{12} TVt energiya tarqatadi. Ammo bu energiya miqdorining atigi $2 \times 10^{-6} \%$, ya'ni 180×10^6 TVt miqdorigina er yuzasiga etib keladi. SHu miqdor ham er yuzidagi barcha doimiy energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalarning energiyasidan taxminan 5000 barobar ko'pdir.

Bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya-ning 98,7 % organik yoqilg'ilardan foydalanadigan issiqlik elektrostan-siyalarida ishlab chiqariladi. Umumiy ishlab chiqariladigan energiyaga nisbatan atigi 1,3 % elektroenergiya gidroelektrostansiya(GES)lar yordamida ishlab chiqariladi.Kelajakda O'zbekiston Respublikasida qaytalanuvchi energiya manbalaridan quyidagi miqdorda foydalaniladi (38-rasm):

- quyosh energiyasidan 98,8 % ;
- gidroenergetikadan 1,0 % ;
- shamol energiyasidan 0,2 % .




38-rasm. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari sxemasi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qaytalanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari (mln.t.n. e.)


Qaytalanuvchi energiya manbalari turlari	YAlpi potensial		Texnik potensial		O'zlashtirilgan	
	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s
Quyosh energiyasi	50973	$592,9 \times 10^9$	176,8	$2,08 \times 10^9$	-	-
SHamol energiyasi	2,2	$25,6 \times 10^6$	0,4	$4,7 \times 10^6$	-	-
Gidroenergiya	9,2	107×10^6	1,8	21×10^6	0,6	7×10^6

Biomasslar energiyasi	10,8	$125,7 \times 10^6$	4,7	$54,7 \times 10^6$	-	-
Geotermal suv energiyasi	0,4	$4,7 \times 10^6$	-	-	-	-
JAMI	50984,6	593×10^9	179,0	$2,1 \times 10^9$	0,6	7×10^6



46-rasm. Kremniy plastinkalarini ishlab chikarish jarayoni.

Hozirgi vaqtda fotoelektr yacheykalarining foydali ish koeffitsenti-ni 30-60 foizga oshirish ustida ilmiy-tadkikot ishlari olib borilmokda. Buning uchun plyonkalarni 4-8 marta ustma- ust oʻrnatish zarur buladi. Ushbu tadkikotlar natijasida qurilma quvvati oshiriladi hamda ishlab chikarish narxi keskin pasayadi.



47-rasm. Kuyosh batareyasidan elektroenergiya olish sxemasi

Fotoelektr tizimi doimiy elektr tokini ishlab chiqaradi va inverter yordamida doimiy elektr toki o'zgaruvchan tokka aylantirilishi mumkin (47-rasm).

3.Dengiz va okean to'liqini energiyasi.

Inson necha ming yillardan buyon daryo, dengiz, okeanlar to'g'risida tanish bo'lgani bilan ularda hosil bo'ladigan to'liqlar energiyasidan foydalanishga oz harakat qilingan. Dengizlarda hosil bo'ladigan to'liqlar energiyasi to'g'ridan – to'g'ri shamol energiyasiga bog'liq bo'lgani bilan o'z navbatida shamol energiyasi ham quyosh energiyasiga bog'liqdir.

Biroq quyosh energiyasiga nisbatan dunyodagi to'liqlar energiyasi zaxiralari juda kam miqdorni tashkil qiladi. Dunyo okeanining energetik zaxiralari (har hil hisoblarga ko'ra) 10 mlrd. kvt dan 90 mlrd. kvt gacha hisoblanadi. Biroq bu energiyaning faqatgina 2,7 mlrd. kvt / soati foydali hisoblanadi, ammo mana shu miqdor ham dunyodagi barcha elektrostansiyalar quvvatiga taxminan teng va suvning ko'tarilib tushishi energiyasidan 1,5 barobar ortiqroqdir.

To'liqlar energiyasini qaytalanuvchi energiya manbasi hisoblanib, uni mexanik energiyaga aylantirish, injenerlar oldiga qo'yilgan asosiy masalalardan hisoblanadi. Mexanik, gidravlik yoki boshqa energiya turlariga aylantirilgan to'liqlar energiyasidan foydalanib, uni elektroenergiyaga aylantirish mumkin bo'ladi.

To'liqin energiyasidan foydalanish bo'yicha birinchi ixtirochiga patent 1799 yili(Parij)da berilgan. Xozirgivaqtdato'liqinenergiyasidanfoydalanishbo'yicha 1000 dan ortiq har hilixtirovatakliflarmavjud (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya).



59-rasm. Okean va dengizdagi hamda qirg'oqqa uriluvchi to'liqlar.


10.1. Okean va dengizlardagi to'liqlar, ularning o'lchamlari va energetik xarakteristikalar.

Dengiz va okeanlardagi to'liqlar asosan shamol yordamida hosil bo'ladi. Ammo boshqa sabablarga ko'ra ham quyidagi to'liqlar hosil bo'lishi mumkin:

- suv sathini ko'tarilib-tushishiga (oy, er va quyoshning suv sathining o'zgartiruvchi kuchlariga) nisbatan;
- barometrik (atmosfera bosimining keskin o'zgarishiga nisbatan);
 - seysmik-sunami (kuchli er qimirlashi yoki vulqonlar otilishiga nisbatan);
- kemalar harakati tufayli hosil bo'ladigan to'liqlar.

Har bir to'liqin quyidagi elementlari bilan xarakterlanadi (60-rasm):

- to'liqinning o'rkachi-cho'qqisi (to'liqing o'rkachining eng yuqori nuqtasi);
- to'liqinning tagi (to'liqin tagidagi eng past nuqta);
- to'liqin balandligi – h (to'liqin o'rkachi va tagi oralig'idagi masofa);
- to'liqin uzunligi – L (ikkala o'rkach orasidagi gorizonttal masofa);



60-rasm. To‘lqinning elementlari.

- to‘lqinning davri – T (to‘lqinni o‘z uzunligi masofasini o‘tishi uchun zarur bo‘lgan vaqt);
- to‘lqinning qiyaligi – $e = h / L$ (to‘lqin balandligining uning uzunligiga nisbati);
- to‘lqinning eng katta qiyaligi – $\delta = h / 0,5 L$ (to‘lqin balandligining uning yarim uzunligiga nisbati);
- to‘lqin tezligi – S (to‘lqin o‘rkachining uning uzunligiga teng masofani o‘tish tezligi);
- to‘lqin fronti (ma’lum to‘lqin o‘rkachining plandagi uzunligi).

Okean va dengizlarning ochiq hududlarida to‘lqin elementlari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

- to‘lqin balandligi - $h = a W \sqrt[3]{D}$;

to‘lqin uzunligi - $L = z W \sqrt[3]{D}$.

to‘lqinning tezligi - $C = 1,25 \sqrt{L}$

Bu formulalardagi a va z o‘zgarib turuvchi koeffitsientlar bo‘lib, shu joydagisuvning chuqurligi (N) ga bog‘liq va quyidagicha aniqlanadi:

$$a = 0,0151 N^{0,342};$$

$$z = 0,104 N^{0,573}.$$

W -shamolning tezligi; D - shamolning tezlik olishi.

To‘lqinlarning balandligi asosan shamolning tezligi va tezlanishiga bog‘liqdir. Dengiz va okeanlardagi to‘lqinlarning balandligi 2 m dan anomal-(normadan chetga chiqish) holatlarda esa 18 m, hattoki 30 m gacha bo‘lishi mumkin



To‘lqinlar quvvatining o‘lchov birligi kVt/m bo‘lib, 1 m uzunlikdagi to‘lqinlarning quvvati hisobga olinadi. To‘lqinlar energiyasi shamol va quyosh energiyasiga qaraganda birmuncha ko‘pdir. Dengiz va okeanlardagi to‘lqinlar-ning o‘rtacha quvvati 15 kVt/m dan oshiqroqdir. Masalan, to‘lqin balandligi 2 m bo‘lganda ularning quvvati 80 kVt/m gacha etadi. To‘lqinlar energiyasini foydali ish koeffitsienti juda yuqori bo‘lib, bu miqdor mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirishda 85 % gacha bo‘lishi mumkin.

Qirg‘oqqa uriluvchi to‘lqinlar hamda ularning energetik xarakteristikalari.

Qirg‘oqqa kelib uriluvchi to‘lqinlarning energiyasi juda katta bo‘lib, u asosan to‘lqinning kinetik energiyasi hisoblanadi. Masalan, 1 m balandlikda va har 10 sekundda 1 mil (1 dengiz mili = 1853 m) uzunligida hosil bo‘ladigan to‘lqinlarning quvvati 35 000 ot kuchi (25 800 kVt) ga teng ekan.

Qirg‘oqqa uriluvchi to‘lqinlarning vayron qiluvchi energiyasi to‘g‘risida quyidagi misollarni keltirish mumkin. SHotlandiya qirg‘oqlaridagi pirs(ke-malar bog‘lab qo‘yiladigan joy) ga mustahkam o‘rnatilgan 1350 tonnalik temir-beton blokni sindirib qirg‘oqdan surib tashlagan. Uning

oʻrniga oʻrnatilgan boshqa 2600 tonnalik beton blokni ham 5 yildan sung sindirib surib tashla-gan. Injenrlar shu joyga uriladigan toʻlqinlarning kuchini oʻlchab koʻrganlar va natijada toʻlqinlarning




urilishi natijasida hosil boʻladigan bosim 29 t/m^2 ni tashkil qilishini aniqlaganlar. Bundan tashqari toʻlqinlar, 60 kg ogʻirlikdagi tosh boʻlagini, Oregon qirgʻogʻida 28 m balandlikda joylashgan mayak tomiga uloqtirgan.

Suvsathining koʻtarilib-tushish energiyasidan foydalanish asoslari.

Quyosh-Er-Oy planetalari bir toʻgʻri chiziqda joylashganda, kosmik sistemalarning tortishish kuchlari natijasida dengiz va okean suvlarining sathi koʻtarilib-tushadi (51-rasm). Suv sathining koʻtarilib-tushish jarayoni har 6 soatu 12 minutda roʻy berib turadi. Er sharining baʼzi nuqtalarida bu jarayon 12 soatu 25 minut yoki 24 soatu 50 minutni tashkil qiladi. Suvning koʻtarilishi bir kunda 50 minutga suriladi. Toʻliq bir sikl(koʻtarilib - tushish)ning davom etishi 29,53 kunga toʻfri keladi.

Ochiq denigiz va okeanlarda suv sathining koʻtarilib-tushish farqi 2 m dan oshmaydi. Ammo kurfazlarda, qoʻltiqlarda, daryolarning boshlanishi hamda dengiz va okeanlarga quyilish joylarida suv sathining koʻtarilib-tushish farqi 10-15 m ni va undan ham ortiq boʻlishi mumkin. Cuv sathining koʻtarilib-tushish davrida ularning maksimal miqdori Atlantik okeanining Kanada qirgʻoqlarida 18 m gacha, Fandi qoʻltigʻida 19,6 m gacha etadi. Sathlar tebraninshining katta miqdori La-Mansh bugʻozining baʼzi joylarida 15 m gacha, Oxota dengizida 13 m gacha, Barens va Oq dengizda 10 m gacha kuzatiladi.

Sathlarning koʻtarilib-tushishiga asoslangan elektstansiyan qurish uchun sathlar farqi 10 m ni tashkil qilishi zarur. Bunday joylar er sharida atigi 30 donani tashkil qilishi mumkin. SHuning uchun ushbu elektrostansiyalarni umumiy energetikadagi oʻrni unchalik sezilarli emas.




51-rasm. Quyosh, oy va yorning bir toʻgʻri chiziqda joylashishi.

Dunyodagi dengiz va okeanlar suv sathining ko'tarilib-tushishi natija-sida olinadigan energiya bir yilda 1,0 mlrd kVtni tashkil qiladi. Bu miqdor butun dunyodagi GESlar ishlab chiqaradigan. elektroenergiyadan 2,5 barobar ko'proqdir.

Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi.


Suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish uchun, suv sathi ko'tarilgan vaqtda dengiz havzasining biror kichraygan joyi (qo'ltiq-suv havzasi) bekitiladi (52-rasm). Suv qaytgan vaqtda dengiz va ajratilgan suv havzasi sathlari orasida ma'lum kattalikda bosim hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan bosim ostida har xil gidroturbinalarni ishlatib elektroenergiya olish mumkin bo'ladi. Dengiz sathining ikkinchi ko'tarilishida esa, ajratilgan suv havzasidagi suv sathidan dengiz suv sathi baland bo'ladi. Natijada yana ma'lum balandlikda bosim hosil bo'lib, gidro turbinalarni ishlashi uchun sharoit yaratiladi.



52-rasm. Okean va dengizlar sathining ko'tarilib-tushish energiyasidan foydalanish sxemasi: a- bo'ylama kesimi; b- plani.

Suv satxlarning ko'tarilib tushishiga asoslangan elektrostansiya-larning potensial energiyasi va unga mos bo'lgan o'rtacha yillik quvvat quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:


Bu erda: $A_{o'rt}$ – yillik o'rtacha suv satxlarning farqi; $K < 1$ – suv satxi o'zgarishiga nisbatan suv xavzasi maydonini o'zgarishini xisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsent; F – suv xavzasining yuzasi, km^2 .



56-rasm. Okean vadengizlardagi oqimlar

1772 yilda amerikalik olim Benjamin Franklin bu oqimni **Golfstrim oqimi** deb atashni taklif qilgan.

Golfstrim oqimi Meksika qoʻltigʻining oqova suvlari sifatida Floridaboʻgʻozida-yarim orolida hosil boʻladi. Bu oqimi $2160 \text{ m}^3/\text{kun}$ (er yuzidagi barcha daryolar sarfidan 20 barobar koʻp) hajmda YUktan bugʻozi orqali okeanga chiqadi va Antil oqimi bilan qoʻshiladi hamda 6-10 km/soat tezlikda Shimoliy Amerikaning Atlantika qirgʻoqlari boʻylab Nyufaundlend sayozliklari orqali shimoliy-sharqqa qarab harakatlanadi. Bu erda oqim, sovuq Labrador oqimi va shimoldan kelayotgan sovuq oqim bilan uchrashadi. Shundan sung Golfstrim oqimi, sharqiy yoʻnalishda Evropa qirgʻoqlari boʻylab harakatlanadi. Golfstrim oqimi Atlantika okeanining shimoliy qismi hamda Shimoliy muz okeanining yaqin qismiga tabiatiga va Evropa mamlakatlarining iqlimiga juda katta taʼsir koʻrsatadi.



56-rasm. Golfstrim oqimining yoʻnalishlari

Oxirgi vaqtlarda dunyo boʻylab, issiq Golfstrim oqimi sekinlashmoqda, sovumoqda va natijada okean qaʼriga kirib ketmoqda degan tashvishli xabarlar tarqalmoqda. Agar rostdan ham bu jarayon davom etayotgan boʻlsa, Evropa mamlakatlarining yillik temperaturasi oʻrtacha 12°S gacha pasayib ketishi kutiladi. Natijada Evropada kichik muzlik davri boshlanishi mumkin.

Reja:

1. QEMlardan foydalanish asoslari.
2. QEMdan foydalanish texnik muammolari.

1.QEMlardan foydalanish asoslari.

Insoniyat hayoti davomida tabiat tomonidan minglab yillarda to'plangan energiyadan foydalanib kelinmoqda. Bunda ushbu energiyadan foydalanish usullari, undan maksimal samaradorlik olish maqsadida doimo takomillashib kelmoqda. Energetika insoniyat hayotida doimo muhim rol o'ynaydi. Inson faoliyatining barcha turlari energiya sarfi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, inson o'zining evolyutsion rivojlanishining boshida inson faqat o'z tanasi mushaklarining energiyasidan foydalangan. Keyinchalik esa inson olov energiyasini olishni va undan foydalanishni o'rgandi. Insoniyat jamiyati evolyutsion rivojlanishining navbatdagi o'rami shamol va suv energiyasidan foydalanishga olib keldi va natijada birinchi suv va shamol tegirmonlari, suv charxpalaklari, o'z harakati uchun shamol kuchidan foydalanuvchi elkanli kemalar paydo bo'ldi. XVIII asrda o'tin yoki ko'mirni yoqish natijasida hosil bo'lgan issiqlik energiyasini mexanik harakat energiyasiga aylantiruvchi bug' mashinasi ixtiro qilindi. XIX asrda volt yoyi, elektr yoritish kashf qilindi. Elektro dvigatel, undan keyin esa elektr generator ixtiro qilinishlari elektr asri boshlanishiga olib keldi. XX asr insoniyat tomonidan energiya ishlab chiqarish va undan foydalanish usularini o'zlashtirish bo'yicha haqiqiy inqilobni amalga oshirish asri bo'ldi. YA'ni: juda yuqori quvvatli issiqlik, gidravlik va atom elektr stantsiyalar, yuqori va o'tayuqori va ultra yuqori kuchlanishga ega bo'lgan elektr energiyasini uzatuvchi liniyalar qurildi. Elektr energiyani ishlab chiqarish, o'zgartirish va uzatishning yangi turlari ishlab chiqilmoqda (boshqariluvchi termoyadro reaksiyasi magnit gidrodinamik generator, o'ta o'tkazuvchan turbogenerator va shunga o'xshash). Katta quvvatli energiya tizimlari barpo qilinmoqda, shu bilan birga katta quvvatli neft va gaz ta'minoti tizimlari paydo bo'lmoqda.

Shunday qilib bizni o'rab turgan dunyo turli ko'rinishdagi tuganmas energiya manbalariga egadir. Hozirda ularning ba'zilaridan, ya'ni: quyosh energiyasi, er va oyning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan energiya, termoyadrosintezi energiyasi, er issiqligi energiyasidan to'laonli foydalanilmayapti. Hozir inson tamaddunining rivojlanishida energiya hal etuvchi rol o'ynaydi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va energiya sarfi orasida uzviy o'zaro bog'liklik mavjud. Insoniyat hayotida energetika katta ahamiyatga ega. Uning rivojlanish darajasi, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini, ilmiy texnik taraqqiyotimkoniyatlarini va aholi turmush darajasini aks ettiradi.

Afsuski inson tarafidan iste'mol etilayotgan energiyani ko'p qismi, mavjud bo'lgan energetik resurslardan foydalanishning past samaradorligi tufayli befoyda issiqlikka aylanmoqda. Dunyoda bir yilda foydalaniladigan energiyaning tahminiy taqsimoti 1.1 – jadvalda keltirilgan. Bu jadvaldagi energiya qiymati, yoqilganda mavjud energiyani beruvchi ko'mir miqdorining megatonnalardagi (Mt) o'lchamida keltirilgan.

Dunyoda yillik energiya iste'moli

2.1 – jadval

Energiya shakli	Miqdori, Mt	Manba
Insonlarni boqish va ish hayvonlariga em	650	Quyosh yorug'ligi (hozirda)
O'tinlar	150	Quyosh yorug'ligi (o'tgan zamonda)
Gidroelektrstantsiyalar	100	Suv harakati
Ko'mir, neft, gaz, torf	6600	Quyosh yorug'ligi (o'tgan zamonda)

Shu bilan bir vaqtda insonlarni ozuqasi uchun har yili taxminan 400 Mt energiya sarflanadi, shundan 40 Mtga yaqini foydali mehnatga aylanadi. Xo'jalik zuriyatlariga 800 Mt, jamiyat ishlab-chiqarishiga esa 1000 Mt energiya sarflanadi.

Shunday qilib 7500 Mt ni tashkil etuvchi yillik energiya iste'molidan 2200 Mt foydali ravishda, qolgani esa issiqlik ko'rinishida bekorga sarflanadi. Lekin hatto 2200/7500 Mt samaradorlik bilan ham insoniyat maqtana olmaydi, chunki er yuziga quyoshdan taralayotgan va yiliga 10000000 Mt ni tashkil etuvchi energiya bu erda hisobga olinmagan.

Tamaddunning rivojlanishida energiya hal etuvchi rol o'ynadi. Energiya iste'moli va axborotning to'planishi, vaqt bo'yicha taxminan bir xil xarakterdagi o'zgarishga ega, mahsulot ishlab-chiqarish hajmi va energiya sarfi orasida mustahkam bog'liqlik mavjud.

Energiya iste'molining o'sishi ajablanarli darajada yuqori, lekin shuning natijasida, inson o'z hayotining sezilarli katta qismini dam olishga, maorifga, yaratuvchanlik faoliyatiga bag'ishlashi mumkin bo'ladi va natijada hozirda uzoq umr ko'rishga erishmoqda.

Biz energiyani zaruriy va bizga ishlash qobiliyatiga ega deb hisoblaymiz. Jamiyatni energiya bilan ta'minlash quyidagilarga bo'linadi, ya'ni: imoratlarni isitish, harakatni ta'minlash, bizga zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab-chiqarish, turli mashina, mexanizm, asbob-uskunalarini ishlash qobiliyatini ta'minlash, ovqat tayyorlash, yoritish, hayot faoliyatini ta'minlash va boshqalar uchun zarurdir.

Energiyani qo'llashning bu misollarini quyidagi uchta katta guruhlariga bo'lish mumkin:

2.QEMdan foydalanish texnik muammolari.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon tabiatdagi tabiiy energiya manbalari bo'lmish quyoshni, shamolni, suv manbalarini va boshqalarni kuzatib kelgan. Ularga sig'inib, ba'zilarini masalan, quyoshni, olovni xudo o'rnida ko'rganlar, ulardan foydalanish yo'llarini axtarganlar. Turar joylarni quyoshga qaratib qurish, quyosh nurida suv isitish, shamolda xirmon sovurish, shamol hamda suv tegirmonlari qurib ulardan foydalanish va boshqalar.

Mamlakatimizda birinchi bo'lib qaytalanuvchi energiya manbalaridan biri bo'lgan suv energiyasidan foydalanish, 1926 yili qurilgan Bo'zsuv gidroelektrostansiyasini ishga tushirishdan boshlandi [3]. O'tgan asrning 1987 yilida esa, 3 000⁰ S dan ortiq issiqlik to'playdigan dunyoda eng katta quyosh pechi ishga tushirildi [4]. Hozirgi kunda mamlakatimizning Samarqand viloyatida 400 gektar maydonga quvvati 100 000 MVt ga teng quyosh elektrostansiyasi uchun Osiyo taraqqiyot bankining investitsiyalari kiritil-di va qurilish ishlari boshlab yuborildi [5]. Kichik quvvatli quyosh energiya-tik qurilmalaridan respublikamizning barcha burchaklarida foydalanil-moqda [6]. SHamol energiyasidan foydalanish nazariyasi va usullari 1950 yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, Respublikamizda birinchi shamol energiya-tik qurilmalaridan 1983 yilda, Navoiy viloyati Tomdi tumani chorvador-lari foydalana boshlashdi. CHorva mollarining go'ngi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining qoldiqlari hisobiga biogaz ishlab chiqarish va undan foydalanish esa, 1987 yillardan boshlab amalga oshirila boshladi [7].

amlakatimizda noana'naviy va qayti tiklanuvchi energiya manbalariga qiziqish va ulardan foydalanish, misli ko'rilmagan tusda o'ziga xos ravishda tobora ommalashib bormoqda. Noana'naviy va qayti tiklanuvchi energiya manbalariga energetik ob'ektlar qurish va ulardan foydalanish uchun chet el va xalqaro banklarning investitsiyalari kiritilmoqda. Noana'-naviy va qayti tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida Prezidentimizning 1995 yil 28 dekabrda 476-sonli «O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish haqida»gi [8], 2001 yil 22 fevralda «Energetikada iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish to'g'risida»gi [9] hamda 2013 yil 1 martdagi «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [10] farmonlari qabul qilindi.

Noana'naviy va qayti tiklanuvchi energiya manbalariga quriladigan energetik ob'ektlarda loyiha-qidiruv ishlarini olib borish, loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun albatta chuqur bilimga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassslarni

tayyorlash taqoza etiladi. CHuqur bilimli bakalavr va magistrnlarni tayyorlash uchun esa, ularni o'zbek tilida tayyorlangan, zamon talabiga javob beradigan o'quv qo'llanmalari hamda darsliklar bilan ta'minlash zarur.

9-mavzu. QEM asosida energetikani rivojlantirishning samaradorligi va iqtisodiy oqibatlari. QEM resurslari.

Reja:

1.QEM asosida energetikani rivojlantirishning samaradorligi va iqtisodiy oqibatlari.

2.QEM resurslari.

1.QEM asosida energetikani rivojlantirishning samaradorligi va iqtisodiy oqibatlari.

Davlatimizning energiya tejash siyosati – bu qo'yidagi yo'llar bilan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha uzoq kelajakka mo'ljallangan tadbirlar majmuasidir:

- Jamiyat talabini zarur hajmini qoniqtirishda ohirgi (so'nggi) energiya sarfini qisqartirish;
- “Qazib olish, o'zgartirish – taqsimlash – foydalanish” tizimining har bir bosqichini takomillashtirish hisobiga energiya resurslaridan samarali foydalanishni oshirish;
- Zaxirasi chegaralangan energiya manbalarini (tabiiy gaz va neft) boshqa ancha arzon bo'lgan (ko'mir) va tiklanuvchi energiya manbalari bilan almashtirish;
- Ekologiya talablarini qondirgan holda, energiya resurslaridan foydalanishning energiya samaradorligini oshiradigan kelajagi porloq texnologiyalarni qo'llash.

Energiya tejashning davlat tomonidan rostlanadigan va amalga oshiriladigan tadbir majmuasi tizimining asosiy masalalari:

- Energiya tejash tadbirlarini amalga oshirishni rag'batlantirishga mos keladigan qonuniy, huquqiy - me'yoriy va uslubiy asoslarni hosil qilish;
- Elektr energiya ishlab-chiqaruvchilarni huquqiy va iqtisodiy jihatdan qiziqtiradigan mos sharoitlar bilan ta'minlash;
- Iste'molchilar tomonidan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasini va energiya tejamlash potentsialini aniqlash.

Energiya tejash, energetik sinovlar o'tkazish (korxonani loyihalash va ishga tushirish arafasida) natijalari asosida va mahsulot ishlab chiqarishda hamda xizmat ko'rsatishdagi haqiqiy solishtirma energiyasig'im, sarf-xarajatlarini solishtirma energiyasig'imning me'yoriy qiymatlari bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Har qanday ko'rinishdagi mahsulot ishlab-chiqarish va xizmatlar uchun sarf etilgan yoqilg'i energetik resurs (YO.E.R.)dan foydalanish samaradorligining darajasi, ishlayotgan va yaratilayotgan texnikaning mamlakatda erishilgan iqtisodiy oqlangan rivojlanish darajasiga to'g'ri kelishi kerak va bunda atrof-muhitni himoyalash talablari ham qondirilishi zarur. Bu daraja, mahsulot ishlab-chiqarish va xizmatlarni amalga oshirishdagi, haqiqiy solishtirma elektr sig'imi xarajatlarini, ularning me'yoriy qiymatlariga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda ba'zi tuzatishlarni ham hisobga olish zarur. Bu eng kam (minimal) solishtirma yoqilg'i sarfi ta'minlanishi kerak bo'lgan energetika korxonalari uchun katta ahamiyatga ega.

Energiya tejashning iqtisodiy samaradorligi, qazib chiqarishni tezlashtirish va energiyaresurslarni ishlab-chiqarishga nisbatan shunchalik kattaki, uni amalga oshirish bir vaqtda asosiy fondlarni yangilashni va modernizatsiya qilishni, iqtisodiy va sotsial muammolarni echadi, yoqilg'i va energiya ishlab chiqarishni, qazib chiqarishni ko'paytirish uchun sharoitlar yaratadi, agarda bu uzoq kelajakda talab etilsa ham. Bunda iste'molchida iqtisod qilingan bir tonna shartli yoqilg'i kamida 1,3-2 tonna qazib olingan shartli yoqilg'iga teng bo'ladi. Mutaxassislarning baholashi bo'yicha energiya tejam qilingandan olingan foyda unga qilingan sarfdan uch barobar yuqoridir.

SHu narsa ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy va mineral resurslari etishmovchiligi tufayli asosiy fondlarni keng yangilash va modernizatsiyalashni kon qazish ishlarini

va energiyaresurslarni ishlab chiqarishni ko'paytirishni amalga oshiradi, amalda energiya tejash siyosatini olib boradi, ekologik va sotsial muammolarni birgalikda va zarur masshtablarda echishni amalga oshiradi. Ammo bu masalani nazorat ostida ushlab turish, kerak bo'lgan huquqiy, me'yoriy xujjatlarni va majmuaviy davlat dasturlarini ishlab chiqish zarur. Mazkur ishlar hozirda bizning respublikamizda amalga oshirilmoqda.

2.QEM resurslari.

Ayni damda resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish kun tartibining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun muqobil energiyadan foydalanish to'g'ri qaror hisoblanadi. AQSH va Evropa davlatlarida quyosh energiyasidan foydalangan holda suv isitish texnologiyasi uzoq vaqtdan beri qo'llanilmoqda.

Evropa Ittifoqi davlatlarida quyosh energiyasidan foydalanish hajmi sezilarli darajada jadallashdi. Ayniqsa, iqlimi birmuncha issiq bo'lgan mamlakatlarda, xususan, Germaniya, Belgiya, Gretsiya, Italiya, Ispaniyada bu sohada ma'lum darajada tajriba ham to'plangan. SHuningdek, Xitoy, Turkiya, Lyuksemburg va Daniya kabi davlatlarda ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilyapti. Isroilda esa quyosh energiyasidan oqilona foydalaniladi. Mamlakatning istalgan hududidagi uylar tomlarida o'rnatilgan suv isitgichlari bunga yaqqol misoldir. Bunday maishiy ehtiyojdagi qurilmalar 150 litr sig'imli ega bo'lib, quyosh batareyasidan energiya olib, suvni isitadi. SHu tarzda bunday qurilma sohibi yiliga taxminan 2000 kVt/soat elektr energiyasini tejash imkoniga ega bo'ladi.

Jahonda keyingi 40 yilda aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi sezilarli darajada oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu davrda qazib olingan yoqilg'i miqdori butun insoniyat tarixi mobaynida ishlatilgan yoqilg'idan ham ko'proqni tashkil etadi. Bugungi kunda tabiiy yoqilg'i ishlatish miqdori dunyo bo'yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga to'g'ri keladi. Qazib olinayotgan neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran hozirgi vaqtda dunyodagi asosiy energiya manbalari hisoblanib, ulardan hozirgi darajada foydalanish davom etsa, mavjud neft zaxiralari 45-50 yilga, tabiiy gaz esa 70-75 yilga etadi, xolos.

SHu bois jahonda asta-sekinlik bilan bo'lsada, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tilmoqda. Ekologik toza bo'lgan bunday energiya manbalarining atrof-muhitga zarari ham kam. SHu bois, dunyo olimlari bu masalani nihoyatda dolzarb deb hisoblashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi barqaror rivojlanish uchun energiya muhimligini e'tiborga olib, o'tgan yilni "Barqaror energetika barcha uchun" xalqaro yili deb e'lon qilganligi ham fikrimizning dalilidir.

10-mavzu.QEM potensial boyliklari. KEM akkumulyasiya tizimlari.

Reja:


1.QEM potensial boyliklari.

2.KEM akkumulyasiya tizimlari.

1.QEM potensial boyliklari.

Hozirgi kunda energiya iste'mol qiluvchi barcha sohalarining organik yoqilg'ilardan foydalanishi tufayli atrof muhit ifloslanmoqda. Natijada tabiatning flora va faunasida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Odamlar va hayvonot dunyosida har xil yangi turdagi kasalliklar paydo bo'lmoqda. SHuning uchun insoniyat oldida turgan jiddiy muammolardan biri, barcha turdagi energiya iste'mol qiluvchilarni toza ekologik energiya bilan ta'minlashdir.

Ekologik toza energiyani faqatgina tabiatda mavjud bo'lgan energiya manbalaridan olish mumkin. SHuning uchun bunday manbalarni noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari deyiladi. Hozirgi kunda dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda energiyaning bunday turlaridan foydalanib har xil energiya turlarini ishlab chiqarishga kirishilgan [12] (7-rasm).



7- rasm. Jahonda energiya etkazib berish sxemasi.

Dunyodagi rivojlangan malakatlar foydalanayotgan noana'naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- quyosh energiyasi;
- shamol energiyasi;
- gidroenergetika(o'rta-, kichik- va mikrogidroenergetika);
- to'liqlar energiyasi;
- suv sathlarinig ko'tarilib-tushish energiyasi;
- okean va dengizlardagi har xil oqimlar energiyasi;
- geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
- biomassa energiyasi;
- shahar chiqindilari energiyasi;
- chorvachilik va parrandachilik fermalari chiqindilari energiyasi
- er ostidan issiqlik nasoslari orqali olinadigan energiya.

2.KEM akkumulyasiya tizimlari.

GESlarning yana bir turi, nasos va turbinalar bir-biriga joylash-tirilib ishlatiladigan **gidroakkumulyasion GESlardir**. Bunday GESlar-ning yuqori befi suv ombori yoki daryo bo'lishi mumkin.YUqori bef sifatida yuqorida joylashgan ko'l (oqmaydigan) yoki maxsus sun'iy qurilgan kichik suv ombori bo'lishi mumkin

Ma'lum balandlikda joylashgan tabiiy va sun'iy yig'ilgan suvdan elektroenergiya ishlab chiqaruvchi, ham turbina ham nasos joylashtrilgan energetik ob'ektga, suvni yig'uvchi (gidroakkumuliruyumiy) gidroelek-trostansiya (GAES) deyilad.

Bosimni bir joyga to'plashning ikki xil usuli mavjud: to'g'onli (27-rasm) va derivatsiyali (28-rasm). Bosim ostidagi suv energiyasini elektr energiyasiga aylantirish, gid-ravlik turbinalar

yordamida amalga oshiriladi. Turbinaning asosiy qismlari ridan biri - ish g'ildiragidir. Yuqori baf(YU.B.)dan bosim quvurlari orqali tushayotgan suv, ish g'ildiragi parraklariga urilib uni aylantiradi. Ish g'ildiragi o'qiga ulangan generatorning aylanishi natijasida elektroenergiya ishlab chiqariladi.

An'anaviy energiya resurslardan foydalanish, kislorodni yutishidan tashqari atrof muhitni sezilarli darajada ifloslanishga olib keladi. Energiya resurslarning cheklanganligi, ularni ishlatish, havo atmosferasining tarkibiga ta'sir etishi va atrof muhitga boshqa zararli ta'sirlari (chiqindilar hosil bo'lishi er qa'rini va er yuzasini buzilishi, iqlimning o'zgarishi) butun dunyoda noan'anaviy manbalarga bo'lgan yuqori qiziqishni uyg'otadi, bularga: quyosh energiyasi; shamol energiyasi; geotermal energiya; akkumlangan (yig'ilgan) issiqlik, dengiz va okeanlarning energiyasi; dengiz oqimi, dengiz to'liqlari, quyilish va orqaga qaytish ko'rinishidagi energiya; suv o'simliklaridan, qishloq xo'jaligi va shahar chiqindilaridan, biomassalardan foydalanish.

Hozir noan'anaviy energetikaning rivojlanishi unga ketadigan katta xarajatlar va bunday elektr stantsiyalarda ishlab chiqariladigan energiyaning tannarxi bilan cheklanmoqda.

Turli turdagi elektr stantsiyalarni iqtisodiy taqqosi (1991 y uchun) 7.1 -jadvalda keltirilgan.

Turli turdagi elektr stantsiyalarni iqtisodiy taqqosi

7.1- jadval

Elektr stantsiya turi	Qurilishga bo'lgan sarf xarajatlar, AQSH dol/kVt	Ishlab chiqarilgan energiyaning narxi, tsent/kVt-s
Ko'mirda ishlaydigan IES	1000-1400	5.2-6.3
AES	2000-3500	3.6-4.5
GES	1000-2500	2.1-6
SHES	300-1000	4.7-7.2
Oqib kelishi (OES)	1000-3500	5-9
To'liqli	13000 dan	15 dan
Quyosh	14000 dan	20 dan

Iqtisodiy jihatdan maqbuli, bu solishtirma kapital xarajatlar 2000 AQSH dol/kVt gacha bo'lgan elektr stantsiyalarni qurish.

Noan'anaviy tiklanuvchi energiya manbalar solishtirma quvvatini an'anaviy manbalar bilan taqqoslash 7.2 jadvalda keltirilgan .

Qayta tiklanuvchi noan'anaviy energiya manbalar solishtirma quvvati

7.2.- jadval

Manba	Quvvat, Vt/m ²	Ilova
Quyosh	100-250	
SHamol	1500-5000	8-12 m/s tezlikda lekin ko'proq bo'lishi mumkin
Geotermal issiqlik	0.06	
Okeanning shamol to'liqlari	3000 Vt/pog.m	1000 Vt/pog.m ga etishi mumkin
Taqqoslash uchun ichki yonuv dvigateli	100 kVt/l atrofida	
Turboreaktiv dvigatel	1 MVt/l gacha	
YAdro reaktori	1 MVt/l gacha	

11-mavzu.Qaytalanmas energiya manbalari. Energetik boyliklar. Organik yoqilg'ilar.

1. Qaytalanmas energiya manbalari.
2. Energetik boyliklar. Organik yoqilg'ilar.

1. Qaytalanmas energiya manbalari.

Dunyoda energetika muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib, bugungi kunda energetika sohasi bo'yicha shug'ullanayotgan olimlarning kun tartibida turibdi. XXI asr fan taraqqiyoti yuksalib texnik - texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga insonni normal yashash imkoniyatini yaratish, uni yetarli energiya, oziq-ovqat bilan ta'minlash asosiy masalalardan biridir. Hammaga ma'lumki, yer qazilma boyliklarining energetik zahirasi kamayib bormoqda. Ammo, unga bo'lgan ehtiyoj ortib, hozirgi kunda yer yuzida aholi soni yetti milliardga yetdi. Insoniyat foydalanayotgan energetika manbalarining quyidagi turlari mavjud: neft, ko'mir, gaz, atom, biomassalar, suv, quyosh, shamol, geotermal energiyalar. Bu energiya manbalarini o'z navbatida ikki turga bo'lish mumkin. Biomassalar, suv, quyosh, shamol, geotermal energiya – *yangilanuvchi*; neft, ko'mir, gaz, atom energiyasi – *yangilanmaydigan*. Bu resurslardan olingan energiya elektr energiyasi, kommunal xizmatlarga (binolarni isitish, issiq suv bilan ta'minlash) sarflanadigan energiya kabi ko'rinishlarda bo'ladi. 2008-yilda jahon bo'yicha energiya iste'moli 15 TW (terawatt, 10^{12} w) ga teng bo'ldi, buni ta'minlashda har yilgidek yangilanmaydigan energiya resurslari katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Lekin keyingi 10-20 yil ichida yangilanadigan resurslarning ham ulushi ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi diagrammada jahon energiya ta'minoti keltirilgan.

Yangilanmaydigan resurslarning tanqisligi va narx jihatdan qimmatligi sababli, ko'pgina davlatlar yangilanadigan resurslar orqali o'zlarining energiya iste'molini ta'minlashga harakat qilishmoqda. Shu boisdan quyosh energiyasini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yer atmosferasiga yiliga quyoshdan 120 000 TW (terawatt, 10^{12} w) energiya kelib tushadi. To'g'ri, bu energiya hammasini ham o'zlashtirish mumkin emas, lekin uning 0,002% i ham jahonning energiyaga bo'lgan ehtiyojini butunlay qoplashga yetadi. Quyosh energiyasidan foydalanish davlatlar uchun ko'p jihatdan foydalidir. Birinchidan, energiya bu turi mutlaqo tekin. Ikkinchidan, quyoshdan energiyani katta stansiyalar qurish orqali ham, kichik xo'jalik tarmoqlari yaratish yordamida ham olish mumkin. Uchinchidan, quyosh energiyasini olish mutlaqo zararsiz bo'lib, u atmosfera va gidrosferaga umuman zarar yetkazmaydi. To'rtinchidan, quyosh energiyasini faqatgina elektr energiya olishda emas, kommunal xizmatlar (uyini isitish yoki issiq suv bilan ta'minlash)da ham qo'llash mumkin. Shuning uchun ham ko'pgina davlatlar quyosh energiyasidan keng qamrovli ko'rinishda foydalanishga harakat qilishmoqda. Fikrimizning dalili sifatida, quyosh energiyasidan foydalanishdagi yillik o'rtacha o'sish 35 % ni tashkil etayotganligini ko'rsatishimiz mumkin. Lekin shunga qaramay, quyosh energiyasining butun jahon bo'yicha tezda ommalashmayotganligining asosiy sababini quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin: quyosh energiyasi kechqurunlari va qish oylarida birmuncha kamayadi, vaholanki aynan shu vaqtlarda energiyaga katta ehtiyoj seziladi; quyosh energiyasidan foydalanishda qutblarga yaqin joylashgan davlatlar ekvatorga yaqin joylashgan mamlakatlardan ko'ra kam manfaat ko'radilar hamda quyosh energiyasi hozirgi kunlarda to'la ommalashmaganligi uchun boshqa energiya turlaridan birmuncha qimmatroqdir.

Keyingi davrlarda yanada keng ommalashayotgan hamda 70 dan ortiq mamlakatlarda foydalanib kelinayotgan energiya turlaridan yana biri bu – geotermal energiyadir. 2007-yilda 10 GW elektr energiyasi va 270 PJ issiqlik energiyasi geotermal energiya hissasiga to'g'ri keladi. Energiyaning bu turi bir qator afzalliklarga ega: tekin, quruqlikning istalgan maydonidan olinishi mumkin, suv va havoni ifloslantirmaydi hamda energiya bu turi kichik turdagi korxonalar tomonidan olinadi.

Energiya iste'moli jahon bo'yicha turlicha taqsimlangan. Yaponiya va Germaniyada har bir kishiga 6 kW, AQSH da 11,4 kW, Hindistonda esa 0,7kW. Bangladeshda esa bu ko'rsatkich eng past – 0,2 kW ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlar butun dunyo energiyasining asosiy

iste'molchisidir. Xususan, AQSH jahon energiyasining 25 % ini iste'mol qiladi. Lekin keyingi 10-20 yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlardagi energiyaga bo'lgan iste'molning o'sishini kuzatishimiz mumkin. Birgina Xitoyda energiyaga iste'moli yiligi o'rtacha 5,5% lik ko'rsatkich bilan o'smoqda:

Tiklanmaydigan resurslardan ko'mirning ahamiyati ortib bormoqda. Chunki ko'mirning zahiralari ancha arzon, keng tarqalgan, ya'ni 909 mlrd. tonna atrofida va bu zahira ko'mirga bo'lgan ehtiyojni yana 45 yilga qondira oladi hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uning asosiy iste'molchisidir. Ulardagi energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan ko'mirga bo'lgan talab ham yiliga o'rtacha 2 % dan ko'tarilmoqda. Lekin ko'mirning yoqilishidan CO₂, SO₂, NO_x kabi gazlar hosil bo'ladi. CO₂ gazi global isishga sabab bo'lmoqda, SO₂ gazlar kislotali yomg'irlarni keltirib chiqarmoqda, NO₂ gazlar esa ozon qatlamining yemirilishida qatnashadi. Shuning uchun ham ko'mirdan foydalanish qattiq tanqid qilinmoqda hamda boshqa muqobil energiya turlariga o'tish yoki yangi turlarni kashf qilishga katta e'tibor qaratilgan.

Xususan, Yevropa Ittifoqi 2009-yilda 9 % energiyani yashil energiya manbalaridan olgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 % ga, 2030-yilga kelib 33 % ga ko'tarilishi rejalashtirilmoqda. Daniya va Germaniya esa o'zining noqulay geografik joylashuviga qaramasdan quyosh energiyasiga katta miqdorda investitsiya kiritmoqda. 2009-yilda yashil energiya sohasiga jami 140 mlrd \$ investitsiya kiritilgan bo'lib, bu an'anaviy energiya manbalariga qaraganda 30 mlrd \$ ga ortiq demakdir. Ularning 30 % dan ortig'i Yevropa va Angliya hissasiga to'g'ri keladi.

Yaqin kunlarga xavfsiz deb kelingan energiya turlaridan biri bu atom elektrostansiyalaridir. Xalqaro agentlikning ma'lumotlariga ko'ra, 1982-yil boshida dunyo bo'yicha 272 ta atom elektrostansiyasi ishga tushirilgan bo'lgan va ular umumiy elektr energiyasining atigi 3 foizini ishlab chiqargan.

1990-yillarda kelib atom elektr stansiyalari (AES) soni 423 taga yetdi. 2000-yilda atom elektr stansiyalari (AES) dunyoda ishlab chiqariladigan umumiy elektr energiyaning chorak qismini ishlab chiqarishi taxmin qilingan.

Atom elektr stansiyalari (AES) lardan foydalanish dunyoda har yiliga 400 million tonna neftni tejash imkonini beradi. Bu Saudiya Arabistonida har yiliga qazib olinadigan neft miqdoridan qariyb 2 marta ko'pdir.

O'z vaqtida atom energetikasining mutlaqo xavfsizligi afsonaga aylangan edi. Chernobildagi avariya, bu afsonaga bir qadar chek qo'ydi. Endilikda uning sha'niga teskari fikr, atom stansiyasi "do'zax dahshati" degan tamg'a yopishtirilmoqda. Bu ham haqiqatdan uzoq, ammo xavf katta emas. Chernobil atom elektr stansiya (AES) dagi avariya undagi xodimlarning qo'pol xatosi tufayli paydo bo'ldi. Lekin Yaponiyaning Fukosima shahrida joylashgan AES ning avariya uchraishi butun dunyo olimlarini ushbu energiya turidan amalda foydalanishga chek qo'yish lozimligini isbotlab berdi.

Xalqimizda arzon sho'rva tatimas, degan maqol bor, "arzon" energiya bizga juda qimmatga tushishi mumkin.

Yana bir muammo radioaktiv chiqindilarni saqlashdir. Atom elektr stansiya (AES) lar territoriyasida chiqindilar saqlanadigan maxsus joylar "go'rlar" mavjud. Biroq, ularni mutlaqo xavfsiz deyishga e'tirozlar bor.

Eng istiqbolli energiya manbalariga mutaxassislar vodorodni energiyasini kiritishdi, uning zahiralari bizning sayyoramizda amalda cheklanmagan. Vodoroddan energiya manbai sifatida keng foydalanish atrof-muhit tozaligini saqlashga imkon beradi, chunki uni yoqish jarayonida faqat distillangan suv hosil bo'ladi. Odatdagi suvdan sanoat miqyosida vodorod olishning bir necha usullari allaqachon izlab topilgan. Vodorodni sanoatda olish uchun atom elektr stansiyalari, Quyosh va dengiz suvlarining ko'tarilish energiyalaridan foydalanish taklif etilgan.

Hozirda issiqlik nasoslari deb ataluvchi prinsipial yangi energiya manbaidan foydalanish amalga oshirilmoqda. Issiqlik nasoslaridan freon gazi yordamida atrof-muhitga tarqalgan issiqlik

amalda foydalanish uchun to'plab olinadi. Atrof- muhitdan to'plangan energiya, issiqlik nasoslarini ishlatish uchun sarflangan energiyadan bir necha marta ko'p bo'ladi. Shunday qilib, energiyaning saqlanish qonuni buzmasdan, issiqlikning atrof- muhitdan kondensatsiyalanishi hisobiga ishlaydigan "doimiy dvigatel" ga o'xshash moslamalar yaratilgan. Bu moslama atrof-muhit harorati yetarlicha yuqori bo'lganiga qadar ishlay oladi. Energiyaning yana bir yangi turi termoyadroviy energiyadir. Termoyadroviy energiya vodorod geliyga aylantirilganda ajratib chiqadigan energiyadan inson ehtiyoji uchun foydalanishga asoslangan. Termoyadroviy elektr stansiyalar atom elektr stansiyalariga qaraganda ancha "toza", "xavfsiz" bo'ladi. Biroq bunday elektr stansiyalarini qurish uchun juda murakkab va qimmatbaho jihozlar kerak bo'ladi, chunki termoyadroviy reaksiyalar faqat plazma (moddaning 4-agregat holati) da boradi. Biroq, shunga qaramasdan kelajak enargiyasi ana shu elektr stansiyalarniki deb tahmin qilinmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirda katta ahamiyatga ega bo'lgan yangilanmaydigan resurslar keyinchalik o'z qiymatini yo'qotadi. Buning asosiy sababchisi bo'lib ularning cheklanganligi, miqdor jihatdan kamayishi tufayli vaqt o'tishi bilan qimmatlashuvi hamda ekologik jihatdan ancha xavfli ekanligi xizmat qiladi. Yangilanadigan resurslardan energiya olish yildan-yilga ommalashadi va bu o'z navbatida ularning narxi tushishini ta'minlaydi. Biz bularning amaldagi isbotini so'nggi yillardagi energetika sohasidagi tendensiyalarda ham ko'rishimiz mumkin. Keyingi 30-40 yil ichida energetikada alternativ energiya manbalarining ulushi ortib borishi kuzatiladi degan xulosani berish uchun barcha asoslarga egamiz.

2.Energetik boyliklar. Organik yoqilg'ilar.

Hozirda hatto o'zining ixtiyorida yetarlicha organik yoqilg'i resurslari bo'lgan va elektr stansiyalari ancha zahira quvvatiga ega mamlakatlar (Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Norvegiya, Shvetsiya va boshqalar) ham shamol energetikasini rivojlantirish uchun ancha mablag' ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Chunki shamol elektr stansiyalar texnologiyasi ekologik jihatdan toza, iqtisodiy jihatdan foydali va kam joyni egallashi bilan qulaydir.

Amerika Qo'shma Shtatlarining Janubiy Kaliforniya shtatida 20 ming dona shamol agregatlari ishlaydi. Ular ishlab chiqaradigan elektroenergiya qariyb 2 ta atom elektr stansiyalarining ishlab chiqargan elektr energiyasiga teng. Shamol elektr stansiyalarining kelajagi porloq. Hozirgi vaqtda shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqarilayotgan **1 kilovatt soat energiyaning tannarxini Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) da 0,07 dollarga** kamaytirishga erishildi. Shamol elektr stansiyalarini **shamolning tezligi 20 kilometr/soat** bo'lgan joylarda o'rnatish yaxshi natijalar beradi. Bunday hollarda 1 kilovatt soat elektr energiyaning tannarxi 0,05 dollardan oshmaydi.

Shamol energiyasi bitmas-tuganmasdir. Shuning uchun bugungi kunda u dunyo energetikasining bir qismi bo'lib, uning ahamiyati kelgusida shubhasiz, o'sadi.

Hamimiz bolalikdan o'rgangan sodda bir topishmoq bor: "Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar". Bu nima deb jajjigina qizaloqdan so'rasangiz ham darhol shamol deydi. Darhaqiqat, issiq-sovuq va boshqa ta'sirlar natijasida havo harakatining turli tezlik va holatlarda namoyon bo'lishini ana shu umumiy nom bilan ataymiz. YAxshi bilasizki, shamol kuchli va kuchsiz, yoqimli va yoqimsiz, zararli va bezarar bo'ladi. SHunday xususiyatlariga ko'ra nomlanishi ham turlicha: shabada, shabboda, yel, nasim, sabo, shamol, dovul, bo'ron, qyun, garmsel, izg'irin... SHabboda, nasim, sabo she'riy nutqqa xos bo'lib, yengil, huzurbaxsh shamol ma'nosini anglatadi. Sabo faqat tong paytida esadigan mayin yel. Dovul va bo'ron nihoyatda kuchli shamol bo'lib, foydasidan zarari ko'proq: ba'zan dov-daraxtlarni sindiribgina qolmay, ildizi bilan qo'porib tashlaydi, binolarning tom yopilmalarini uchirib ketadi. Bo'ronning o'ta vayronagarchilik keltiradigan xillari ham bor. Garmsel va izg'irin esa qarama-qarshi ma'noli so'zlardir. Biri jazirama payti gohida bir necha kunlab chang-to'zon bilan davom etadigan, kishining tinka-madorini oladigan, ekinlarni so'litib, qovjiratib qo'yadigan issiq shamolni anglatadi. Ikkinchisi esa ayozli kunlar achchiq sovug'i butun

vujudingizni qaqshatib yuboruvchi, ignaning ko'ziday teshikdan tuyaday sovuqni olib kiruvchi yoqimsiz turidir.

Darhaqiqat, shamol tizginsiz kuch, juda katta tabiiy energiya manbai. Bu manba vaqti-vaqti bilan doim yangilanib turadi, shu sababli bitmas-tuganmasdir. Undan ham mexanik, ham elektr, ham issiqlik energiyasi hosil qilish mumkin. Qadimdayoq ko'pgina mamlakatlarda qurilgan shamol tegirmonlarining ishlashi mexanik energiyaga asoslangan.

Fan-texnika taraqqiyoti shamol quvvatidan elektr energiyasi olish imkonini ham berdi. Bu boradagi ishlar o'tgan asrdayoq boshlab yuborilgan bo'lsa ham dunyoda shamol elektr stansiyalari qurilishiga endi e'tibor kuchaymoqda. Hozir 55 mamlakatda shamol elektr energiyasi ishlab chiqarilayapti. Bu borada ayniqsa, yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiq. SHamol energiyasidan foydalanish allaqachon energetika sohasining muhim tarmog'iga aylangan. MDH davlatlari orasida Belarus respublikasida ham shamol quvvatidan elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish choralari ko'rilmogda.

SHuni aytish kerakki, shamol elektr energiyasi ishlab chiqarish kam xarajatli, ekologik jihatdan xavfsiz, istiqboli porloq bo'lsa ham faqat ana shu yo'l bilan olingan energiya bilan talab va ehtiyojni qondirishning mutlaqo imkoni yo'q. Muqobil energiyaning bu manbai qo'shimcha elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi, xolos. Chunki har doim ham shamol bo'lavermaydi. Qolaversa ko'pgina joylarda shamolning tezligi talabga javob bermaydi. SHu sababli mutaxassislar shamol elektr stansiyalarini boshqa muqobil stansiyalar bilan birga, navbati bilan ishlatishni taklif qilmoqdalar.

YUrtimizda muqobil energiya manbalari qatorida shamol quvvatidan foydalanish borasida ham muayyan darajada izlanishlar olib borilmoqda. Iqtidorli yoshlarimizning ba'zi vakillari yaratgan shamol elektr uskunalari bu fikrimizga dalil bo'la oladi.

Xullas shamol ko'p esadigan joylarda tajriba tariqasida bo'lsa ham uncha katta bo'lmagan shamol elektr qurilmalari o'rnatilib, qay darajada samara berishi sinab ko'rilsa, yomon bo'lmasdi. Agar shunday uskunalar sinovdan muvaffaqiyatli o'tsa, rezerv energiya manbaiga aylanishi, an'anaviy usulda ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatini tejashga xizmat qilishi mumkin.

12-mavzu. Neft yoqilg'isi. Sintetik neft mahsulotlari. Tabiiy gaz. Ko'mir

Reja:

1. Neft yoqilg'isi. Sintetik neft mahsulotlari.

2. Tabiiy gaz. Ko'mir

Dunyo energetikasi yoqilg'i asoslarini, yoqilg'i sanoatining 4 tarmog'i tashkil qiladi

Neft sanoati.Hozirgi kunda neft sanoati dunyo yoqilg'i - energe-tika sanoatining etakchi tarmog'i hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda neft zahiralari 86 % ni, qazib olish esa 50 % ni tashkil qiladi. Eng katta neftga boy rayonlarni Fors qo'ltig'i regionini va Rossiya tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyoning 80 mamlakatida neft qazib olinadi. Eng katta neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga Saudiya Arabistoni, AQSH, Rossiya, Eron, Meksika, Xitoy va Venesuelalar kiradi. Neft ishlab chiqaruvchi va neft mahsulotlarini iste'mol qiluvchi mamlakatlar o'rtasida juda katta masofa mavjud. Neft va neft mahsulotlarini bir mamlakatdan ikkinchisiga etkazib berish uchun katta masofalarga katta diametrli sifatli po'latdan tayyorlangan quvurlar qo'llaniladi.

Tabiiy gaz. Ko'mir

Gaz sanoati.Gaz sanoati o'tgan asrning 50 yillaridan rivojlana boshladi. Dunyo bo'yicha gaz iste'mol qilish, umumiy iste'mol qilinadigan energetik resurslarning 20 % ni tashkil qilib, neft va toshko'mirdan sung 3 o'rinni egallaydi. Ekologik jihatdan gaz eng toza energoresurs hisoblanadi. Tabiiy gaz

Tosh ko'mir sanoati. Toshko'mir sanoatining energetika sohasidagi o'rni kamayib borishiga qaramasdan hozirgi kunda ushbu sanoat, dunyo energe-tikasida etakchi o'rinlarni egallaydi. Neft va gaz sanoatiga qaraganda tosh-ko'mir sanoati zahiralari bilan yaxshi ta'minlangan.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, yaqin o'n yillikda elektrostansiyalarning yoqilg'iga bo'lgan talabining 40 % toshko'mir sanoati bilan qondiriladi. Bu kabi o'zgarishning asosiy sabablaridan biri, toza ko'mir qazib olish va foydalanish texnologiyasining mukammallashtirilganligi tufayli, elektrostansiyalarning atrof-muhitga chiqarayotgan zararli chiqindi gazlarning kamaytirilganligidir.

Toshko'mirning dunyodagi zahiralari 1,2 trln. tonnani tashkil qiladi. Uning 66 % AQSH, MDH mamlakatlari, Fransiya, Germaniya va Avstraliya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda joylashgan.

Ko'mir qazib chiqari bo'yicha Xitoy, AQSH, Rossiya, Polsha, Hindiston, Avstraliya, Germaniya, SHimoliy Afrika Respublikasi, Ukraina va Qozoqston mamlakatlari dunyoda etakchi o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Neft va gazga qaraganda toshko'mir atigi 8 % eksport qilinadi. Eksport asosan AQSH, Avstraliya va MDH mamlakatlaridan qilinadi. Asosiy import qilinadigan mamlakatlar - Yaponiya, Koreya Respublikasi, Italiya, Kanada, Fransiya, Gollandiya, Angliya, Germaniya va Braziliya hisoblanadi.

Hozirgi kunda er yuzidagi 30 mamlakatda atom elektrostansiyalari bo'lib, ular umumiy iste'mol qilinadigan elektroenergiyaning 17 % ni ishlab chiqadi.


Yer yuzidagi atom elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati 360 GVtni tashkil qiladi. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar - AQSHda 98 GVt, Fransiya 63 GVt, Yaponiyada 44 GVt, Angliyada 13 GVt, Rossiyada 20 GVt va Germaniyada 22 GVt elektroenergiya ishlab chiqiladi.

Xalqaro MAGATE tashkilotining ma'lumotiga qaraganda AES lar uchun yadroyo qilg'isi zahiralari hech qanday muammo tug'dirmaydi. YAdro yoqilg'isi xom ashyosi - boyitilgan uranning zahiralari dunyodagi barcha AESlarni 3000 yil to'xtovsiz ishlashiga etadi. 3-jadval. Dunyodagi elektrostansiyalarning o'rnatilgan quvvati.

Dunyodagi 50 mamlakatda uran rudasi resurslari mavjud, ammo uni faqatgina 25 mamlakat ishlab chiqaradi. Uran qazib olish bo'yicha Kanada (yiliga 8500 tonna), Avstraliya (6500 tonna),

Elektrostansiya turlari	Yillar							
	1990		2000		2010		2020	
	GVt	%	GVt	%	GVt	%	GVt	%
Gazli issiqlik elektrostansiyalari	481,4	17,0	716,2	20,0	979,0	22,0	1635,0	30,2
Mazutli issiqlik elektrostansiyalari	424,5	15,0	501,2	14,0	578,0	13,0	293,0	5,4
Ko'mirli issiqlik elektrostansiyalari	933,9	33,0	1146	32,0	1424,0	32,0	1928,0	35,6
GES va qaytalanuv- chi energiya manba- lari	650,6	23,0	823,4	23,0	1024,0	23,0	980,0	18,1
AES	339,6	12,0	393,6	11,0	445,0	10,0	580,0	10,7
Dunyo bo'yicha hammasi	2830	100	3580	100	4450	100	5416	100

Namibiya va Nigeriya (har qaysisi 2900 tonnadan) hamda Rossiya (2600 tonna) mamlakatlari etakchi o'rinlarni egallaydilar. Uran xomashyosini qazib olish uchun 1 kg ga 40 dollar xarajat qilinadigan dunyo zahiralari 1,32 mln. tonnani tashkil qilsa, 1 kg ga 130 dollar xarajat qilinadigan zahiralari 4 mln. tonnani tashkil qiladi. Dunyodagi barcha AESlarni ishlashi uchun 64 ming tonna uran talab qilinadi.



1- rasm. Umumiy quvvati 5416 GVt bo'lganda dunyo elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati strukturasi to'g'risidagi bashorat (2020 yil).

2- jadvalda dunyodagi elektrostansiyalarning o'rnatilgan quvvati hamda 2-rasmda umumiy quvvati 5416 GVt bo'lganda dunyo elektrostansiyalarining o'rnatilgan quvvati strukturasi to'g'risidagi 2020 yil uchun bashorat diagrammasi keltirilgan.

Zahiralari bo'yicha MDH mamlakatlari, Osiyo, Rossiyava Eron etakchi o'rinlarni egallaydilar.

Dunyo bo'yicha gaz qazib olish yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda qazib olinadigan gazning hajmi 4,0 trl.m ga etib qoldi. Gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi o'nlikka Rossiya, AQSH, Kanada, Turkmaniston, Gollandiya, Fransiya, O'zbekiston, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni mamlakatlari kiradi.

Gaz yoqilg'isi asosan G'arbiy Evropa, YAponiya va AQSH mamlakatlariga eksport qilinadi.

13-mavzu. Suv energiyasi. Suv energiyasidan foydalanish sxemalari.

Reja:

1. Suv energiyasi.
2. Suv energiyasidan foydalanish sxemalari.

1.Suv energiyasi.

Suv energiyasi. Hidroelektrostansiyalar (GES) - gidrotexnik inshootlar va energetik jihozlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning yordamida suv oqimi energiyasi elektroenergiya aylantirib beriladi. GESlarni kurish natijasida ham atrof muhitga zarar etkaziladi: daryolar oqimi to'silishi bilan ularning o'zani o'zgarib ketadi, juda katta maydon suv ostida qoladi, flora va faunaga katta zarar etkaziladi. Issiqlik energetikasiga qaraganda suv oqimi energiyasining asosiy xususiyatlaridan biri, uning qaytalanib turishidir [19, 29, 62, 63] (3-rasm).

GESlarning yana bir turi, nasos va turbinalar bir-biriga joylash-tirilib ishlatiladigan **gidroakkumulyasion GESlardir**. Bunday GESlar-ning yuqori befi suv ombori yoki daryo bo'lishi


mumkin. Yuqori baf sifatida yuqorida joylashgan ko'l (oqmaydigan) yoki maxsus sun'iy qurilgan kichik suv ombori bo'lishi mumkin

To'lqinlar energiyasi. To'lqinlar energiyasi ikki turga bo'linadi: to'lqinlar energiyasi va suv sathining ko'tarilib-tushish energiyasi. Okean va dengizlardagi to'lqinlar energiyasidan foydalanish, K.E.Sialkovskiy tomonidan 1935 yilda taklif qilingan.

1985 yilda dunyoda birinchi marta Norvegiyada 850 kVt quvvatli to'lqinlar elektrostansiyasi ishga tushirilgan. Hozirgi kunda dunyodagi barcha to'lqinlar elektro-stansiyalari ishlab chiqaradigan quvvat, dunyoda ishlab chiqariladigan quvvatning 1 % ni tashkil qiladi. Kam quvvat ishlab chiqarilishining asosiy sababi, uning juda qimmatligidir.

Balanddan tushib suv g'ildiragini aylantirayotgan suv energiyasidan qadim zamonlardan tegirmon toshlarini aylantirishda va boshqa maqsadlarda qo'llanilgan. Birinchi marta 1882 yilda GESlarda, suv energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanilgan. Gidroenergetik qurilmani ishlash tarzi juda sodda.

Yuqoridan tushayotgan suvning kinetik energiyasi 21-rasm.



Gidroagregat: elektrogeneratorga ulangan turbina valini **1** - gidroturbina; aylantirishda foydalaniladi (21-rasm). **2** - gidrogenerator.

GES «tekin yokilg'i»da ishlaydi: quyosh energiyasi suvni bug'lantiradi (okean, dengiz, daryo, suv omborlari, kanallar va boshqalardagi suv yuzasidan); havo oqimlari suv bug'larini bir mintaqadan ikkinchisiga surib keladi; suv bug'lari yomg'ir va qor shaklida yana erga qaytib tushadi. Er yuzasiga tushgan suvning bir qismi yana bug'lanib ketadi, qolganlari yig'ilib, foydalanilgandan sung yana daryolar hamda dengizlar orqali yana dunyo okeaniga qaytib ketadi.

Birinchi gidrokuch qurilmalaridan IX asrdan boshlab foydalanilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. XVIII asrning boshlarida gidrokuch qurilmalaridan ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida foydalanish avj olib ketdi. Masalan, XVIII asrning oxirlarida Rossiyada gidrokuch qurilmalari bilan ishlaydigan zavodlarning soni 3000 donadan oshib ketgan. Gidrokuch qurilmalari suv g'ildiraklari shaklida bajarilib, undan hosil bo'ladigan mexanik kuch harakatga keltiriladigan mashinalarga tasmalar, keyinchalik tishli uzatmalar orqali uzatilgan. Ularda kamchiliklar juda ko'p bo'lgan: quvvati kichik, konstruksiyasi juda katta, foydali ish ko'effitsienti juda kichik bo'lgan. Eng asosiysi, ulardan foydalanadigan korxonalar suv manbalari qirg'oqlariga qurilgan va manbadagi suvning sathi hamda sarfiga bog'liq bo'lgan.

XIX asr boshlarida esa suv manbalari qirg'og'iga o'rnatilgan gidrokuch qurilmalari o'rniga bug' mashinalari qo'llanila boshladi. Bug' mashinalarini harakatga keltirish uchun ham yoqilg'i manbasi zarur edi. Yoqilg'i manbasi bo'lmagan joylarda ularni qo'llashni imkoni yo'q edi, chunki u vaqtda transport vositalari juda kuchsiz edi. Bundan tashqari bug' mashinalarini ekspluatatsiya qilish, gidrokuch qurilmalarini ekspluatatsiya qilishga nisbatan qimmatroq edi. Ammo bug' mashinalarini hohlagan joyda o'rnatish imkoni borligi tufayli, ular gidrokuch qurilmalari-suv g'ildiraklarini siqib chiqardi.

Taniqli olimlardan D.Bernulli, YA.Segner va L.Eylerlar yangi turdagi suv g'ildiraklarining nazariyasini ishlab chiqdilar. SHundan sung olimlar tomonidan yangi turdagi gidrokuch qurilmalarining juda ko'p konstruksiyalari ishlab chiqildi va ular gidravlik turbinalar deb atala boshladi. Gidravlik turbinalar, gidrokuch qurilmalari-suv g'ildiraklariga nisbatan ixchamligi va quvvatliroqligi bilan ajralib turardi.

Birinchi reaktiv gidravlik turbina, 1837 yili rus gidrotexniki I.E. Safonov tomonidan tayyorlandi. Uning FIK 53 % ga, keyinchalik qurilgan ushbu turdagi turbinaning FIK 70 % ga etkazildi. 1881 yili Pelton aktiv (cho'michli) turbinaning konstruksiyasini ishlab chiqdi. Ammo bu turbinalar ham o'zlari hosil qilgan mexanik energiyani iste'molchilarga uzatar edi. Hali gidravlik energiyani mexanik energiyaga sungra elektr energiyaga aylantirib iste'molchiga uzatish ishlab chiqilgan emas edi.

1887 yili F.A. Pirotskiy birinchi marta gidroelektrostansiyalar to'g'risidagi g'oyasini e'lon qildi. Ammo hali o'zgaruvchan elektr toki ishlab chiqishga va uni uzoq masofalarga uzatish yo'lga qo'yilmagan edi.

1888 yili rus injeneri M.O. Dolivo-Dobrovolskiy uch fazali tok tizimini yaratdi. 1891 yili esa u, Germaniyadagi Nekkar daryosiga gidrokuch qurilmasini o'rnatib, 300 ot kuchiga teng quvvatni 175 km ga uzatishga muvofiq bo'ldi. 1891 yilda Peterburgda, Neva daryosining irmog'i Oxta daryosidagi GESga 120 va 175 kVt quvvatli generatorlar o'rnatildi. SHunday qilib butun dunyoda, suv oqimining gidravlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirib beruvchi gidroturbinalarga ulangan gidrogeneratorlar orqali, uzoq masofalarga uzatish mumkin bo'lgan uch fazali elektr toki ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz hududida bundan 3000 yillar avval ham, suv energiyasidan tegirmon toshlarini aylantiruvchi suv g'ildiraklarini harakatga keltirishda, charxpalak shaklidagi suv g'ildiraklari bilan yuqoriga suv ko'tarishda foydalanib kelingan. Suv manbalariga elektr stansiyalari-GESlar qurib elektr energiyasi ishlab chiqarish 1926 yildan boshlangan. YUrtimizda gidroenergetikaning rivojlanishini 7 bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich(1923-1941 yillar). Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkent shahridan o'tadigan Bo'zsuv kanaliga 4 000 kVt/soat quvvatga ega bo'lgan Bo'zsuv GESi qurilishi boshlandi. Bo'zsuv GESi 1926 yili 1 mayda ishga tushirildi. 1930 yilda Bo'zsuv kanalida 13 000 kVt/soat quvvatli Qodriya GESining qurilishi boshlandi va 1933 yili ishga tushirildi.

Bu bosqichda Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistondagi suv yo'llariga GESlar qurish mumkinligi asoslandi hamda Farg'ona va Marg'ilon shaharlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Isfayram soyga quriladigan Isfayram GESi, Samarqand shahrini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Darg'om kanaliga quriladigan Xishrau GESning loyihalari ishlab chiqildi [16].

CHirchiq daryosida quriladigan Tavoqsoy va Komsomol GESlari uchun loyiha-qidiruv ishlari amalga oshirildi. 1932 yildan CHirchiq daryosiga quriladigan GESlar kaskadi qurilishi boshlandi.

Markaziy Osiyo suv yo'llariga quriladigan GESlarni loyiha-qidiruv va loyiha ishlarini amalga oshirish uchun 1930 yilda «Sredazgidroproekt» instituti tashkil qilindi. Ushbu institut Bo'zsuv kanalida 1933 yilda qurilishi boshlangan va 1936 yilda ishga tushirilgan 8 000 kVt/soat quvvatli Bo'rjar GESi hamda 15000 kVt/soat quvvatli Oqtepa GESi uchun ishchi chizmalarni tayyorladi. O'nlab kichik qishloq GESlari loyihalandi va qurildi.

Birinchi bosqichda Markaziy Osiyo bo'yicha 120 000 kVt/soat quvvatga ega bo'lgan 9 dona GESlar qurilishi boshlanib, 76 500 kVt/soat quvvatga teng bo'lgan 7 dona GESlar ishga tushirildi.

Ikkinchi bosqich(1941-1950 yillar). Ushbu bosqich Markaziy Osiyo energetikasi, xususan O'zbekiston energetikasi uchun ham eng mas'uliyatli davrlardan biri bo'ldi. CHunki ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan juda ko'p mudofaa korxonalari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Ularni juda qisqa vaqt ichida ishga tushirib, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur edi. Mudofaa korxonalarini ishga tushirish uchun esa katta miqdorda energiya talab qilinardi. SHuning uchun O'zbekistonda juda qisqa vaqt ichida CHirchiq-Bo'zsuv suv yo'lida va boshqa suv yo'llarida ko'plab GESlar loyiha qilindi va qurildi.

Bir yil(1943-1944yil 15 oy)da Salor GESi hamda (1942-1943 yillar-da) 3- Oqqovoq GESi qurilib ishga tushirildi. Urish ketayotgan bir vaqtda shu davr uchun eng katta hisoblangan 126 000 kVt/soat quvvatli Farhod GESi qurilishi boshlandi. 1943 yili xalq hashari yo'li bilan boshlangan

quri-lish, 1949 yili tugatildi.

Bu davrda loyihachilar va quruvchilar texnik hamdaishlab chiqarish masalalarini hal qilishda juda katta bilimdonlik hamda jonbozlik ko'rsatdilar. Natijada iqtisodiy arzon va noyob echimli gidrotexnik inshootlar, qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. Masalan, yangi, minorali suv tashlagichlarni, arzon turdagi suv energiyasini so'ndiruv-chilarni, armatura-g'ishtli va yig'ma temir-beton konstruksiyalarni, tuproq to'g'onlar qurishdagi «ho'l usulni», opalubkasiz betonlashni, energetik jihozlarni bir-biriga montaj qilish(ulash)ni va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

1948 yili O'zbekiston energetiklari eng ulkan yutuqni qo'lga kiritdilar. Farhod GESining birinchi agregati ishga tushirildi, natijada Mirzacho'l va Dalvarzin cho'llaridagi 500 000 gektar erlarni Sirdaryo suvi bilan sug'orish imkoni tug'ildi. Hammasi bo'lib bu bosqichda 296 000 kVt-/soat quvvatga teng bo'lgan 26 dona GESlarning qurilishi boshlanib, ulardan 285 000 kVt/soat quvvatga teng bo'lgan 21 dona GES qurilib ishga tushirildi.

Uchinchi bosqich (1951-1960 yillar). Bu bosqichning oxiriga kelib, tekislikda joylashgan daryolarning deyarli hammasiga qurilishi mumkin bo'lgan GESlar qurib bo'lindi.

O'zbekistonda - SHayxontoxur, 3-4-6-Quy-i Bo'zsuv, 7-SHahrixon, 1-3-Namangan, Xishrau, Erteshar GESlari qurib ishga tushirildi. Bu bosqichda avvalgi bosqichlardagidek kichik va o'rtacha GESlar emas balki, daryo o'zanlariga katta va ulkan GESlar qurilishi boshlab yuborildi.

Sirdaryo suvidan foydalanishni tartibga solish uchun uning o'zanida Qayroqqum suv ombori va GESi (1951 yili qurilish boshlanib, 1957 yili tugagan) hamda CHordara suv ombori va GESi (1959 yili qurilish boshlanib, 1966 yili tugagan) qurilib ishga tushirildi. Markaziy Osiyoda eng katta GESlardan biri hisoblangan 180 000 kVt/soat quvvatga teng bo'lgan 1-Uchqo'rg'on GESi

(1956 yili qurilish boshlanib, 1964 yili tugagan) ishgatushirilgan.

Ushbu bosqichda hammasi bo'lib 842 000 kVt/soat quvvatga teng bo'lgan 20 dona GESlarning qurilishi boshlanib, 888 000 kVt/soat quvvatga teng bo'lgan 23 dona GES qurilib ishga tushirilgan.

To'rtinchi bosqich(1961-1970 yillar). To'rtinchi bosqichda Markaziy Osiyodagi gidroenergetik qurilishlar, dunyo amaliyotida misli ko'rilmagan natijalarga erishdi. Baland to'g'onli GESlar qurilishi boshlandi. Amudaryoning Vaxsh irmog'iga dunyoda eng baland -300 m li, tuproq to'g'onli, quvvati 2 700 000 kVt/soatga teng Nurek GESi, Sirdaryoning asosiy irmog'i -- Norin daryosiga to'g'onining balandligi 215 m bo'lgan, 1 200 000 kVt/soat quvvatga teng Toxtag'ul GESi hamda CHirchiq daryosiga to'g'onining balandligi 168 m bo'lgan 600 000 kVt/soat quvvatga teng CHorvoq GESi qurilishi boshlab yuborildi.

Baland to'g'onli GESlarning qurilishi, ulkan gidrotexnik inshootlar-ni loyihalash va qurishni, tonnellar qurilishi ishlarini sifatli baja-rishga olib keldi. Murakkab geologik sharitdan o'tgan tonnellar hamda ulkan gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish, eng baland to'g'onlarning qurilishi bu bosqichni sifat jihatidan ajralib turganini ko'rsatib turibdi.

Hammasi bo'lib bu bosqichda umumiy quvvati 4 558 000 kVt/soat quvvatga ega bo'lgan 8 dona GESlar qurilishi boshlanib, ularning barchasi qurib bo'lindi va ular ishlab chiqaradigan elektroenergiya miqdori 5 560 000 kVt/soatga etkazildi.

Beshinchi bosqich(1971-1980 yillar). Bu bosqich Markaziy Osiyoning ulkan gidrouzellarida hali to'liq qurib bitkazilmagan to'g'onlardagi birinchi agregatlarni past bosimlarda ishga tushirishni nishonlashdan boshlandi.1971 yilning boshida CHorvoq GESi, 1972 yilning oxirida Nurek GESi va 1975 yilning boshida Toxtag'ul GESlarining birinchi agregatlari ishga tushirildi. 1972 yilning iyul oyida CHorvoq GESining 600 000 kVt-/soat quvvatga teng to'rtala agregati ham ishga tushirildi.

1973 yilning may oyida, Nurek GESining 300 000 kVt/soat quvvatli uch dona agregatlariga vaqtinchalik ish g'ildiraklari o'rnatilib, past bosimlarda ishga tushirildi. 1976 yilning oxirida 300 000 kVt/soat quvvatli bir dona agregati hisob sxemasi bo'yicha ishga tushirildi, 1979 yilda esa

Nurek GESi to'liq quvvat bilan ishlay boshladi.

1979 yili Toxtag'ul GESining umumiy quvvati 1 200 000 kVt/soat bo'lgan to'rtala agregati ham ishga tushirildi. 1976 yilda Norin daryosida 800 000 kVt/soat quvvat olishi rejalashtirilgan Kurupsoy GESining qurilishi boshlab yuborildi.

1976 yilning oktyabr oyida Markaziy Osiyoda eng katta quvvatli Rogun GESini qurishga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Vaxsh daryosiga quriladigan, umumiy quvvati 3 600 000 kVt/soatga mo'ljallangan GES to'g'onining balandligi 335 m bo'lib, mahalliy qurilish materiallaridan barpo qilish rejalashtirilgan edi.

Hozirgi kunda Rogun GESi suv ombori quriladigan stvorda tuzli qatlamlar borligi hamda suv ombori kuchli zilzilalar ro'y beradigan hududda joylashganligi sababli, mamlakatimiz mutaxassislari ushbu GESni qurish maqsadga muvofiq emasligini isbotlashdi. YUqorida keltirilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra falokat ro'y bergan taqdirda, ushbu gidrografik zonada joylashgan Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston mamlakatlariga juda katta zarar etkaziladi [17].

1976 yilda CHirchiq daryosiga qurilgan Xo'jakent GESining quvvati 55 000 kVt/soatdan bo'lgan uch dona agregati ishga tushirildi va 120 000 kVt-/soat quvvatli G'azalkent GESining qurilishi boshlab yuborildi. SHu yili Oqbo'ra daryosida balandligi 120 m, hajmi uncha katta bo'lmagan Papan suv omboriqurilishi ham boshlab yuborildi. Amudaryodagi Tuyamo'yin gidrouzelidagi 150 000 kVt/soat quvvatli GESning qurilishi davom ettirildi. Bu bosqichda hammasi bo'lib umumiy quvvati 4 835 000 kVt/soat quvvatli 5 dona yangi GESlarning qurilishi boshlanib, ulardan 3 175 000 kVt-/soat quvvatli

4 dona GES qurilib ishga tushirildi.

Oltinchi bosqich(1980-1991 yillar). Ushbu bosqichda qurilayotgan GESlardagi ishlar tugatilib ular ishga tushirildi. Asosan, ekspluatatsiya qilinayotgan GESlarni uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilib turdi.

Ettinchi bosqich (1991 yildan hozirgi kungacha). Mamlakatimiz mus- taqillikka erishgandan sung, xalq xo'jaligini energiyaga bo'lgan talabini qondirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarish uchun, irrigatsiya tar-moqlaridagi suv ob'ektlariga kichik va o'rta GESlar qurish rejalashtiril-di. Ushbu bosqich bo'yicha hozirgi kunda irrigatsiya tarmoqlari - magistral, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik tarmoqlaridagi kanallar, kollektor-zovur tizimlari, suv omborlari, sel-suv omborlari, soylar, buloqlar va boshqa-larga kichik va o'rta GESlarni qurish uchun loyiha-qidiruv, loyiha, qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish ishlari davom ettirilmoqda.

Ma'lumki o'tgan asrning 20 yillaridan boshlab dunyoda kichik elektro- stansiyalar qurib ulardan foydalanish avj olib ketdi. Keyinchalik (1960-yillardan boshlab) katta daryolarda yirik suv omborli GESlar qurila boshladi. Atom va yirik issiqlik hamda GESlarning qurilishi natijasida esa, kichik GESlarni qurish va ulardan foydalanish to'xtatib qo'yildi.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta'minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste'molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg'ilardan foydalanish, atrof- muhitni global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiyxavf solmoqda. SHuning uchun hozirgi kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri, ekologik toza, qayta tiklanadigan noana'naviy energiya manbalaridan foydalanishdir.

Mamlakatimiz hududi asosan tog' oldi va tekislik rayonlarida joy- lashgan. SHuning uchun bu hududlarda katta GESlar qurishning imkoni yo'q. CHunki katta GESlarni doimiy ishlashi uchun daryolarga to'g'onlar qurish hamda hosil bo'lgan suv omborlarida juda katta suv hajmini yig'ish zarur. Natijada juda katta hududlar suv ostida qolib ketadi. 22-rasmda daryo hududlarining bo'linishi va ularga (GESlar uchun) qurilgan suv omborlari hisob sathlarining yoyilish uzunliklari ko'rsatilgan. SHuning uchun mamla-katimizda asosan meliorativ tarmoqlar(magistral, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik tarmoqlaridagi kanallar, kollektor-zovur tizimlari, suv ombor-lari, sel-suv omborlari, soylar, buloqlar va boshqalar)ga, irrigatsiya reji-mida ishlaydigan kichik va o'rta

GESlar qurib ekspluatatsiya qilinmoqda.

Respublikamiz rivojlangan agrar mamlakat bo'lganligi va u arid zonasida joylashganligi sababli, qishloq xo'jalik ekinlaridan sun'iy sug'orish orqali hosil olinadi. Sug'orish suvlarini etkazib berish uchun mamlakatimiz irrigatsiya tizimlarida, uzunligi 28,6 ming km bo'lgan 75 dona yirik magistral va xo'jaliklararo kanallar va ulardagi 207 dona ulkan gidrotexnik inshootlar,

172,2 ming km uzunlikdagi ichki sug'orish tarmoqlari, hajmi 20,0 mlrd. m ga yaqin bo'lgan 56 dona suv omborlari va 25 dona sel-suv omborlari ekspluatatsiya qilinadi. Bundan tashqari, tog' va tog' oldi hududlarda, baland sharsharali yuzlab soy va buloqlar mavjud. 1990-1992 yillarda, sobiq Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining topshirig'iga asosan, «Suvloyiha» instituti «2010 yilgacha O'zbekiston Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tizimida kichik GESlarni rivojlantirish sxemasi»ni ishlab chiqdi [18]. Ishlab chiqilgan sxemaga asosan yuqorida keltirilgan irrigatsiya tizimlarida 143 dona kichik GESlar qurib, yiliga 3,96 - 4,5 mlrd. kVt/soat elektroenergiya ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Ushbu har bir irrigatsiya tizimidagi energetik nuqtalar aniqlanib, shu nuqtalarning

Suv energiyasidan foydalanish sxemalari.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta'minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste'molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg'ilardan foydalanish, atrof-muhitni global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. SHuning uchun hozirgi kun energetikasining dolzarb masalalaridan biri, ekologik toza, qayta tiklanadigan noana'naviy energiya manbalaridan foydalanishdir.

Bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya-ning 85 % organik yoqilg'ilardan foydalanadigan issiqlik elektrostansiya-larida ishlab chiqariladi. Atigi 14,5% elektroenergiya gidroelektrostan-siya(GES)lar yordamida ishlab chiqariladi.

Katta miqdordagi qayta tiklanuvchi, ya'ni bir necha bor foydalanish imkoni bo'lgan energiya manbalariga ega bo'lgan mamlakatimizda kichik gidroenergetika muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining gidroenergetik resurslari quyidagicha baholanadi [18].

1. Yillik umumiy (yoki nazariy) giroenergetik potensial-88,5 mlrd. kVt/soat, shundan:

- katta daryolar - 81,1 mlrd. kVt/soatni;
- o'rtacha daryolar - 3,0 mlrd. kVt/soatni;
- kichik daryolar - 4,4 mlrd. kVt/soatni tashkil qiladi.

2. Energiya hosil qiluvchi suv oqimi o'z yo'lida juda ko'p qarshilik-larga duch keladi va isrof bo'ladi. Isrof bo'lgan energiyadan qolgan energiya - texnik gidroenergetik potensial, 27,4 mlrd. kVt/soatga teng bo'lib, shundan:


- katta daryolar - 24,6 mlrd. kVt/soatni;
- o'rtacha daryolar - 1,5 mlrd. kVt/soatni;
- kichik daryolar - 2,3 mlrd. kVt/soatni tashkil qiladi.

3. GES jihozlaridan o'tayotgan suv oqimi, juda ko'p qarshiliklarni engib o'tadi. Barcha qarshiliklardan sung qolgan sof iqtisodiy samarador gidroenergetik potensiali 16,6 mlrd. kVt/soatni tashkil qiladi.

Ishlab chiqilgan, «2010 yilgacha O'zbekiston Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tizimida kichik GESlarni rivojlantirish sxemasi»da har bir irrigatsiya tizimidagi energetik nuqtalar aniqlanib, shu nuqtalar- ning gidravlik va energetik xarakteristikalari ko'rsatib berildi.

23-rasmda YAngi Darg‘om kanalining bo‘ylama kesimi hamda undagi energetik nuqtalar ko‘rsatilgan, 5-jadvalda esa shu nuqtalarning gidravlik va energetik xarakteristikalari keltirilgan [18].

23-rasm. YAngi-Darg‘om kanalining energetik nuqtalar ko‘rsatilgan bo‘ylama kesimi.



Hozirgi kunda quyidagi kichik GESlar ishga tushirilgan.

- Surxondaryo viloyati To‘palang suv omboridagi GESning 1-navbati;
- Toshkent viloyatidagi Ohangaron suv omboridagi GES;
- Qashqadaryo viloyatidagi Hissorak suv omboridagi GES;
- Samarqand viloyati Darg‘om kanalidagi kichik Gulba GESi;
- Andijon viloyatidagi Andijon suv omboridagi 2-GES;
- Xorazm viloyatidagi Tuyamo‘yin GESi;
- Farg‘ona viloyati Ko‘ksuv kichik daryosidagi kichik SHohimardan GESi;
- Toshkent viloyatidagi Ertoshsoy GESi.

5-jadval. YAngi Darg‘om kanalining asosiy energetik va gidravlik xarakteristikalar

T.r.	GESlarning nomi	Hisob bosimi, m	Hisob suv sarfi, m ³ /s	Quvvat, MVt		O‘rtacha ko‘p yillik elek-troenergiya ishlab chiqa-rish, MVt	Agre-gatlar soni, dona
				kafo-latlan-gan	o‘rna-til-gan		
1	35+00-piket- dagi 1- GES	11,0	56	0	5,1	23,4	2
2	58+50-piket- dagi 2- GES	11,5	56	0	5,3	23,4	2
3	88+00-piket- dagi 3- GES	11,0	56	0	5,1	23,4	2

Bundan tashqari qurish uchun quyidagi kichik gidroenergetik ob‘ektlarning loyiha hujjatlari ishlab chiqilgan:

- Andijon viloyatidagi SHahrixon 0-GESi;
- Andijon viloyatidagi SHahrixon 1-GESi;
- Toshkent viloyati CHirchiq-Bo‘zsuvenergetik kaskadidagi Pioneer GESi;
- Samarqand viloyati Darg‘om kanalidagi SHaudarGESi;
- Samarqand viloyatidagi Bog‘ishamol 2-GESi;
- Farg‘ona viloyatidagi Karkidon GESi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston hududidagi kichik, o‘rtacha va katta daryolar-da hamda irrigatsiya tizimlarida konservatsiya qilingan, ekspluatatsiya qilinayotgan, qurilayotgan, loyihalanilayotgan, loyiha-qidiruv ishlari olib borilayotgan GESlar soni 204 donani tashkil qiladi. SHundan: ekspluatatsiya qilinayotgan GESlar 34(GAK «Uzbekenergo» ga qarashli 30, O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qoshidagi «Suvenergo» birlashmasiga qarashli 4) donani; konservatsiya qilingan GESlar 11 donani; qurilishi mo‘ljallanib loyiha-qidiruv va loyiha ishlari bajarilayotgan GESlar soni 45 donani; qurilishi mumkin bo‘lgan GESlar daryolarda 12 donani, suv omborlarida 23 donani va magistral kanallarda 79 donani tashkil qiladi.

Hukumatimiz tomonidan irrigatsiya tizimlaridagi kichik energetika- ni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar - kelajakda ekologik toza energiya ishlab chiqarishni ko‘payishiga, atrof-muhitni sof saqlanishi-ga, asosiy energetik tizimdan uzoqda joylashgan qishloqlarni elektr ener-giyasi bilan ishonchli ta‘minlanishiga, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini arzon elektroenergiya bilan ta‘minlanishiga hamda halqimiz-ning yanada farovon turmush kechirishini ta‘minlashga imkon yaratib berada.

Mikrogidroenergetika.

Balanddan tushayotgan tog‘li hududlardagi kichik soylar, buloqlar energiyasidan foydalanib, asosiy energetik tarmoqlardan uzoqda joylashgan tog‘li hududlardagi aholini elektr energiyasi bilan ta‘minlash mumkin.Kichik suv manbalariga odatda kichik quvvatli mikroturbinalar o‘rnatiladi (24-rasm).

Ishlash prinsipi bo‘yicha mikro-GES turbinalarini ikki turga bo‘lish mumkin: oqimning kinetik va potensial energiyasidan foydalanuvchilarga [59].

Quvvati bo‘yicha. Birlashgan Millatlar Tashkilotining klassifika-siyasi bo‘yicha10-15 MVt

gacha quvvatga ega bo'lgan GESlar, kichik GESlar tarkibiga kiradi:

- mikro - GESlarga - 100 kVt gacha;
- mini - GESlarga - 100 -1 000 kVt gacha;
- kichik GESlarga - 1 000 -10 000 kVt gacha.

Mamlakatimizda qabul qilingan klassifikatsiya bo'yicha 100 kVt dan 30 000 kVt gacha bo'lgan hamda ish g'ildiragi diametri 3,0 m gacha va bir gidroagregatning quvvati 10 000 kVt gacha bo'lganlar kichik GESlar tarkibiga kiritilgan.

3.1 Energetik va irrigatsiya rejimida ishlovchi GESlar.

Irrigatsiya tizimiga qurilib ekspluatatsiya qilinayotgan kichik GESlar irrigatsiya rejimida, ya'ni faqatgina ekinlarning vegetatsiya-sug'orish davrida (3 oy, 6 oy 9 oy va hokazo) ishlaydi (Masalan, CHirchiq-Bo'zsuv irrigatsiya tizimidagi 22 dona GESlar kaskadi). CHirchiq-Bo'zsuv energetik kaskadi 25-rasmda ko'rsatilgan. Irrigatsiya rejimida ishlaydigan GESlar, to'xtovsiz energetik rejimda ishlaydigan GESlardan keskin farq qiladi. Energetik rejimda to'xtovsiz ishlaydigan GESlar, yillik va ko'p yillik suv bilan ta'minlovchi, tog' va tog'oldi daryolariga quriladigan suv omborli to'g'onlarga o'rnatiladi (Masalan, Qirg'izstondagi To'xtag'ul, Tojikstondagi Rog'un GESlari va boshqalar).

Energetik rejimda to'xtovsiz ishlaydigan GESlar, GESlarni yillik va ko'p yillik suv bilan ta'minlovchi, tog' va tog'oldi daryolariga quriladigan suv omborli to'g'onlarga o'rnatiladi. To'xtovsiz energetik rejimda ishlaydigan GESlar, irrigatsiya rejimida - ekinlarning vegetatsiya davriga bog'liq holda ishlaydigan GESlardan keskin farq qiladi. 26-rasmda har xil rejimda ishlayotgan suv ombori ko'rsatilgan.

3.2 GES va GAESlar, ularning turlari va ishlash prinsipi.

Suv oqimining gidravlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi gidrotexnik inshootlar va gidroenergetik jihozlar yig'indisiga gidroelektrostansiya(GES)lar deyiladi


14-mavzu. Gidroenergetik qurilmalari (GEQ) turlari va ularning parametrlari. GEQlar ishlash prinsiplari.

Reja:

1. Gidroenergetik qurilmalari (GEQ) turlari va ularning parametrlari.
2. GEQlar ishlash prinsiplari.



1. Gidroenergetik qurilmalari (GEQ) turlari va ularning parametrlari.

Suv energiyasidan foydalanish. Er yuzasining to'rtidan uch qismi suv bilan qoplangan bo'lib, faqat to'rtidan bir qismigina quruqlikdan iboratdir. SHuning uchun ham insoniyat o'zining taraqqiyoti davomida har doim suvdan unumli foydalanishga intilib kelgan. Insonlarning suv energiyasidan foydalanishi avvalambor uning mexanik energiyasidan foydalanish bilan cheklangan. Masalan, suv tegirmonlari parraklarini suv oqimi kuchi yordamida aylantirilib tegirmon toshlari harakatlantirilib don boshqolari maydalanilib un holiga keltirilgan va h. k. Nihoyat suv mexanizmlarining tadrijiy davomi bo'lgan suv turbinalari ixtiro qilinganidan so'ng, suvning kinetik energiyasini elektr energiyaga o'zgartiruvchi gidroelektr stansiyalar haydo buldi va bu stansiyalar dunyoning deyarli barcha toglik va togoldi xududlarida eng arzon elektr energiya manbai sifatida keng qo'llanilmoqda.



Suvning qanday turdagi potensial energiyasidan foydalanib elektr energiya olishiga qarab gidroenergetik qurilmalar uch turga bo'linadi:

- daryolarga tugonlar qurilib suv sathi ko'tariladi va hosil qilingan suv omborlarda yigilgan suvning potensial energiyasidan foydalanib, elektr energiya hosil qiluvchi gidroelektr stansiyalar (GES);
- okean va dengizlarda sodir bo'lib turadigan kuchli tulqinlar ta'sirida qalqib kutarilib, kurfazlarda yigiladigan ko'p miqdordagi suvlarning hamda shuningdek bahorgi toshqinlar vaqtida daryo chetlarida yigilib qoladigan suvlarning potensial energiyalarini elektr energiyaga o'zgartiruvchi toshqin gidroelektr stansiyalar;
- sun'iy suv omborlar va kullarga nasoslar yordamida yigilgan suvlarning potensial energiyasini elektr energiyaga o'zgartiruvchi gidroakkumulyatorli gidroelektr stansiyalar (AGES).



8.1.Rasm. Suv turbinalarini ishga tushirishning turli yo‘llari¹


GES larda elektr energiya hosil qilish quyidagi sodda texnologik sxema buyicha amalga oshiriladi. Hidroenergetik resurs bulmish suv turbinaning parraklarini aylantirib, mexanik energiyani yuzaga keltiradi va bu mexanik energiya o‘zgaruvchan tok generatorida elektr energiyaga o‘zgaradi. Generatorida hosil qilingan elektr energiya kuchaytiruvshi transformator yordamida elektr uzatish liniyalari orqali iste’molchilarga o‘zatiladi.

GEQlar ishlash prinsiplari.

Gidroelekt stantsiya quriladigan **joyda** suvning potensial energiyasini jamlash maqsadida gidrotexnik qurilma – tugon quriladi. Bu tugon daryoning o‘zanini tusadi va hosil qilingan sun’iy suv omborida suvning ko‘payishiga va bosim kushining oshishiga olib keladi. GES larda hosil qilinadigan elektr energiyaning miqdori turbinadan o‘tayotgan ma’lum bosimli suv miqdoriga va suv energiyasini elektr energiyaga o‘zgartirishda foydalaniladigan barcha qurilmalarning foydali ish koeffitsientlariga (FIK) bog‘liqdir.

Gidroelekt stansiyalarning FIK yuqori bo‘lib, elektr stansiyalar ichida FIK eng yuqorisidir. Hidroelekt stansiyalarning urtacha FIK = 93 % ni tashkil etadi. Issiqlik elektr stansiyalarida esa bu kursatkich 40 % dan oshmaydi. Hidroelekt stansiyalarda boshqa elektr stansiyalardagiga nisbatan quvvatini rostlash oson amalga oshiriladi. Bu elektr stansiyalarni ishga tushirish, tuxtatish, quvvatini rostlash jarayonida turbinaga kelayotgan suvning tezligini o‘zgartirishning hojati yo‘q va ishlashining ishonshlilik darajasi juda yuqori. CHuning ushun ham

quvvatini roctlashning tezkorligi va arzon elektr energiya manbai sifatida GES lar goyat ahamiyatlidir.



8.2.Rasm. GESning ishlash prinsipi

Gidroelektstansiyalari – GESlarengkengtarqalganelektstansiyalaribo‘lib, suvoqimidagienergiyanielektrenergiyasigaaylantiribberuvchiinshootlarvajihozlarmajmuidir. Ular ko‘pincha daryolarda, to‘g‘on va suv omborlarida quriladi. Elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligi ikki omilga bog‘liq: GES butun yil mobaynida suv bilan uzluksiz ta‘minlanishi va nishablikda joylashishi zarur.

GESlarning bir qancha qulay va noqulay tomonlari bor. Masalan, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining tannarxi arzon, boshqa elektr stansiyalariga qaraganda ekologik zarari kamroq. Noqulay jihati – suv omborlari juda katta maydonni egallaydi, GES qurilishi nisbatan ko‘p mablag‘ talab qiladi. Biroq har qanday elektr stansiyasidan yagona ustunlik jihati bor – GESlar qayta tiklanuvchi manba bilan ishlaydi. Masalan, issiqlik elektr stansiyalarining manbasi (ko‘mir, yoqilg‘i) bir kun kelib tugashi mumkin. Lekin GESlarda sarflanayotgan suv tabiiy ravishda har yili qayta to‘planadi.


GESlarning ishlash tarzi juda oson. Gidrotexnik jihozlar suvni ma'lum bosimda jo'natib turadi. Bu suv maxsus quvurlardagi parraklarga kelib uriladi va generatorlarni harakatga keltiradi. Natijada elektr energiyasi paydo bo'ladi.

Suv bosimi to'g'on yordamida suv sathini ko'tarish orqali yoki maxsus nishablik-kanallar vositasida (derivatsion usulda) hosil qilinadi. Ayrim paytlarda har ikki usuldan bir paytning o'zida foydalanish mumkin.

So'nggi hisob-kitoblarga qaraganda, gidroenergetika jahonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 63 foizini etkazib beradi. Aholi jon boshiga hisoblaganda, elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Norvegiya, Islandiya va Kanada yuqori o'rinlarni egallaydi. Ularning safiga Xitoy ham qo'shilyapti. CHunki bu mamlakatda 2000 yildan e'tiboran keng ko'lamda GES qurilishi boshlandi. Hozir Xitoy dunyodagi kichik gidroelektr stansiyalarining deyarli yarmiga egalik qiladi.

O'zbekistonda elektrlashtirish ishlari XX asrning ikkinchi choragidan boshlangan. Hozirda CHirchiq, CHorvoq, Farhod, Bo'zsuv, Solor, Samarqand, To'palang GES kabi bir qancha elektr stansiyalari bor.

Dunyodagi eng yirik GES Xitoyning YAnzy daryosidagi 1997 yilda qurilishi boshlangan va 2011 yilda qurib bitkazilgan quvvati 700 MVt dan bo'lgan 26 ta agregatli, umumiy quvvati 22,4 GVt ni tashkil etuvchi "Uch g'or" GES hisoblanadi.



8.3.Rasm. Xitoyning YAnzidaryosidagi umumiy quvvati 22,4 GVt ni tashkil etuvchi "Uch g'or" GESi.

Dunyodagi gidrovlik energiyaning iqtisodiy potentsiali 8100 TVt.s ga baholanadi. Barcha gidrostansiyalarning o'rnatilgan quvvati 669 TVt ni tashkil etadi, ishlab chiqariladigan elektr energiya esa-2691 TV.s.ni tashkil etadi. SHunday qilib, iqtisodiy potentsial 33%ga ishlatiladi. Kichik gidroenergetikadagi dunyo bo'yicha etakchi Xitoy hisoblanib, u erda 1950 yildan 1996yilgacha kichik GESlarning umumiy quvvati 5,9 dan 19200 MVt gacha o'sdi. YAqin o'n yillikda Xitoyda yiliga 100 MVt gacha kiritgan rivojlantirilmoqda. Hindistonda 1998 yil yakunida kichik GESlar (3 MVt gacha birlamchi quvvatli)ning o'rnatilgan quvvati 173 MVt ni tashkil etgan; qurilish bosqichida umumiy quvvati 188 MVt bo'lgan GESlar mavjud. Qurilish joylari yana umumiy loyihaviy atrofida aniqlangan. Bir qator Evropa davlatlari shu qatori, Avstraliya ,Fenlyandiya, SHvetsiya va boshqa davlatlardagi kichik GESlar samarali ishlayapti.

Energiya resurslari narxlarini umumiy oshirish kichik va o'rtacha GESlar elektr energiyasini raqobatbardoshligi uchun zamin yaratadi. Tajribalarning ko'rsatishicha mikroGESlarning turli ko'rinishlari (engli, engsiz, tirgakli va h.q.)dan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Suv oqimlari

energiyasidan kompleksli foydalanish mutloq energiya iste'mol qilish kattaligi bo'yicha kam quvvatli, lekin shulab chiqarish natijalari bo'yicha juda samarali chiqarilgan iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash muammosini echishga yordam beradi. Bu avvalambor, aholi punktlari va haydaladigan yaylovlarning tog'oldi tumanlaridagi taalluqli. Markazlashgan energiya ta'minoti tumanlarida, lokal avtonom energiya manbalaridan foydalanish energetik bozorning raqobatchi muhitni yaratishiga imkon beradi. Kichik va o'rta suv oqimlari energiyasi bilan birga, bunday raqobatda noan'anaviy energiya manbalari (shamol, quyosh, biogaz energiyasi) ham qatnashishi mumkin. Dastlabki hisoblar buyicha kichik va o'rtacha suv oqimlari, mahalliy va noan'anaviy energiya manbalari potentsiali mutloq qiymati bo'yicha birlamchi energiyadan umumiy foydalanishdan 1 dan 1,5% gacha tashkil etadi. Undan ijtimoiy samarasi, kichik va o'rta biznes uchun muhitni yaratish, respublikaning cheka tumanlaridagi yashash sharoitlari qulayligi oshirish uchun natijasida yuqoriroq o'lchanmaydi.

O'zbekistonning tabiiy er to'zilishi va relefidan kelib chiqqan holda asosan gidroelektr stansiyalar qurilgan. SHuningdek, togli va togoldi xududlarda kichik daryolarning tabiiy suv oqimi kuchidan foydalanib, usha xududlarini elektr energiya bilan ta'minlash uchun uncha katta quvvatli bulmagan kichik gidroelektr stansiyalarni qurish iqtisodiy jihatdan ma'qul bo'lgani sababli amaliyotga kirib bormoqda. GES larning boshqa turdagi elektr stansiyalardan asosiy afzalligi shundaki, bu elektr stansiyalarda doimo tiklanib turuvshi energetik resurs – suvdan foydalaniladi.

O'zbekiston sharoitida GES larni qurishda suvning ma'lum bosim kushini hosil qilish va shuningdek suv ta'minotinig o'zluksizligini ta'minlash maqsadida barpo etiladigan sun'iy suv omborlari qishloq xujaligida ekinzorlarni sugorishda kafolatlangan suv ta'minoti bo'lishini ham ta'minlaydi.

Respublikada energetikaning ravnaqi Toshkent shahri yaqinida joylashgan Bo'zsuv GES i qurilishidan boshlangan. Kuvvati 4 ming kVt bo'lgan bu stansiya 1926 yilning may oyida ishga tushirilgan edi.

1-rasmda Bo'zsuv GESning umumiy ko'rinishi va elektr energiya ishlab chiqaruvchi generatorlari joylashtirilgan zalning umumiy ko'rinishi tasvirlangan.






8.4. Rasm. O‘zbekistonda eng birinchi qurilgan Bo‘zsuv GESning tashqi ko‘rinishi va gidrogeneratorlar zali

CHirchiq-Bo‘zsuv traktida elektr stansiyalarining qurilishi tez sur‘atlar bilan davom ettirilib, 1926 yildan 1940 yilga qadar mazkur yo‘nalishda 67 ming kVt quvvat ishga tushirildi.

1940 yilda O‘zbekistondagi elektr stansiyalarining o‘rnatilgan quvvati 170,5 ming kVt ga teng bo‘lib, elektr energiyasini ishlab chiqarish 482 mln. kVt-soatga etdi.

SHundan 200 mln. kVt-soat gidravlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarildi.

1940 yilda respublikada elektr energiyasini ishlab chiqarish jon boshiga 72,5 kVt-soat ni tashkil qilgan bo‘lsa, 90 chi yillarga kelib ko‘rsatkich 220 kVt-soat dan ortib ketdi.



O‘zbekistonning energetika tizimi yiliga 60 mlrd. kVt-soat ga yaqin elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega, unda umumiy o‘rnatilgan quvvati 12,3 mln. kVt bo‘lgan 39 ta issiqlik va gidravlik stansiyalari ishlab turibdi.

Uzbekiston gidravlik elektr stansiyalari:

№	Электр станция	Агрегат қуввати (МВт)	Агрегатлар сони	Электр станция ўрнатилган қуввати (МВт)
Гидравлик электростанциялар				
1	Чорбоғ ГЭС	150/155/165	2/1/1	620
2	Ходжикент ГЭС	55	3	165
3	Туямўйин ГЭС	25	6	150
4	Анджон ГЭС	35	4	140
5	Фарход ГЭС	30/33	2/2	126
6	Ғазалкент ГЭС	40	3	120

O'zbekistondagi qayta tiklanadigan energiya manbasining imkoniyatlari

Ko'rsatkichlar	Jami (mln.t.n.e.)	SHu jumladan, energiya (mln.t.n.e.)			
		Gidro	quyosh	shamol	biomassa
YAlpi ¹	50984,6	9,2	50973	2,2	—
Texnik ²	179	1,8	176,8	0,4	0,3
O'zlashtirilgan	0,6	0,6	—	—	—
1—belgilangan territoriyaga tushadigan yoki hosil qilinadigan nazariy energiya miqdori 2— yalpi imkoniyatlarni amalga oshirib, foydalanish mumkin bo'lgan mavjud texnologiyaning bir qismi					

Xozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi va dunyo miqyosida mikro GESlardan foydalanish ustuvor yo'nalishlarning biriga aylangan. Mikro GESlar atrof-muxitga sezilarli ta'sir etmaydi, jumladan: iflos gazlar chiqarish (SO₂, CO₂, NO₂), kislotali yomg'irga, tuproqni suv bosishga, iqlimni o'zgartirishga, azon qatlami emirilishiga va x.k. olib kelmaydi.

SHu bilan birga aytish mumkinki, kichik GESlar ishlatilishida daryoning florasi va faunasidan o'zgarmaydi va biologik turlarning kamayishiga olib kelmaydi. Katta GESlardagi kabi kichik quvvatli gidrostansiyalar qishloq xo'jaligi erlarining suv bosimiga daryo qirg'oqlariga tegishli erlar gidrologik rejimini o'zgartirmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Gidroelektr stansiyalar kanday asosiy kurilmalardan iborat?
2. Gidroelektr stansiyadagi transformator kanday vazifani bajaradi?
3. Kanday turdagi gidroelektr stansiyalarni bilasiz?

15-mavzu. SHamol energiyasi. Shamol energiyasidan foydalanish. Shamol elektrostansiyasi (SHES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

Reja:

1. SHamol energiyasi.
2. Shamol energiyasidan foydalanish.
3. Shamol elektrostansiyasi (SHES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

1. SHamol energiyasi.

SHamol energiyasi. Insoniyat suv energiyasi hamda bug‘ dvigatellari-dan ancha oldin, shamol energiyasidan foydalanib kelgan. Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya, AQSH va boshqa mamlakatlarda, shamol energiya- si juda katta masshtabda, sanoat va qishloq xo‘jaligida ko‘llanib kelingan. SHamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan xozirgi ishlar, alohida katta quvvatli shamol generatorlarini yaratish va ularning energiyasini ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulash va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

Havo massasining er atmosferasi atrofida aylanishi ekspertlar tomonidan turlicha baholangan. SHamollarning yillik nazariy zahirasi er yuzidagi barcha energiya zahiralaridan 100 marta ortiq bo‘lib, $3300 \times 10 \text{ kVt/soat}$ ni tashkil qiladi. Ammo bu energiyaning faqatgina 10-12 % foydalanish mumkin. Masalan, 1987 yilda er yuzidagi barcha shamol qurilmalari tomonidan $10 \times 10 \text{ kVt/soat}$ energiya ishlab chiqilgan, ya‘ni yillik zahiraning atiga 0,3 % dan foydalanilgan.

Shamol - bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Iqtisodiy jihatdan joydagi shamolning tezligi 5 m/s dan kam bo‘lmasa shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHamol elektrogeneratorlari an‘anaviy generatorlardan 2 - 4 barobar qimmatdir. Ammo shamol energiyasi doimiy bo‘lgan ba‘zi bir regionlarda u muxim energiya manbalaridan hisoblanadi.

Odatda shamol energiyasi shamolga perpendikulyar joylashgan ma‘lum maydon ta’siri orqali aniqlanadi ya‘ni.

SHamol energetik qurilmasi uzatayotgan energiya miqdori, havo oqimi hosil qiladigan energiya miqdoridan tubdan farq qiladi. Chunki havo oqimi energiyasining bir qismi shamol g‘ildiragi parraklarida, reduktor va generatorlarda isrof bo‘ladi. Isrof bo‘lgan energiya miqdori, shamol energiyasidan foydalanish koeffitsienti bilan hisobga olinadi. SHamolga perpendikulyar joylashgan maydon yuzasini shamol g‘ildiragi diametri bilan belgilab, shamol energetik qurilmasining quvvatini quyidagi formulada hisoblash mumkin.

parraklarda isrof bo‘lgan havo oqimi energiyasi. Hisoblarga ko‘ra, parrakli shamol dvigatellaring shamol energiyasidan foydalanish koeffitsienti 48 % gachabo‘lishi mumkin, shamol qurilmalari-ning umumiy foydali ish koeffitsienti undan ham kichikroq bo‘ladi.

SHamolga perpendikulyar bo‘lib asosan, shamol qurilmalarinig parrak-lari joylashadi. SHamol qurilmasi quvvatini parraklar soni emas balki, ish g‘ildiragi diametri belgilaydi [24]. 48-rasmda shamol qurilmasi ish g‘ildiragi diametri bilan uning quvvati orasidagi bog‘lanish grafigi ko‘rsatilgan.


SHamol agregatining quvvati, shamol tezligiga to‘g‘ri, ish g‘ildiragi parraklari soniga teskari proporsionaldir.

Havo oqimi hosil qiladigan mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirish, shamol elektrostansiyalari yordamida amalga oshiriladi. Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasini tashkil


46- rasm. SHamol qurilmasi ish g'ildiragi diametri bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

qiladi. SHamol qurilmalarining asosiy ishchi qismi, shamol g'ildiragi hisoblanadi.

SHamol g'ildiraklarining qanotli, karuselli va barabanli turlari mavjud. SHamol



elektrostansiyalarida asosan eng samarali bo'lgan qanotli shamol g'ildiraklari qo'llaniladi (49-rasm).



47- rasm. Qanotli shamol g'ildiraklarinig ko'rinishi: a-ikki g'ildirakli; b-uch g'ildirakli; v-to'rt g'ildirakli

SHuni esda tutish lozimki, shamol g'ildiragi tomonidan qabul qilinayotgan shamol oqimi, shamol g'ildiragining diametri bilan aniqlana-di, undagi parraklar soni hech qanday ahamiyatga ega emas. Hozirgi kunda ish g'ildiragi diametri $1,0 \sim 64$ m bo'lgan shamol qurilmalari mavjud.

Ko'pgina shamol generatorlari sekundiga 3-4 m/s dan yuqori tezlikdagi shamol yordamida ishlaydi. SHamol generatorlari 8-25 m/s tezlikda esadigan shamol yordamida maksimal quvvatga ega bo'ladi. Odatda shamol generatorlarining maksimal ishlash tezligi 25-30 m/s ni tashkil qiladi.

2. Shamol energiyasidan foydalanish.

SHamol energetikasi ekalogik toza energiya manbaidir. Ammo shamol elektrostansiyalari uchun juda katta hududlar zarur (shamol energetik qurilmalarining bir - biridan uzoqda joylashishi va ular orasidagi masofa ish g'ildiragi diametrining 6-18 barobariga teng bo'lishi kerak). Masalan, ish g'ildiragi $D = 100$ m bo'lgan shamol energetik qurilmasi uchun 5-7 km hudud kerak. Butun boshli shamol elektr stansiyasi uchun esa o'nlab km hudud zarur. Boshqa bir noqulay tarafi - ish

g'ildiragi shovqin chiqarib va havoni tebratib ishlashi natijasida tele- va radio eshittirishlarga xalaqit beriladi.

SHamol energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya birinchi o'rini egallab kelmoqda. Bu mamlakatda shamol energiyasini ishlab chiqarish yiliga 500 - 1500 MVt ga ko'paymoqda, hozirgi vaqtda ishlab chiqariladigan energiya miqdori 2 mln.kVt/soatdan oshib ketdi. SHamol energiyasi kadastri.

Ma'lum vaqt oralig'i (kun, oy, yil) bilan bog'liq shamol energetikasi hisoblarini amalga oshirish uchun shamol energiyasi kadastri to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

SHamol energiyasi kadastri, shamolning miqdor xarakteristikalarini bo'lib, ular asosida shamol agregati ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan energiya hamda uning ishlash davriyligi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

SHamol energiyasi kadastriga shamolning quyidagi xarakteristikalarini kiradi.

1. Uzoq vaqt oralig'ida shamolning o'rtacha tezligi.
2. SHamol o'rtachatezliginingtakrorlanishi.
3. SHamol tezligini kunlik va yillik silijish xarakteristikalarini.
4. . SHamolli va shamolsiz davrlarning davomiyligi.

1. Bofort shkalasi bo'yicha shamolning tezlik oraliqlari hamda erdagi predmetlarga shamolning ta'siriga mos bo'lgan o'rtacha oylik va yillik shamol tezligi.

2. SHamolni kuchayishidagi maksimal tezligi.
3. SHamolning yo'nalishi («shamol guli»).
4. SHamolning turbulentligi (havo oqimining ichki strukturasi).
5. SHamolni kuchayishi, susayishi va ko'tarilishi (birlik vaqt oralig'ida shamol tezligining o'zgarishi).
6. SHamol oqimining zichligi (atmosfera bosimi, temperatura va namlikka bog'liqligi).
7. SHamol oqimi tarkibining fazasi (bir fazali-toza shamol oqimi, ikki fazali-yomg'ir tomchilari aralash shamol oqimi, uch fazali-yomg'ir tomchilari va boshqa predmetlar aralashgan havo oqimi).

SHamolning o'rtacha tezligi, ma'lum vaqt oralig'idagi teng vaqtlar ichida o'lchangan shamol oniy tezliklarining o'rta arifmetik miqdor sifatida aniqlanadi, ya'ni

$$V_{\text{pm.}} = \frac{\sum_i V_i}{n}$$

Bu erda: V_{rt} -shamolning o'rtacha tezligi, m/s;

V_{oniy} - shamolning oniy tezligi miqdorlari, m/s;

n - o'lchangan oniy tezliklarning soni.

Vaqtning uzoq davri (oy, yil) uchun shamolning tezligi to'g'risidagi ma'lumotlar, joylardagi meteostansiyalarning kuzatuvlari asosida olinadi. Bir kunda bir necha bor o'lchangan shamolning tezligiga asosan o'rtacha bir kunlik, o'rtacha oylik hamda ko'p yillik davr uchun shamolning o'rtacha yillik tezliklari jadvallari tuziladi.


Er yuzasi va (okean, dengiz va daryolar) suv yuzasidagi shamolning tezligini aniqlash uchun odatda Bofort shkalasidan foydalaniladi [25].

Bofort shkalasi	Ballga mos shamolni	SHamolning tezligi:		Erdagi predmetlarga shamolning ta'siri
		m/s	km/soat	
0	SHamolsiz	0,0-0,5	0,0-1,8	Tutun vertikal ko'tariladi. Daraxt barglari qimirlamaydi
1	Sokin shamol	0,6-1,7	2,2-6,4	Tutun vertikal ko'tarilmaydi. Daraxt barglari qimirlamaydi
2	Engil shamol	1,8-3,3	6,5-11,9	Tutun shamol esayotgan tarafga qarab egiladi. Daraxt barglari shitirlaydi
3	Kuchsiz shamol	3,4-5,2	12,2-18,7	Daraxt barglari va bayroqlar tinimsiz tebranib turadi.
4	O'rtacha shamol	5,3-7,4	19-26,6	Daraxt shoxlari tebranadi. Erdan chang va qog'oz bo'laklari ko'tariladi.
5	Salqin shamol	7,5-9,8	27-35,2	Katta bayroqlar tortqilanadi. Daraxt-lar tebranadi. Quloq g'uvillaydi. Qo'l shamol tezligini sezadi.
6	Kuchli shamol	9,9-12,4	35,6-44,6	Daraxt shoxlari kuchli tebranadi. Uylar va qimirlamaydigan narsalar yonida gu- villash tovushlari eshitiladi. Telefon simlari tovush chiqarib g'uvullaydi.
7	Qattiq shamol	12,5-15,2	45-54,7	Uncha katta bo'lmagan daraxtlar tanasi tebranadi. SHamolga qarshi yurish qiyinlashadi.
8	Juda kuchli shamol	15,3-18,2	55-65,5	Katta daraxtlar tebranadi. novdalari. Daraxt novdalari va sshoxlari sinadi. SHamolga qarshi yurish juda qiyinlasha- di, egilib yurishga to'g'ri keladi.
9	Dovul	18,3-21,5	65,9-77,3	Katta daraxtlar qayriladi, katta shox -lari sinadi. Narsalar joyidan siljiy boshlaydi. Uylar tomi shikastlanadi.
10	Kuchli dovul	21,6-25,1	77,7-90,6	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yulib olinadi. Tomlar yulib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz beradi.
11	SHiddatli dovul	25,2-29	90,7-105	Binolar kuchli vayron bo'ladi
12	Bo'ron	>29	> 105	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yulib olinadi. Tomlar yulib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz beradi. Binolar kuchli vayron bo'ladi.

16-jadvalda Bofort shkalasi keltirilgan. Bofort shkalasi bo'yicha shamolning taxminiy tezligi aniqlanadi. 1-9 ballarda, shkala bo'yicha shamolning tezligi (m/s),

SHamolning asosiy energetik xarakteristikalaridan biri bo'lgan tezligini o'lchash uchun anemometr (Grekcha «anemometr»so'zi-«anemo»- shamol, «metr»-o'lchayman) asboblari qo'llaniladi. SHamol tezligini o'lchovchi asbob-lar ikki guruhga bo'linadi [26].

1. Ko'rsatuvchi anemometrlar-shamolning oniy tezligini ko'rsatuvchi asboblardir.
2. Anemometr integratorlar-ma'lum vaqt oralig'ida shamolning o'rtacha tezligini beruvchi asboblardir.



48- rasm. Shamol tezligini o'lchovchi asboblari:

a-doskali(flyugerli) anemometr:1-o'q;2-metall doska; 3 - sakkiz shtift- (metall o'zakchali)li sektor; 4 -shtok; 5 -shamolyo'nalishini ko'rsatuvchi; 6-tutqich.b- qo'lda ishlatiladigan induksion anemometr; v-shamolning tezligi va yo'nalishi datchiklari bloki - elektr energiyasida ishlaydigan anemorumbometr; g- qabul qiluvchi o'lchov asboblari; d-shamolning o'rtacha tezligini o'lchovli yarim sharli qo'lda ishlatiladigan anemometr.

Hozirgacha ularning orasida ko'rsatuvchi anemometrlar-doskali (flyu-gerli) anemometr (50 a - rasm), qo'lda ishlatiladigan induksion anemometr (50 b - rasm)va anemorumbometr (50 v - rasm) hamda anemometr integratorlar - qo'lda ishlatiladigan yarim sharli anemometrlardan ko'p foydalanilgan (50 d- rasm).

Hozirgi kunda ilm-fanning taraqqiyoti natijasida ishlatish qulay, o'lchamlari kichik va chiroyli dizayndagi anemometrlar yaratilib, ulardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ishlash prinsipi bo'yicha bunday anemo- metrlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- pallali anemometrlar;
- parrakli anemometrlar;
- issiqlik anemometrlari;
- ultratovushli anemometrlar.

Quyida mana shunday anemometrlarning bir nechasini qarab chiqamiz.

Eng sodda konstruksiyali anemometrlardan biri, 1846 yilda Arma obser-vatoriyasi doktori Robinson tomonidan yaratilgan pallali anemometr-lardir. Vertikal o'q atrofida aylanadigan rotorga maxsus simlar orqali mahkamlangan yarim sferik shar shaklidagi pallalar yig'indisiga pallali anemometrlar deyiladi. Ushbu anemometrlar uch va to'rt pallali bo'lishi mumkin (51 a va b - rasmlar).

Konstruksiyasiga nisbatan shamol tezligi qo'lda foydalaniladigan yoki yordamchi elektron induksiyali taxometr asboblari anemometrlarda aniqlana-di. Berilgan vaqt ichida pallalarning aylanishlar soni va ularga mos maso-fa hisoblanib, hisoblangan masofani vaqtga bo'lish yordamida shamolning tezligi aniqlash qo'lda foydalaniladigan anemometr yordamida amalga oshiriladi (50b-rasm). Elektron induksiyali taxometr asboblari anemometr-lar esa, to'g'ridan to'g'ri shamol tezligini ko'rsatadi (50v va ^-rasmlar).

Anemometrlarning yana bir turi parrakli anemometrlardir (51 v-rasm). Ma'lumki shamolning yo'nalishi o'zgarishi bilan parraklarning o'qi ham shu yo'nalishga burilishi lozim. Bu vazifani parrakli anemometrlarda flyugerlar amalga oshiradi (50a -rasm). Yo'nalishi o'zgarmaydigan (masalan shaxtalarda, binolarda va boshqalarda) shamollarning tezligini

o'lchashda, o'qi bir yo'nalishga nisbatan qimirlamaydigan qilib mahkamlan-gan parrakli anemometrlar qo'llaniladi.

Issiqlik anemometrlari bilan, issiqlik yordamida qizdiriladigan juda kichik diametrli volfram va nixrom materiallaridan tayyorlanadigan simning shamol tezligi natijasida sovushini o'lchash natijasida shamolning tezligi aniqlanadi (52 a-rasm).

Kichik o'lchamli, ko'p funksiyali sonli anemometr (52 b-rasm), yuqori aniqlikda shamolning tezligini, havoning haroratini, dengiz sathiga nisbatan balandlikni, joydagi atmosfera bosimini, namlikni hamda sovush ko'rsatgichini aniqlashda foydalaniladi. Undagi barometr

a)

b)


v)



51-rasm. Uch (a) va to'rt(b)pallali hamdaparrakli(v) anemometrlar.

a)

b)



52-rasm. Issiqlik (a), ko'p funksiyali sonli (b) va cho'ntak (v) anemometrlari.

hozirgi atmosfera bosimini emas, balki o'tgan 3, 6, 12 va 24 soat oralig'ida bosimni o'zgarishini ham ko'rsatadi. SHamolning tezligin har sekunda o'lchab aniqlash mumkin.

52 v-rasmda parrakli cho'ntak shamol anemometri ko'rsatilgan. U parraklarni aylanishlar tezligiga asosan shamolning tezligini sonlarda ko'rsatadi.

3. Shamol elektrostansiyasi (SHES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

To'g'ridan to'g'ri shamolning tezligini ko'rsatuvchi ultratovushli cho'ntak anemometrlar foydalanishga juda qulaydir. «Xplorer-1» (53a-rasm) anemometri faqatgina shamolning kerakli vaqtdagi tezligini ko'rsatsa, «Xplorer-2» (53b-rasm) anemometri shamolning zarur vaqtdagi tezligi yoki ma'lum vaqt oralig'idagi o'rtacha tezligini hamda havoning haroratini (hattoki Sizning tanangizni haroratini ham) ko'rsatadi [25]. «Xplorer-3» (53v-rasm) anemometrini shamolning tezligidan tashqari uning yo'nalishini hamda havoning haroratini (hattoki Sizning tanangizni haroratini ham) ham ko'rsatadi. Bundan tashqari unga shamolning yo'nalishini aniq ko'rsatadigan elektron kompas ham o'rnatilgan.

Ushbu cho'ntak anemometrlari batareyalar yordamida ishlab, ulardan qorong'u tunda ham foydalanish mumkin. Ularni boshqarish 1 dona knopka orqali amalga oshiriladi.



a)

b)

v)

53-rasm. Cho'ntak anemometrlari. a-«Xplorer-1»; b-«Xplorer-2»; v-«Xplorer-3».

6.4 Shamol elektrostansiyalari.

Shamol elektrostansiyalari. Bir necha shamol qurilmalarining yig'indisi shamol elektrostansiyasini tashkil qiladi. Kuvvatiga nisbatan shamol elektrostansiyalarini 3 guruhga bo'lish mumkin.


Kichik quvvatli - $0,1 \div 1,0$ kVt/soatgacha, ularga asosan doimiy elektr toki ishlab beradigan shamol qurilmalari kiradi. Ular asosan akkumulyator batareyalarini zaryadka qilishda qo'llaniladi.

1. O'rtacha quvvatli - $10 \div 100$ kVt/soatgacha, ular o'zgaruvchan tok ishlab chiqaradi.

2. Yirik quvvatli - > 1000 kVt/soatgacha, hozirgi vaqtda bunday shamol energetik qurilmalarining tajriba nusxalari sinab ko'rilmog'da.

Ma'lumki shamol agregatning quvvati, shamol tezligiga to'g'ri proporsional va ish g'ildiragi parraklari soniga esa teskari proporsionaldir.

Hozirgi kunda, seriyali ishlab chiqarishi mumkin bulgan shamol agregatlari ish (shamol) g'ildiragining aylanishlar soni quyidagilarga teng (ayl./min.): 3000; 1500; 1000; 250; 75; 30. Shamol tezligining oshishi bilan shamol qurilmasi ish g'ildiragining aylanishlar soni oshadi hamda




mos holda shamol qurilmasining quvvati oshib boradi [24] (54 - rasm).

54- rasm. SHamol qurilmasi ish g'ildiragi (rotori) aylanish tezligi bilan uning quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

SHamol qurilmasining yana bir muhim elementlaridan biri, shamol minorasining balandligidir. Tajribalar asosida [24] shamol minorasi balandligining oshishi bilan shamol qurilmasi quvvatiining ko'tarilib borishi aniqlangan (55- rasm).

55- rasmdan ko'rinib turibdiki, er sathidan balandga ko'tarilgan sari shamolning tezligi kuchayib, shamol energoqurilmalarining ishlab chiqarayotgan quvvati ham oshib boradi. Ammo shamol energoqurilmalari ma'lum bir balandlikka o'rnatiladi. SHamol qurilmasi o'rnatilgan balandlikda esa shamolning tezligi bir xil bo'lmasdan katta diapazonda o'zgarib turadi. SHuning



uchun shamol energoqurilmalari to'liq quvvat bilan elektroenergiya ishlab chiqara olmaydi.

55-rasm. SHamol minorasining balandligi bilan shamol qurilmasi quvvati orasidagi bog'lanish grafigi.

56- rasmda bir xil balandlikka o'rnatilgan shamol qurilma (elektro- stansiya)larining vaqt oralig'ida ishlab chiqaradigan energiyasi bir xil bo'lmasligi ko'rsatilgan.

Amerikaning «Altaeros Energies» hamda Kanadaning «Magenn Power» kompaniyalari tadqiqotlariga ko'ra, er sathidan 100 m va undan ortiq balandliklarda katta tezlikda doimiy kuchli shamol oqimlari esib turar ekan [26] .

16- mavzu. Geotermal energiya. Geotermal energiyadan foydalanish. Geotermal elektrostansiya (GeoIES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

Reja:

1. Geotermal energiya. Geotermal energiyadan foydalanish.
2. Geotermal elektrostansiya (GeoIES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

1. Geotermal energiya. Geotermal energiyadan foydalanish.

Geotermal soʻzi grekchadan geo-er va therm-issiqlik soʻzlari boʻlib, geotermal energiya-er issiqligi energiyasi deb ataladi. Er qaʼrida juda katta issiqlik miqdori mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas-tuganmas energiya olish mumkin. Hisoblarga koʻra, er bagʻrida toʻplangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilgʻi zaxirasidan olinadigan energiyadan bir necha barobar koʻp ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadi xolos.

Er qaʼrida juda katta issiqlik zahiralari mavjud. Undan juda arzon va ekologik zararsiz bitmas - tuganmas energiya olish mumkin [19, 29, 38].

Hisoblarga koʻra, er bagʻrida toʻplangan issiqlikdan olinadigan energiya, er yuzidagi hamma organik yoqilgʻi zaxirasidan olinadigan energiyadan bir necha barobar koʻp ekan. Ammo bu issiqlik energiyasi faqatgina er ostidagi qaynoq suvlardan olinadi xolos. Bu suvlar ikkiga boʻlinadi (82-rasm).

1. Termal (issiq) suvlar - ularning temperaturasi 100 °S gacha boʻladi.
2. Paragidrotermal suvlar - ularning temperaturasi 100 °S dan ortiq boʻladi. Oʻrta Osiyoda temperaturasi 40-200⁰S atrofida oʻzgaradigan umumiy oqim sarfi 0,55 mln.m /kun geotermal suvlar zahirasi mavjuddir.

Hozirgi vaqtda geotermal suvlardan faqatgina xalq xoʻjaligining kommunal xoʻjaligida (uylarni isitish va issiq suv bilan taʼminlash), parniklarda va davolash maqsadlarida ishlatiladi.

Energetika va issiqlik bilan taʼminlashda asosan temperaturasi yuqori va kam mineralizatsiyali suvlar qimmatli hisoblanadi. Chunki mineralizatsiyasi oz boʻlsa, jihozlarning zanglashi va ularning devorlariga tuzlarni oʻtirib qolishi kam boʻladi.

Er bagʻrida gidrotermal suvlar juda chuqurda (1000 m pastda, isteʼmol qilish mumkin boʻlgan suvlardan pastda) joylashadi. Hisoblarga qaraganda har 30-40 m chuqurlikda er qaʼridagi suvlarning temperaturasi 1 °S ga oshar ekan. Baʼzi bir joylarda ular 200 - 300 m chuqurlikda xam (Kamchatka, Kuril orollarida) joylashishi mumkin. Kam holatlarda ular issiq bugʻli buloqlar shaklida ham uchraydi.

Kamchatkada 100 dan ortiq er yuziga chiqib turgan yuqori temperaturali termal suvlar mavjuddir. 1941 yilda geyzerlar vodiysi topildi. SHu vodiydagi Ulkan geyzeri 100 °S temperaturadan ortiq bugʻli suv aralashmasini 300 m balandlikka otib turadi. Kamchatkadagi manbalar faqat yuqori temperaturasi (170 - 200 °S) bilan emas, balki kichik mineralizatsiyasi (0,6 - 5,0 g/l) bilan ham ajralib turadi.

Dunyodagi geotermal suvlardan olinadigan energiya miqdori 60.000 MVt ni tashkil qiladi. 1984 yilda geotermal suvlardan faqatgina 1800 MVT energiya olingan shulardan: Amerika-500; Italiya-420; Meksika-75; Yaponiya-70.

Geotermal suvlardan elektr energiyasi olish asosan, er yuzida energetik kriz boshlanishi va ekologik toza energiya olish uchun ko‘rash avjiga chiqqandan so‘ng boshlandi.

80- rasm. Paragidrotermal (a) va termal (b) suv manbalari.

Termik suvlardan foydalanib elektr energiyasi olish qurilmalari xuddi issiqlik


a)



b)



elektrostansiyalariga o‘xshash, faqatgina termik elektrostansiyalarida bug‘ qozoni bo‘lmaydi xolos, geotermal elektrostansiyalarga yoqilg‘i kerak bo‘lmagani uchun uni ishlashi uchun transportni xam keragi bo‘lmaydi. Quyida geotermal elektrostansiyaning sxemasi keltirilgan (83-rasm). Bugungi kunda dunyodagi geotermal elektrostansiyalarinig umumiy quvvati 10751 megavattni tashkil qiladi [39].



Vulqonli rayonlarga o‘rnatish mumkin bo‘lgan geothermal elektrostansiyaning sxemasi:
1-geotermal quduq; 2-bug‘ga aylantiruvchi moslama; 3-turbina; 4-konden-sator; 5- nasos; 6-suvli issiqlik almashtirgich.

Geotermal energiya manbalari va ularning kadastri.

Geotermal energiyaning sifati, uning temperaturasi, mineralizatsiyasi (quruq qoldiq), umumiy qattiqligi, kislotaligi (rN), gaz tarkibi, gaz bilan to‘yinganligi bo‘yicha baholanadi va quyidagicha klassifikatsiyalanadi.

1. Temperaturasi bo‘yicha geotermal suvlar: kuchsiz termal - 40°S gacha; termal - 40°S $\wedge$ 60°S gacha; yuqori termal - 60°S $\wedge$ 100°S gacha; qizib ketgan - 100°S dan yuqori.

2. Mineralizatsiyasi(quruq qoldig‘i) bo‘yicha: ultrachuchuk suvlar - 0,1 g/l gacha; chuchuk suvlar- $0,1^{\wedge}1,0$ g/l; kuchsiz sho‘rlangan suvlar - $1,0^{\wedge}3,0$ g/l; kuchli sho‘rlangan suvlar - $3,0^{\wedge}10,0$ g/l; sho‘r suvlar - $10,0^{\wedge}35,0$ g/l; o‘ta sho‘r suvlar - 35,0 g/l dan oshiq.

3. Umumiy qattiqligi bo‘yicha: juda yumshoq -1,2 mg.ekv/l; yumshoq- $1,2^{\wedge}2,8$ mg.ekv/l;

o'rtacha yumshoq - $2,8 \wedge 5,7$ mg.ekv/l; qattiq- $5,7 \wedge 11,7$ mg.ekv/l; juda qattiq- $11,7$ mg.ekv/l dan katta.

4. Kislotaligi (rN) bo'yicha: juda achchiq - $3,5$ gacha; achchiq - $3,5 \wedge 5,5$; kam achchiq - $5,5 \wedge 6,8$; neytral - $6,8 \wedge 7,2$; kam ishqorli - $7,2 \wedge 8,5$; ishqorli - $8,5$ dan katta.

5. Gaz tarkibi bo'yicha:oltingugurt vodorodli; oltingugurt vodorodli - karbonot-angidridli; karbonot-angidridli; azotli-karbonot angidridli; metanli; azotli - metanli; azotli.

6. Gaz bilan to'yinganligiga nisbatan: kuchsiz - 100 mg/l gacha; o'rtacha - $100 \wedge 1000$ mg/l; yuqori - 1000 mg/l dan ortiq.

Er qa'rining tabiiy issiqligi-geotermal energiya, er qobig'ining 10 km chuqurligicha masofada yig'ilgan. Olimlarning taxminiga ko'ra, geotermal energiyaning energiya sig'imi 137 trln. tonna toshko'mir yoqilg'isiga teng bo'lib, er qobig'ida joylashgan barcha energetik resurslarning quvvatiga qaraganda 10 barobardan oshiqroqdir.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha geotermal elektrostansiyalarning umumiy quvvati boshqa turdagi qaytalanuvchi energiya manbalari elektrostansiyalari quvvatiga qaraganda kichikroqdir. Ammo ba'zibir mamlakatlarda energiyaning bu turi asosiy energetik manbalardan hisoblanadi (Masalan, Islandiya mamlakati). Bundan tashqari geotermal energiyadan foydalanish yildan-yilga ko'payib bormoqda. Masalan, 1990 yilda geotermal energiyadan olinadigan o'rnatilgan quvvat miqdori 5000 MVt ni tashkil qilgan bo'lsa, bu miqdor 2000 yilda 6000 MVt ni, 2008 yilda esa 10 500 MVt ni tashkil qildi.

2.Geotermal elektrostansiya (GeoIES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

Geotermal energiyaning topib ishlatish - axtarib topish, unga ishlov berib ma'lum energiya holatiga olib kelish hamda iste'molchiga sifatli energiya etkazib berish jarayonidan iboratdir. Issiqlik energiyasi olib yuruvchi geotermal energiyani axtarib topishni quyidagi klassifiakatsiyasini keltirish mumkin (84-rasm).Er sathidan $50-100$ m va undan ortiq chuqurlikda joylashadigan geoter-uvlar favvorali yoki aylanuvchi bo'lishi mumkin. Favvorali texnologiya hozirgi kunda ko'p ishlatiladigan turlardan bo'lib, undagi bosim atmosfera bosimidan bir necha barobar katta bo'lishi mumkin. O'z bosimi ostida yoki nasoslar bilan ko'tarib berilgan favvorali suvlar ishlatib bo'lingandan sung tashlab yuborilishi kerak. Tarkibida har xil tuzlar va boshqa atrof-muhitga zarar keltiruvchi moddalar borligi tufayli ulardan foydalanish uncha ham maqsadga muvofiq emas. SHuning uchun bu usul uncha qo'llanilmaydi.

17-mavzu.Quyosh energiyasidan foydalanish. Quyosh elektrstansiyasi (QES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

Reja:

1.Quyosh energiyasidan foydalanish.

2. Quyosh elektrstansiyasi (QES) konstruksiyasi, ishlash prinsipi va parametrlari.

1. Quyosh energiyasidan foydalanish.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon quyoshga sig'inib kelgan, uni xudo o'rnida ko'rganlar. CHunki u xaqiqatdan xam er yuzida hayot manbaidir. Qadimgi Misr firaVinlaridan biri (Nefertitining eri) Exnaton ismini qabul qilgan (Atonga - quyoshga sajda qiluvchi), ya'ni Exnaton - tabiiy termayadro reaktoriga sajda qilgan. quyoshdagi energiyani hosil bo'lishi - termayadro reaksiyasi tufaylidir. Quyosh nurlari - bu vodorodning 4 dona va geliyning bir dona atomining qo'shilganidir [19, 29].

Termayadro reaksiyasi quyoshning ichida temperatura $t^0 = 20$ mln. S^0 ga etganda boshlanadi. SHuning uchun termayadro energiyasi er yuzidagi barcha energetik resurslarning birinchi manbai hisoblanadi; ko'mir, neft, gaz; gidroenergiya; shamol va okeanlar energiyasi.

Quyosh er yuzida barcha energiya turlarining manbai hisoblanadi. Quyosh har sekunda o'rtacha 88×10 kaloriya issiqlik yoki 368×10 TVtenergiya tarqatadi. Ammo bu energiya miqdorining atigi $2 \times 10^{-6} \%$, ya'ni 180×10^6 TVt miqdorigina er yuzasiga etib keladi. SHu miqdor ham er yuzidagi barcha doimiy energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalarning energiyasidan taxminan

5000 barobar ko'pdir.

Quyosh energiyasi kadastri.

Quyosh radiatsiyasi oqimi hamda tashayotgan energiya yig'indisi to'g'risi- dagi ma'lumotlar quyosh kadastri hisoblanadi. Quyosh kadastri to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi ko'rsatgichlarga asosan yig'iladi:

- quyosh radiatsiyasining gorizont tekislikka tushayotgan oylik va yillik yig'indilari;
- gorizont tekislikka to'g'ri normal-urinma holatida tushayotgan quyosh nurlari;
- quyoshning nur sochish vaqti.

Umuman quyosh radiatsiyasi oqimi hamda tushayotgan energiya yig'indisi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi usullar bilan olish mumkin:

- aniq geografik nuqtadagi ma'lumotlarni hisoblash yo'li-analitik usul bilan;
- qisqa muddatda aniq geografik nuqtada, asbob va jihozlar bilan o'lchash orqali, to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olish bilan;
- qabul qilingan yagona usul bilan ko'p yillik o'lchashlar o'tkazgan meteorologik stansiyalarining ma'lumotlari yig'ilgan ma'lumotnomalar- dan ma'lumot olish bilan.

Quyosh energiyasidan foydalanishni hisoblashda asosan, quyosh nurining 1 m maydonga berayotgan energiya miqdori hisobga olinadi. Koinotning atmosfera qatlamidan yuqori qismiga tushayotgan quyosh radiatsiyasining energiyasi 1,395 kVt/m ni tashkil qiladi va bu miqdor quyosh doimiysi deb ataladi. Ammo bu miqdor er yuzasiga etib kelguncha har xil qarshiliklarga uchraydi hamda yilning fasli va hisob qilinayotgan hududning kengligiga nisbatan uning miqdori o'zgarib turadi. Masalan, Er yuzasiga tushadigan quyosh nurlarining o'rtacha intensivligi:


- Evropa mamlakatlarida - 2 kVt soat/m ;
- Tropik va Osiyo mamlakatlarida - 6 kVt soat/m ga teng.

O'zbekiston Respublikasi serquyosh mamlakatlardan hisoblanadi.

Biryilda o'rtacha [13]:

- 300 kun quyoshli kun hisoblanadi;
- $2980^{\circ}3130$ soat temperaturaning o'rtacha mikdori $+42^{\circ}$ S ni, kunning uzunligi 14-16 soatni tashkil kiladi (60-rasm);
- cho'l rayonlarida temperatura $+70^{\circ}$ S gacha ko'tariladi;
- har bir m maydonda 1 yilda 1900-2000 kVt gacha quyosh radiatsiyasi hosil bo'lishi mumkin (61-rasm).

57- rasmda O'zbekiston Respublikasida hududning kengligi va yilning fasliga nisbatan kunning yorug' vaqti, 61-rasmda esa Markaziy Osiyo mamlakatlarida quyosh



radiatsiyasining taqsimlanishi ko'rsatilgan. 61-rasmda O'zbekiston Respublikasi hududning 16 hamda 21 kengliklarida kunning yorug'lik davri 16-17 soatni tashkil qilishi ko'rinib turibdi.

58- rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi.

Quyosh energiyasini yig'uvchi qurilmalar. Quyosh energiyasidan issiqlik ishlab chiqarishda ham, elektr energiya ishlab chiqarishda ham foydalanish mumkin. Birinchi holatda yassi konsentratsiyalashgan quyosh kollektorlari qo'llaniladi. Ulardan issiqlik tashuvchi sifatida suv, havo yoki antifrizlar ishlatish mumkin. Ikkinchi holatda esa, yorug'lik oqimi energiyasi fotoelektr o'zgartirgichlarda bevosita elektr energiyasiga aylanadi yoki issiqlik elektr stansiyalarning an'anaviy sxemalar ishlatiladi.

Insoniyat qadim zamonlardan quyoshning qudratini sezganlar va o'zlarini bir umr unga bog'liq ekanliklarini his qilganlar. SHuning uchun quyoshdan to'xtovsiz ko'proq foydalanishni o'ylaganlar. Avval quyosh nuridan qo'shimcha energiya olish-suvni va binolarni isitish, dengiz suvlarini tozalash va boshqa maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilishganlar.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda ekologik toza energiya hisoblangan quyosh energiyasidan foydalanishga harakat qilinmoqda. Quyosh nurlari energiyasi, issiqlik hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanilmoqda.

Birinchi holatda yassi konsentratsiyalashgan quyosh kollektorlari qo'llanilsa, ikkinchi holatda yorug'lik oqimi energiyasi fotoelektr o'zgartirgichlar yordamida bevosita elektr energiyasiga aylantiriladi (yoki quyosh nuridan olingan issiqlik energiyasidan, ana'naviy issiqlik elektr stansiyalaridagidek foydalaniladi).


Past temperaturali ($100\text{ }^{\circ}\text{S}$ gacha) issiqlikni quyosh energiyasi yordamida olish, hozircha ishlab chiqilgan texnologiyalar bo'yicha uncha murakkab emas va u er yuzasining har xil nuqtalarida uzoq vaqt rivojlanish tarixiga ega. 62 va 63- rasmlarda quyosh nurlarini yig'uvchi qurilmalarning turlari ko'rsatilgan.

Issiqlik ishlab chiqarish. Quyosh energiyasidan issiqlik olish uncha qiyin jarayon emas. Nazariy jihatdan quyosh nurlarini yig'uvchi moslamalar yordamida $5600\text{ }^{\circ}\text{S}$ ga yaqin issiqlik olish mumkin. Dunyoda ikkita ulkan quyosh pechlari mavjud: O'zbekiston Respublikasi va Fransiya.

Oa)




b) temperaturasi $-1^{\circ} = 4000-4500\text{ }^{\circ}\text{S}$ ga teng, Fransiya



63- rasm. O'zbekiston Respublikasidagi quyosh pechi:

a-quyosh pechining yassi geliostatlar maydoni; b-geliostatlarning yaqindan ko'rinishi; v-geliostatlarga tushayotgan quyosh nurlarini yig'ib oluvchi geliostatlar minorasi (1) va quyosh pechi (2); g-quyosh pechining umumiy ko'rinishi
ishga tushirilgan quyosh pechining temperaturasi esa $-1^{\circ} = 3800\text{ }^{\circ}\text{S}$ ga etadi [4].



64-rasm. Quyosh nuridan quvvat oladigan suv isitgich qurilmaning soddalashtirilgan sxemasi. mukammallashtirish, quyosh nurlarining issiqlikka aylantirish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda. Bu qurilmalarning asosiy sxemasi - suyuq yoki gaz holatidagi issiqlik qabul qiluvchi yassi quyosh kollektorlari qurilmasidan tashkil topgan (64-rasm). Bu sistema, binolarni issiq suv bilan ta'minlash va isitishda qo'llaniladi.


Quyoshdan quvvat oladigan suv isitgich moslamalar quyosh kollektor orqali suv haroratini oshirish uchun quyosh nurlari energiyasidan foydalaniladi. SHaffof qoplamali havo o'tkazmaydigan korpusli, qora rangga bo'yalgan, suv o'tkazgich naychalarga ega singdiruvchan metall plastina va korpusining orqa hamda yonbosh devorlarida issiqlikni yo'qotmaslik uchun izolyasiyalangan yassi quyosh kollektorlari keng tarqalgan.

64- rasmda izolsiyalangan quvur - kollektorlarga uzatilgan suv, quyosh nuri ostida 100 S⁰ gacha isitiladi hamda quvurlar orqali iste'molchiga - binolarni issiq suv bilan ta'minlash va isitishga uzatiladi. Binolarni isitishga uzatilgan suvsovugandan sung nasoslar yordamida (yoki o'z oqimi bilan) yana isitish kollektorlariga uzatiladi. Jarayon shu tarzda davom etadi. Quyidagi 17-jadvalda quyosh suv isitgichlarning taxminiy narxlari keltirilgan. Elektroenergiya ishlab chiqarish. Quyosh energiyasidan ikki xil usulda elektroenergiya ishlab chiqarish mumkin.

1. Ana'naviy usulda - suyuqlikni isitish va hosil bo'lgan bug'ni issiqlik turbinasiga uzatish orqali.

2. Fotoelektr usulida. 17-jadval. Quyosh suv isitgichlarning taxminiy narxlari, AQSH dollari.

Unumdorligi, l	Kollektorning maydoni, m	Narxi, AQSH dollarida
100	1,5	1000
200	3,0	1350
300	4,5	1900
450	6,0	2400



Ana'naviy usulda quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun quyosh energiyasini yig'ib oluvchi geliostatlarning-1 energiyasi suvga to'ldirilgan bug' qozoniga-2

yo'naltiriladi. Hosil bo'lgan bug', generatorni-4 harakatga keltiruvchi issiqlik turbinasiga-3 uzatiladi. Turbinani harakatga keltirib ish bajargan bug' kondensatorga-5, bug'ni suvga aylantiruvchi moslamaga uzatiladi. Kondensatordan chiqqan suyuqlik yana quyosh geliostatlariga uzatiladi va shu tariqa jarayon davom etadi. 65-rasmda quyosh energiyasini suyuqlik - bug' yordamida elektr energiyasiga aylantirish sxemasi berilgan. Fotoelektr usulda elektr energiyasi ishlab chiqarish. Ma'lumki quyosh nurini elektromagnit to'lqinlari deb qarash mumkin. Kvant nazariyasiga asosan, elektromagnit to'lqinlariga nol massali elementar zarrachalar - fotonlar deb qaraladi. Quyosh energiyasini fotoelektrik energiyaga kayta aylantirish asosida 1887 yilda Gers tomonidan yaratilgan, yorug'lik fotonlarning ba'zibir metallarning elektronlari bilan kirishuvi natijasida elektronlar ma'lum mikdordagi energiyaga ega buladilar. Mana shu energiyadan foydalangan holda quyosh energiyasidan to'g'ridan-to'g'ri elektroenergiya olish mumkin. Bu jarayonga fotoeffekt xodisasi deyiladi. SHunday kilib, fotoelektor yacheykalarida yorug'lik nurlanish energiyasi elektr energiyasiga aylantiriladi. Fotoelektr yacheykalarini tayyorlashda birinchi bulib mono yoki polikristall kremniydan foydalanilgan kunda bu elementdan tayyorlanadigan yacheykalar, butun dunyoda urnatilgan tizimlarning 80 foizini tashkil etadi. Ularning foydali ish ko'effitsenti 11^{16} foizni tashkil etadi.

Keyingi vaktlarda fotoelektor yacheykalaramorf kremniy, kadmiy - tellurid yoki mis - indiy-selindan yupka plyonkalar shaklida tayyorlana boshladi. Ularning foydali ish ko'effitsenti qariyb 8 foizni tashkil etadi, biroq mono yoki polikristall kremniydan tayyorlanadigan fotoelektr yacheykalarga qaraganda tayyorlanishi arzonrokdir.

Hozirgi vaqtda fotoelektr yacheykalarining foydali ish ko'effitsenti- ni 30^{60} foizga oshirish ustida ilmiy-tadkikot ishlari olib borilmokda. Buning uchun plyonkalarni 4^8 marta ustma- ust o'rnatish zarur buladi. Ushbu tadkikotlar natijasida qurilma quvvati oshiriladi hamda ishlab chikarish narxi keskin pasayadi. Fotoelektr tizimi doimiy elektr tokini ishlab chiqaradi va inverter yordamida doimiy elektr toki, o'zgaruvchan tokka aylantiriladi

Quyosh elektrostansiyalari.

Bir necha quyosh qurilma(batareya)larini bir-biriga ulab quyosh elektrostansiyalarini tashkil qilish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda juda ko'plab quyosh elektrostansiyalari qurilib ishga tushirilgan. 2.5-paragrafda dunyodagi eng katta quyosh elektrostansiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Mamlakatimizning Samarqand viloyatida, Osiyo taraqqiyot bankining yordamida, dunyoda eng yirik quyosh fotoelektrik stansiyasi qurilishi rejalashtirildi. Quyosh elektrostansiyasi 400 ga maydonga joylashib, uning quvvati 100 MVt ni, yillik elektroenergiya ishlab chiqarish esa, 200 mln. kVt/soatni tashkil qiladi. Elektrostansiyaning qurilishi 5 yil davom etib, 2019 yilning mart oyida ishga tushirilishi kutilmoqda [5].

«O'zbekenergo» DAK mutaxassislarining hisoblariga qaraganda O'zbekiston Respublikasi hududi, quyosh energiyasi bo'yicha juda katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatdagi barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 99 % ni quyosh energiyasi tashkil qilib, 50mlrd. tonna neft ekvivalentiga teng ekanligi aniqlandi. Hukumatning noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha olib borayotgan tadbirlari natijasida 2031 yilda mamlakatda iste'mol qilinayotgan elektroenergiyaning 21 % qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqariladigan elektroenergiya bilan qoplanadi.

Xalqaro hamjamiyatning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha tajribalari bilan tanishish uchun, Hukumatimiz tomonidan ko'plab halqaro ilmiy anjumanlar tashkil qilinmoqda. «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari Markaziy Osiyoda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hamda uzoqda joylashgan aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilovchi muhim omildir» mavzusida 2008 yil noyabr oyida o'tkazilgan halqaro anjuman ham, ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy, ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik va qaytalanuvchi energiya manbalariga o'rnatilgan energetik qurilmalar bilan tanishish imkonini berdi [58].



Hozirgi kunda quyosh energiyasidan foydalanish uchun juda katta investitsion mablag'lar

kiritilmoqda. 2013 yilning noyabr oyida mamalakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan Toshkentda, «Quyosh energetikasi texnologiyalarining istiqbollari va yo‘nalishlari» mavzusi-da «Quyosh energiyasi bo‘yicha Osiyo forumi»ning 6-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi [28]. Ushbu yig‘ilishda Prezidentimiz, oxirgi 5 yilda quyosh energiyasidan foydalanishga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori 520 mlrd. dollarni, shundan 2012 yilda 143 mlrd. dollarni tashkil qilganini, 2012 yilda quyosh energiyasidan elektroenergiya ishlab chiqarish 113 mlrd. kVt/soatni, shundan fotoelektrik quyosh stansiyalari bilan 110 mlrd. kVt/soat elektroenergiya ishlab chiqarilganini ta’kidlab o‘tdilar [28, 53-bet].

Kosmik quyosh elektrostansiyalari.

Hozirgi kunda quyosh radiatsiyasi zichligining kamligi, uning yilning fasliga hamda ob-havoga bog‘likligi tufayli, quyosh energiyasidan katta miqdorda elektroenergiya olish imkoni yo‘q. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun erning sun‘iy yo‘ldoshi shaklidagi quyosh elektrotan- siyalarini qurish lozim. Natijada obi-havoning qanday bo‘lishiga qaramas- dan, quyosh energiyasidan kunning 24 soatida foydalanish mumkin. Sun‘iy er yo‘ldoshlariga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyalari ishlab chiqaradigan elektroenergiya, erdagi iste’molchilarga ultra qisqa to‘lqinlar(uzunligi 10 sm ga teng) kanali orqali uzatiladi. Uzatilgan to‘lqinlar erdagi qabul qilish antennalari yordamida qabul qilinadi va erda sanoat chastotasi energiyasi(50 gs)ga aylantirilib iste’molchiga uzatiladi [19, 29, 30].

Sun‘iy er yuldoshlariga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyalari foy- dali ish koeffitsientini kelajakda 77-95 % ga etkazish rejalashtirilgan. Quyosh elektrostansiyalarining o‘rtacha qamraydigan maydoni 20 km ga teng bo‘lib, uzatish antenasining diametri 1 km ga va qabul qilish antenasining diametri 7-10 km ga teng bo‘ladi. 68-rasmda erning sun‘iy yo‘ldoshiga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyasining sxemasi keltiri



68-rasm a) sun‘iy yo‘ldoshga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyasining sxemasi; b) sun‘iy yo‘ldoshga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyasining umumiy ko‘rinishi. 1-qiyosh energiyasining sun‘iy yo‘ldosh kollektori; 2-qiyosh energiyasining sun‘iy yo‘ldosh kollektori; 3-qiyosh energiyasining sun‘iy yo‘ldosh kollektori; 4-qiyosh energiyasining sun‘iy yo‘ldosh kollektori; 5-qisqa to‘lqinli nur; 6-energetik sun‘iy yo‘ldoshning doimiy orbitasi; b-sun‘iy yo‘ldoshga o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyasining umumiy ko‘rinishi.

18-mavzu. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar. Energetika va suv xo‘jaligida QEMLardan kompleks foydalanish. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar. Nasos stansiya va quyosh-shamol elektrostansiyasining birgalikdagi ishi. GES, SHES va QESlarni kompleks ishlatish.

Reja:

1. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar
2. Energetika va suv xo‘jaligida QEMLardan kompleks foydalanish.
3. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar. Nasos stansiya va quyosh-shamol elektrostansiyasining birgalikdagi ishi. GES, SHES va QESlarni kompleks ishlatish.

1. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar

Energetika tizimining asosiy an‘anaviy elektr energiya hosil qiluvchi energetik qurilmalari bo‘lgan gidroelektr stansiyalar va issiqlik hamda atom elektr stansiyalari qanday ishlaydi hamda

qanday tashkil etuvchi asosiy qurilmalardan iborat bo'lishi kerak? Elektr energiyaning noan'anaviy manbalarining ishlash asoslari va energetika tizimida tutgan o'rni qanday? Bu energetik qurilmalarda hosil qilingan elektr energiya minglab iste'molchilarga qanday texnik uzatish vositalari yordamida o'zatiladi?

Magnit kuch ta'sirida elektr toki yoki elektr zaryadlarning harakati paydo bo'lishi muqarrarliligi fizika kursidan ma'lum.

Har xil qutbli magnitlar orasiga joylashtirilgan simli ramka o'z o'qi atrofida aylantirilganida magnit kuchlar ta'sirida simdagi ozod elektronlar ramkaning bir tomoniga yo'naladi. SHunday qilib, ramkaning bir chekkasida elektronlar miqdori oshib, ikkinchi chekkasida elektronlarning etishmovchiligi yuzaga keladi. Bu esa elektr yurituvchi kuchni yuzaga keltiradi va bu kuch elektronlarni yopiq elektr zanjir buylab ma'lum bir yo'nalishda harakatlantirishga majbur qiladi.

Quvvati va konstruktiv tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar barcha elektr mashinalar shu asosda ishlaydi. Sanoat mashina va mexanizmlariga o'rnatilgan elektr mashinalar konstruktiv jihatdan bir muncha murakkabdir. Bitta simli ramka o'rniga elektr mashinada ko'p ramkalar bo'lib, ular umumiy cho'lgamga birlashtirilgan bo'ladi. Katta quvvatli elektr mashinalarda tabiiy magnit o'rniga po'lat o'zakka cho'lg'am o'ralib, o'nga alohida o'zgarmas tok manbaidan tok yuborilib yanada quvvatli sun'iy magnit hosil qilinadi.

Katta quvvatli elektr mashinalarda tok hosil qiladigan cho'lg'amlar mashinaning qo'zg'almas qismi, ya'ni statorida joylashtirilgan bo'ladi. Elektr mashinaning qo'zg'aluvchi qismida – rotorida sun'iy magnit kuchlarini hosil qiluvchi cho'lg'am joylashtiriladi.

Elektr stansiyalardagi gidro yoki bug' turbinolari elektr mashinalarning rotorlarini aylantirib stator chulg'amlarida elektr energiya hosil qilinadi. Elektr energiya hosil qiluvchi elektr mashinalar generatorlar deb ataladi.

Elektr generatorlarning stator cho'lg'amlari uchlariga simlar ulanadi va bu simlar orqali elektr toki iste'molchilarga uzatiladi. Iste'molchilar o'zlarinig ehtiyojlariga ko'ura elektr energiyaning mexanik, issiqlik, yorug'lik, tovush, tasvir va boshqa turdagi energiyaga o'zgartiradilar.

Elektr energiyaning eng ko'p qismi mexanik energiyaga aylantirilib, turli sanoat mashina va mexanizmlarni harakatga keltirishga sarf bo'ladi. Elektr energiyaning mexanik energiyaga o'zgartiruvchi elektr mashinalar elektr motorlar deb ataladi.


Elektr motorlarda ham uning qo'zg'almas qismi stator va undagi cho'lg'am stator cho'lg'ami deyiladi. Elektr motorning harakatlanuvchi qismi rotor deb ataladi.

Elektr motorlar o'zgaruvchan va o'zgarmas tok elektr motorlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarishning shunday sohaları borki, u erda faqat o'zgarmas tokda ishlaydigan elektr qurilmalarni ishlatish mumkin. Masalan, rangli metallurgiya korxonalarida o'zgarmas tokli elektroliz vannalarida sof alyuminiy, rux, mis va boshqa rangli metallar toza holda olinadi.

Barcha elektr tortish qurilmalarida – trolleybus, tramvay, metro, elektropoezdlarning elektr motorlari o'zgarmas tok motorlaridir. O'zgarmas tok motorlarini ishga tushirish, tezligini rostlash va tuxtatish amali o'zgaruvchan tok motorlarnikiga nisbatan oson bajariladi.

O'zgaruvchan tok motorlari eng ko'p qo'llaniladigan motorlar bo'lib (ularning asosan asinxron turi), ishlab chiqarishdagi ko'pgina mashina va dastgohlarda shu motorlar urnatilgan. Butun dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning deyarli yarmidan ko'pi shu motorlarda mexanik energiyaga o'zgartiriladi. Hozirga kelib, yarim utkazgishlar texnikasi va mikroelektronikaning tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli boshqariluvchi o'zgaruvchan tok o'zgartkichlarning keng qullanilishi o'zgaruvchan tok motorlarining qullash doirasini kengaytirib yubordi.



3.1.Rasm. O'zgaras (a) va o'zgaruvchan (b) tok generatorlarining ishlash asoslari

O'zgaruvchan va o'zgaras tok motorlari qanday qismlardan tashkil topgan?


O'zgaruvchan tok elektr mashinasi generator bo'lib ishlaganida ramkaning har ikki uchi alohida halqachalarga chiqarilib shchutkalar vositasida yuklanishga (bizning misolda, elektr lampochka) ulanadi (a– rasm). Bu halqachalar ramka bilan birga aylanadi. Ramkaning o'ng qismi pastga to'g'ri kelganida tokning yo'nalishi teskari tomonga o'zgaradi. Buning sababi, ramka boshqa magnit qutbi kuch chiziqlari ostiga tushib qoladi. Xuddi shu holat ramkaning ikkinchi tomoni


bilan ham ruy beradi. Demak, halqachalardan, shcho'tkalar vositasida, tashqi elektr zanjiriga ulangan yuklanishda, ya'ni elektr lampochka nakalida ramkaning tuliq bir aylanish vaqti ichida tokning yo'nalishi ikki marta o'zgaradi.

Yo'nalishi o'zgarib turadigan tok o'zgaruvchan tok deyiladi. O'zgaruvchan tok manbai bo'lgan elektr mashinalar o'zgaruvchan tok generatorlari deb ataladi (elektr stansiyalarda asosan sinxron generatorlar qo'llaniladi).


Elektr lampochka nakalida o'zgaras tok hosil qilish uchun bitta halqachani teng ikkiga bo'lib, ramkaning ikki uchiga ulash kerak bo'ladi xolos (b – rasm). Ramkaning o'ng yoki chap tomonlari yarim aylana hosil qilib aylantirilganida, ramka tomonlari magnit qutblari oraligida o'z joylarini o'zgartirganida tokning yo'nalishi o'zgaradi. Ammo ramkada hosil bo'lgan toklarni qabul qilib oluvchi shchutkalar holati o'zgartirilmaganligi sababli ulardan o'tayotgan tokning yo'nalishi o'zgarmay qolaveradi.

O'zgaras tok manbai bo'lgan elektr mashinalar o'zgaras tok generatorlari deb ataladi².






3.2.Rasm. Sinusoidal o'zgaruvchivao'zgarmastok.



3.3.Rasm. Generatordan chiqayotgan sinusoidal kuchlanish



3.4.Rasm. Uch fazali generatordagi elektromagnit maydon.

2. Energetika va suv xo‘jaligida QEMLardan kompleks foydalanish.


Generatorlarni xarakatga keltirish uchun turli elektr stansiyalardan foydalaniladi. Stansiyalar elektr generatorlari xarakatga keltirish prinsiplari bilan ajralib turadi.

Elektr energiyani ishlab chiqaruvchi asosiy elektr stansiyalar³:

1. Hidro elektr stansiyalar
2. Issiqlik elektr stansiyalari
3. Atom elektr stansiyalari
4. Gazturbinali issiqlik elektr stansiyalari
5. Dizel elektr stansiyalari
6. Quyosh elektr stansiyalari
7. SHamol elektr stansiyalari

Tiklanuvchan elektroenergiya manbalari:

1. Hidro elektr stansiyalar
2. Quyosh elektr stansiyalari
3. SHamol elektr stansiyalari
4. Geotermal elektr stansiyalar
5. Biomassadan foydalanuvchi elektr stansiyalar va boshq.



3.5.Rasm. GES generatorning qismlari

Elektr energiyani uzoq masofalarga uzatishda transformatorlardan foydalaniladi.

Bilamizki, elektronlar oqimi o'tkazgichning qarshiligini engib, o'tkazgichdan o'tayotganida o'tkazgich materialining atomlari bilan to'qnashishi natijasida elektronlarning bir qismi to'xtab qolsa, bir qismi yo'nalishini o'zgartiradi. Atomlar kuchli tebrana boshlaydi, atomlar qancha ko'p tebransa o'tkazgichning harorati shuncha yuqoriga ko'tariladi.


Demak, elektr tokining bir qicmi beihitoyor o'tkazgichlarni, ya'ni simlarni qizishiga sarf bo'lar ekan.

Uzoq masofalarga katta miqdordagi elektr energiyani uzatish jarayonida simlarni qizdirishga sarf bo'ladigan energiya isrofi o'z – o'zidan oshib ketadi. Bundan qanday qilib qutilish mumkin?

Transformatorning kashf etilishi, ishlab chikarilayotgan katta miqdordagi elektr energiyani uzok masofalarga uzatishda o'tkazgich, ya'ni elektr liniyalarda sodir bo'ladigan energiya isrofini kamaytirish imkonini yaratdi. Transformator elektr quvvatni o'zgartirmaydi balki ihtiyoriy ravishda tok kuchini oshirish yoki kamaytirish imkonini beradi.

Transformator konstruktiv jihatdan birlamchi va ikkilamchi cho'lg'amlardan va po'lat o'zakdan iborat bo'ladi. Cho'lg'am simlarining ustki qismi izolyasion material bilan qoplangan bo'ladi. Po'lat o'zak yupqa po'lat tunikachalardan yig'ilib, bu tunikachalarning orasiga izolyasion material– lak surtilib zichilgan bo'ladi. Katta quvvatli transformatorlar cho'lg'amlaridagi haroratning ruxsat etilgan qiymatidan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ham sovutuvchi va ham izolyasion material sifatida turli rusumdagi moylar qo'llaniladi.

Agar transformatorning birlamchi (yoki ikkilamchi) cho'lg'amidan o'zgaruvchan tok utkazsak, uning bu cho'lg'amida o'zgaruvchan magnit maydoni hosil bo'ladi. Bu magnit maydoni kuch chiziqlari po'lat o'zakni kesib o'tayotganida o'zakda magnit yurituvchi kuch hosil qiladi va natijada ikkilamchi (yoki birlamchi) cho'lg'amida ham o'zgaruvchan tok hosil bo'ladi.



3.6.Rasm. Sodda transformatorning tuzilishi

Har ikkala cho'lg'amlar o'ramlarining soni bir xil bo'lsa u holda birlamchi va ikkilamchi cho'lg'amlardan bir xil tok oqadi. Agar ikkilamchi cho'lg'am o'ramlarining soni birlamchi cho'lg'am o'ramlari sonidan katta bo'lsa, unda ikkilamchi cho'lg'amning uchlaridagi kuchlanish ikkilamchi cho'lg'am uramlar sonining birlamchi cho'lg'am uramlar soniga nisbatining birlamchi cho'lg'am uchidagi kuchlanish ko'paytmasiga teng bo'ladi.

Transformator ikkilamchi cho'lg'ami o'ramlari sonining birlamchi cho'lg'ami o'ramlari soniga nisbati transformatorning transformatsiya koeffitsienti deb ataladi.

Kuchlanishni ko'tarishga xizmat qiluvchi transformatorlar kuchlanishni ko'taruvchi, kuchlanishni pasaytirishda ishlatiladigan transformatorlar kuchlanishni pasaytiruvchi transformatorlar deyiladi.

Kuchlanishni kutaruvshi transformatorlardan odatda elektr stansiyalardan olinayotgan elektr energiyaning kuchlanishini kutarib, elektr uzatish liniyalariga berishda foydalaniladi. Bunday transformatorlar elektr stansiyalar va iste'molchilar oraligidagi elektr uzatish liniyalarida elektr energiya isrofini eng kam miqdorga keltirish uchun xizmat qiladi. Kuchlanishni pasaytiruvchi transformatorlar elektr uzatish liniyalarining oxirgi qismida, ba'zida bevosita iste'molchilarning o'zlariga urnatilgan bo'ladi.

Bundan tashqari o'lchov transformatorlari deb ataladigan transformatorlar ham bo'ladi. O'lchov transformatorlari tok va kuchlanish transformatorlari kabi turlarga bo'linadi. Bu transformatorlar elektr tarmogidagi katta qiymatga ega bo'lgan tok va kuchlanishlarni o'lchashda ampermetr va voltmترلar bilan elektr tarmoq oraligiga ulanadi. Bu transformatorlar nisbatan kichik qiymatdagi tok va kuchlanishlarni o'lchashga xizmat qiluvchi ampermetr va voltmترلar yordamida katta qiymatli tok va kuchlanishlarni o'lchashda yordamchi qurilma vazifasini o'taydi. Tarmoqdagi ulchanayotgan tok yoki kuchlanishning qiymatini bilish uchun ampermetr yoki voltmטר ko'rsatayotgan qiymatni o'lchov transformatorning transformatsiya koeffitsientiga ko'paytirish kifoyadir.

3.Kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar. Nasos stansiya va quyosh-shamol elektrostansiyasining birgalikdagi ishi. GES, SHES va QESlarni kompleks ishlatish.

Energiyani tejashning asosiy maqsadi - texnik jihatdan bajarish mumkin bo'lgan, iqtisodiy asoslangan va sotsiologik hamda ekologik jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan choralarni tadbiq qilish yo'li bilan energiya resurslardan yanada samaraliroq foydalanishdir. Buning uchun tabiiy resurslar qazib olingandan iste'mol qilgunga qadar oraliqda yuqori energetik foydali ish koeffitsientini bilan ta'minlanishi kerak.

Energiyani iqtisod qilishning maqsadi - milliy yalpi mahsulot ishlab chiqarish birligiga to'g'ri keladigan energiya miqdorini kamaytirishdan iborat.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ishlab chiqarishni pasayishi, inqirozni kuchayishiga, aholining yashash sharoitini yomonlashuviga sabab bo'ladi. SHuning uchun mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston

sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli risolasida inqiroz ta‘sirini kamaytirish yo‘llaridan biri, «Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko‘p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejamli foydalana olishimizga bog‘liqdir» deb aytib o‘tgan [1, 2] .

Energiyani tejash turlari. Iqtisodiy yuksalish har tomonlama energiya iste‘mol qilishining o‘ssishi bilan bog‘liqdir. Energiyaning narxi, energiyadan oxirgistadiyada kanday foydalanishga bog‘liqdir. Narx belgilash energiyani tejashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi kerak. Energiya narxini quyidagi faktorlarga mos holda qarab chiqish zarur: yoqilg‘ini yonish issiqligi, shu bilan bir qatorda energetik resurslardan samarali foydalanishga harakat qilish lozim. Energiya narxini ko‘tarilishi, iste‘molchilarni energiya bilan ta‘minlash va energiya iste‘mol qilishni birgalikda olib borish yo‘llarini axtarishni, yangi texnologik echimlarni axtarib topishni va ularni ishlab chiqarishga tadbiriq qilishni taqazo qiladi.

Mamlakatlarning hukumatlari, bozor iqtisodiyoti mexanizmiga moslashishi va energiyadan samarali foydalanishni rag‘batlantirish choralari qabul qilishlari kerak. Hukumat quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi siyosatni amalga oshirish mumkin

energiya isrofini kamaytirish;

- energiyani tejashga yo‘naltirilgan texnik echimlarni rag‘batlantirish;
- bir turdagi energiya resurslarini boshqa turdagi energiya turi bilan siqib chiqarilishi;
- energiyani ko‘p iste‘mol qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni chegaralash (cheklash);
- energiya iste‘mol qiluvchi qurilmalar uchun milliy standartlarni kuchga kiritish;
- noan‘anaviy va boshqa energoresurslar to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlarni mablag‘ bilan

ta‘minlash.

Hukumat elektr energiyasini tejash bo‘yicha qonunlar qabul qilishi, o‘tkaziladigan tadbirlarni mablag‘ va soliq to‘lashdagi ba‘zi imtiyozlar bilan rag‘batlantirish mumkin. Masalan, sanoat uchun ishlab chiqarishni tadbiriq qilish lozim. Energiya iqtisod qiluvchi maishiy uskunalarni ishlab chiqarish bo‘yicha tuzilgan dasturlarni rag‘batlantirishi lozim.

Kombinatsiyalashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chikaruvchi ishlarni olib borish zarur. Bu ishlar energiyani juda ko‘p tejash imkonini beradi.

Sanoat korxonalaridan tashlanayotgan past temperaturali issiqlikni, ikkinchi marta markaziy isitish tizimlarida qo‘llashni kengaytirish lozim.

Dastlabki hisoblarga qaraganda, metallurgiyada 11% ga yaqin, sellyulyuza- qog‘oz sanoatida 4-12%, sopol va shisha mahsulotlari ishlab chiqarishda 8%, alyuminiy ishlab chiqarishda esa - 6% energiyani tejash mumkin ekan.

Transportning rivojlanishi neft mahsulotlariga juda bog‘liqdir. SHuning uchun transportdan energiyani iqtisod qilish bo‘yicha ko‘riladigan choralar, juda katta yoqilg‘ini tejashga olib keladi. Buning uchun mashina-larning yoqilg‘ina iqtisod qilish imkoniyatini oshirish va yoqilg‘i sarfini kamaytirish lozim.

Katta miqdordagi energiya binolarda sarflanadi: isitish, issiq va sovuq suv uzatish, sun‘iy iqlim yaratish va boshqalar.

Qurilish sektorlariga, qurilish texnikasining yaxshilangan turlarini, energiya iqtisod qiluvchi binolar va jihozlarni qurish uchun material va jihozlarni tadbiriq qilish zarur. Binolarda temperaturani termostatik yo‘l bilan tartibga solishni amalga oshirish zarur.

Energiya ta‘minotining iqtisodini ko‘tarish uchun, tubdan o‘zgarishlar qilishni faqat kelajakda amalga oshirish mumkin. Buning uchun, albatta, ya‘ni yoqilg‘i elementlarini o‘zlashtirish va yangi texnologiya va jarayonlar rivojlangan bo‘lishi lozim. YOqilg‘i texnologiyalari bu - magnitogidro-dinamik generatorlar, yuqori temperaturali gaz reaktorlari, tez neytronlarga asoslangan reaktor-ko‘paytirgichlar va termoyadro reaktorlaridir.

Energiya tejashning katta qismi, takomillashtirilgan texnologiyalarni asta-sekin tadbiriq qilish

jarayonida amalga oshiriladi.

Energiyani tejash dasturini hayotga tadbiq qilish uchun, iste'molchini iqtisodiy, energiya narxini ko'tarish va uni tejashni mablag' bilan ta'minlash, imtiyozlar berish yo'li bilan qiziqtirish, energetik ilmiy izlanishlarni mablag' bilan ta'minlash va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Nazorat uchun savollar

1. Kanday turdagi elektr energiya ishlab chikaruvchi energetik kurilmalarni bilasiz?
2. Tiklanuvchan noan'anaviy elektr energiya manbalariga kanday energetik kurilmalar kiradi?
3. Transformator kanday vazivani bajaradi?
4. Transformatsiya koeffitsienti kanday kattalik?
5. Transformatorlar kanday turlarga bulinadi?

Adabiyotlar

1. Majidov T.SH., Noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Toshkent - 2014. -177 s.
2. Голицын М.В., Голицын А.М., Альтернативные энергоносители. Изд-во Наука, 2004 -157с.
3. Четошникова Л.М. Нетрадиционные возобновляемые источники энергии. Изд-во ЮУрГУ, 2010 -70с.
4. Зысин Л.В.,Сергеев В.В. Нетрадиционные возобновляемые источники энергии. Изд-во Санктпетербург, 2008 -193с.
5. Сибикин Ю.Д., Сибикин М.Ю., Нетрадиционные возобновляемые источники энергии. Изд-во Дом печати-ВЯТКА, 2012 -229с.
6. Городов Р.В., Губин В.Е., Нетрадиционные возобновляемые источники энергии. Изд-во ТОМСК, 2009 -294с.
7. Германович В.Турилин А. Альтернативные источники энергии и энергосбережение. Изд-во Наука и Техника, 2014 -320с.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Аллаев К.Р., Энергетика мира и Узбекистана.Т «Фан ва техналогия» 2009. -464 с.
2. Аллаев К.Р., Энергетика мира и Узбекистана. Аналитический обзор. -Т.: Издательство «Молия», 2007. -388 с.
3. Хошимов Ф.А., Таслимов А.Д., Рахмонов И.У., Электр таъминоти тизимида энергия назорати ва ҳисоби. Т 2014

Gidrotexnika manbalaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri suv oqimining mahalliy energiya potensialidir. MikroGESni joyini tanlashda uning energiya miqdorini aniqlash bilan bog'liq kompleks misollarni yechishga to'g'ri keladi; suvning bosimi va uning tushish balandligi; hajmiy sarfi va tezlik; bosim quvurining o'lchamlari; masofa va quvvatni generatordan generatorga va iste'molchilarga quvvat liniyalari orqali etkazib beradigan masofa va quvvatni hisoblash, energiya zahiralari tizimi va uning xarajatlarini boshqarish tizimlarining mavjudligi.

MikroGESning quvvatini va uning turini aniqlashning asosiy hisoblash parametrlari.

Kichik gidroelektr stantsiyasining suv g'ildiragining asosiy o'lchamlari, suv oqimining tezligi v , suv hajmi Q , suvning g'ildiragiga ishlaydigan suvning miqdori va H suv chuqurligi. Adabiyotni o'rganish shuni ko'rsatadiki, suv g'ildiragining samaradorligi va ixchamligi uning tashqi diametri $D > 2H$ sifatida tanlangan bo'lishi kerak. Suv g'ildiragini cho'kish chuqurligi, tashqi va ichki diametrlar orasidagi farq empirik formuladan aniqlanadi:

$$\delta = k \sqrt[3]{\frac{D}{H}} 0.5 \sqrt[3]{\frac{2}{0.509}} = 0.7; (1)$$

bu erda $0.4 < k < 0.5$ suv g'ildiragining suvning koeffitsienti. Suv g'ildiragi kengligi formula bilan aniqlanadi $Q = 0.56 \text{ m}^3$

$$B = \frac{Q}{vk\delta} = \frac{0.56}{2 \times 0.5 \times 0.7} = 0.799 \text{ m}; (2)$$

Suv g'ildiragining parragi maydonini formula yordamida topamiz

$$S = \delta B \left(1 + \frac{\cos 2\alpha}{\sin \alpha} \right) = 0.7 \times 0.799 \left(1 + \frac{1.9}{0.29} \right) = 4.22 \text{ m}^2; (3)$$

Bu yerda α parraklarning suv sathiga moslashish burchagi (parraklar kengligi suv g'ildiragining B uzunligi bilan bir xil). α burchagi suv g'ildiragining muhim parametri hisoblanadi. Bu burchakning qiymatini tanlab olish kerak

$$\alpha = 180^\circ - \arcsin \left(\frac{D-2l}{D} \right) (4)$$

bu erda l - parrakning uzunligi:

$$l = \sqrt{B^2 + \delta^2} = \sqrt{0.799^2 + 0.7^2} = 1.06 \text{ m};$$

Keyinchalik ma'lum bir vaqtda suv massasini aniqlaymiz, ya'ni suv g'ildiragi "cho'ntagida" suv massasi. Suv g'ildiragida harakat qiluvchi suv massasining qiymati o'zgaruvchan, chunki "cho'ntak" suv oqimi bo'ylab harakat qilganda, bu massa boshqa qiymatga ega bo'ladi, shuning uchun uni quyidagi diferensial tenglama bilan aniqlaymiz

$$\frac{dm}{dt} = \rho S(v - \bar{v}) = 1000 \times 4.22(2.3 - 2) = 1266 (5)$$

bu erda p - suvning zichligi, v - parrakdagi harakatdan so'ng suvning tezligi. Parrakning suv oqimi bo'ylab harakatlanayotganda, bir turbulent jarayoni paydo bo'ladi, shuning uchun suvning tezligi v odatdagi tezlik v dan farq qiladi, ya'ni. $v = cv$, $0 < c < 1$, suv g'ildiragining burchak tezligi bevosita chiziqlik tezligiga bog'liq, ya'ni:

$$w = \frac{4v}{D \left(1 + \frac{\cos \alpha}{\sin \alpha} \right)} = \bar{v} \frac{D}{2} = 2.3 \frac{2}{2} = 2.3 \frac{\text{m}}{\text{s}} (6)$$

Suv g'ildiragidagi parrakning teng kuchi ham o'zgaruvchan va quyidagi differensial tenglama bilan belgilanadi:

$$F = \frac{d}{dt} (m(v - \bar{v})) = pSv^2((1 - c^2)) (7)$$

Suv g'ildiragining quvvati vaqt birligida qilingan ishi bilan hisoblash mumkin, boshqacha qilib aytganda, quvvat - bu ishning tezligi:

$$P = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta A}{\Delta t} = \frac{dA}{dt} (8)$$

Shunday qilib, suv g'ildirak quvvatini hisoblash uchun tenglama topiladi:

$$P = \frac{dA}{dt} = \frac{K(F_u)d\theta}{dt} = K(F_u)\omega$$

Shunday qilib, suv g'ildiragining quvvati burchak tezlik bilan tengdir. Nazariy mexanikadan ma'lumki, differensial tenglama (7) bo'yicha suv g'ildiragining quvvati formulalar yordamida aniqlanadi

$$P = \rho S_{cm} v^3 c (1 - c)^2 (9)$$

Shuni ta'kidlash joizki, suv g'ildiragi S_{cm} ning a burchagidagi suv bilan kesib o'tgan maydoni ham o'zgarmoqda, aniqrog'i, parrakning bu joylari suvga kirganda va uni tark etganda kamayadi. Ushbu yuzasidagi maydon a burchagiga qarab, eksperimental usulda topilgan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S_{cm} = \frac{\left(1 - \frac{B}{r} \cdot \frac{1}{\sin a}\right)}{\left(1 - \frac{B}{r}\right)} S \quad (10)$$

$$\psi = \frac{\left(1 - \frac{B}{r} \cdot \frac{1}{\sin a}\right)}{\left(1 - \frac{B}{r}\right)}$$

Suv darajasi 1 m bo'lsa, unda suv g'ildiragining diametri 2 metrdan iborat. Natijada (1) - (3) formulalari asosida, suv g'ildiragining balandligi formula (4) bo'yicha * 0.509 m, kengligi * 0.799 m, parraklar suvga kirgan holda "16 °" burchagiga kiradi.

Suv zichligi * 1000 kg/ m .

Yuqoridagi formuladan (6, 8, 9) 1 - jadvalida berilgan. Suv g'ildiragining aylanishining burchak tezligi ω ning taxminiy qiymatlari, suvning g'ildiragining aylanish tezligi qiymati, quvvat P ning suvning chiziqlik v tezligiga bogliq qiymat.

1-Jadval

$v, m/s$	2	2,3	2,5	2,7	3
$\omega, ay/daq$	76,42	87,8	95,4	103,2	114,6
$P, J/s$	4608	9472	13824	15872	18432

1-jadvaldan, biz o'rtacha quvvat qiymatini topamiz $P \approx 12441 J / s$.

Ushbu hisoblar natijalari harakatdagi suvning mexanik energiyasini elektr energiyasiga aylantiradigan generatorni tanlashda foydalidir.

Quyida keltirilgan matematik model asosida suv g'ildirak hisob-kitoblarining natijalari jadvalda 2-jadvalda umumlashtiriladi.

2-jadval

Suv g'ildiragi mikrogidroelektr stantsiyalarining o'lchamlari


№	Parametr nomlari	Olchamlari , mm
1	Tashqi diametri	$2000 \pm 3,7$

2	Ichki diametr	$1000 \pm 2,3$
3	Parrakning ichki qismi	$509,44 \pm 0,875$
4	Parrakningtashqi qismi	799 ± 1
5	Parraklar soni	12 ta.
6	G'altakning diametri	350

Mikroelektrostantsiyalarni laboratoriyada sinovdan o'tkazish natijalari rejimi

3-jadval

Soni kuzatuvlar	Burchak pichoqlar,	Tok kuchi,	Kuchlanish, B	Quvvat, B_T
1	5	0,18	212	38,16
2	10	0,20	218	43,6
3	15	0,22	221	48,62
4	20	0,19	215	40,85
5	25	0,19	215	40,85
6	30	0,17	212	36,04
7	35	0,16	210	33,60



1-rasm. MikroGESning past bosimli suv oqimlari funksional sxemasi

1- suv oqimi; 2 - o'rnatish doirasi; 3 korpus; 4 parrak; 5-val; 6 - temir yadro; 7 - generator; 8 – aylantiruvchi lenta; 9 – elektr quvvatning monitoringi bo'limi; α' - oqilona burchak



2-rasm. MikroGESning laboratoriya modeli

MikroGESning laboratoriya rejimida sinash natijalari 3-Jadvalda keltirilgan.

